
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Bayramali Kilichev

ONOMASTIKA

O'QUV QO'LLANMA

*5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lif yo'nalishi
o'quv rejasi va dasturi asosida yozilgan*

81.2-3ya73

81'373.2(075.8)

K 41

Bayramali Kilichev

Onomastika [Matn] : o'quv qo'llanma / Bayramali Kilichev – Buxoro: 2023. –180 b.

UO'K 81'373.2(075.8)

KBK 81.2-3ya73

MUHARRIR:

D.N.Yuldasheva

- pedagogika fanlari nomzodi, BuxDU professori.

TAQRIZCHILAR:

A.R.Axmedov

- filologiya fanlari nomzodi, BuxDU dotsenti.

I.I.Xudaynazarov

- filologiya fanlari nomzodi, TATU Qarshi filiali dotsenti.

Ushbu qo'llanmada onomastika, unga xos asosiy tushunchalar, onomastikaning tizimi xususiyatlari, uning toponimiya, antroponimiya, oronimiya kabi yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada toponimlarga xos xususiyatlar, Buxoro toponimiyasi masalalari hamda ismlar bilan aloqador ayrim lisoniy jihatlar bayon etilgan.

Qo'llanma uning muallifi tomonidan tuzilgan 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lim yo'nalishi bakalavr mutaxassisligi o'quv dasturi asosida yozilgan.

Qo'llanmadan talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar hamda onomastika sohasi bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2023-yil 26-yanvardagi 30-soni buyrug'iga asosan nashrga tavsija etilgan.

So'zboshi

Til tizimida atoqli otlar alohida o'rin tutadigan lusoniy hodisa sanaladi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi o'zbek onomastikasi, xususan, toponimiya va antroponimiya sohasining ham yangi sifat darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Atoqli otlarga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek onomastikasini yanada yuksak pog'onaga ko'tarish, uni yanada rivojlantirish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham "Onomastika"ni alohida fan sifatida oliv o'quv yurtlarida o'qitish atoqli otlar borasida yetarli bilim, malaka va ko'nikmaga ega yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zbek xalqining tarixi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar kabi atoqli ot turlari haqida tushunchaga egalik insonning ma'naviy hayotida, uning madaniy saviyasini ko'tarishda, ilmiy va badiiy tafakkurini takomillashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi taraqqiyot salohiyatli kadrlar yetishtirishni, texnologik jihatdan yangi bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarga ega bo'lishni talab etmoqda. O'zbek onomastikasi bo'yicha keng bilim qamroviga ega kadrlarni tayyorlash, raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirish sifatini yanada oshirish maqsadida ushbu qo'llanma yaratildi.

Onomastik birliklar – atoqli otlar borasida kerakli mutaxassislarni tayyorlash faqat filologiya sohasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishgina emas, balki mafkuraviy, siyosiy-ma'rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu kursni o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj o'z yurti, yashash makoni, atrofidagi olamni o'rganish, til va xalq tarixidan xabardor bo'lish, atoqli otlardan adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri foydalanish, ularni ma'naviy boylik sifatida asrash kabilar bilan uzviy bog'liqdir.

Aytish lozimki, yuqorida qayd etilgan zarurat va ehtiyojlarni qondiruvchi darslik va o‘quv qo‘llanmalar sanoqli va kam nusxada nashr qilingan¹. Ushbu qo‘llanma hozirgacha chop etilgan kitoblarni ma’lum darajada to‘ldiradi, degan umiddamiz. Mazkur o‘quv qo‘llanma shu soha bo‘yicha rus, turkiy va o‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy va amaliy ishlarni, tadqiqot va tajribalarni izchil o‘rganish, umumlashtirish, shuningdek, muallifning o‘zbek tili onomastikasi bo‘yicha olib borayotgan ilmiy hamda amaliy izlanishlari natijasida yuzaga keldi.

Qo‘llanmani tuzishda onomastika, toponimika, antroponomika, gidronimika, oronimika bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan yetuk mutaxassislar E.Begmatov, Z.Do‘simov, T.Nafasov, B.O‘rinboyev, B.Yo‘ldoshev, N.Oxunov, N.Uluqov, S.Qorayev, S.Naimov, G’.Sattorov, T.Enazarov, I.Xudoynazarov, R.Nuriddinova va boshqa olimlarning, shuningdek, so‘nggi yillarda onomastikaning turli sohalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan S.Kenjayeva, Sh.Temirov, D.Yuldoshev, Q.Olloyorov, N.G‘aniyev, I.Xolmuratov, N.Adizova, S.Axmedov, N.Mo‘minova kabilarning ishlaridan foydalanildi. Ayrim mavzularni bayon etishda yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga tayanilindi.

O‘quv qo‘llanma bakalavr 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) mutaxassisligi o‘quv rejasi soatlari asosida yozildi.

O‘quv qo‘llanmadagi materiallardan oliygoh talabalari bilan bir qatorda akademik litsey hamda maktab o‘quvchilari, shuningdek, o‘zbek onomastikasi masalalari bilan qiziquvchi boshqa soha mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

¹ Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Магистрантлар учун ўкув қўлланма. – Бухоро, 2005. – 94 б.

1-mavzu: “Onomastika” kursining maqsadi, vazifasi va mundarijasи

Reja:

1. Fanning maqsadi va vazifasi.
2. Onomastikaning tarkibi.

Tayanch tushunchalar: *onomastika, toponimika, antroponiika, onomastik ko’lam, onomastik birlik, onomastik lugat, onomastik termin, onomastik tizim, o’zbek onomastikasi.*

Fanning maqsadi va vazifasi. Onomastika – yunoncha so’z bo’lib, “*nom qo'yish san'ati*” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtida bu termin ikki ma’noda qo’llaniladi: 1) ma’lum bir til, xalq tarkibida qo’llangan barcha atoqli otlarning yig’indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o’ziga xos xususiyatlarini o’rganuvchi tilshunoslik sohasi².

O’zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi o’zbek tilining respublikamiz hayotining barcha sohalarida to’liq amal qilishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. Jumladan, til lug’at tarkibining bir qismini tashkil qilgan onomastik birlklarga munosabat tubdan o’zgardi. «Joy nomlarini tartibga solish to’g’risida» Vazirlar Mahkamasining alohida qarori e’lon qilindi. Shuningdek, «Davlat tili haqida»gi Qonunning 24-moddasida «Barcha tarixiy nomlar va joylarning nomlari xalqning milliy mulki hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi», – deb yozib qo’yildi.

Darhaqiqat, tilshunoslikda atoqli otlar deb yuritilayotgan nomlar tilimizning beba ho tarixiy, madaniy va ma’naviy boyligidir. Bu boylik o’zbek tilida ko’p asrlar davomida astasekinlik bilan tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Atoqli otlar jamg’armasini asrash, uni yangi nomlar bilan to’ldirib borish, ilmiy asosda o’rganish har birimizning muqaddas burchimizdir. Atoqli otlarning milliyligi, tabiiyligini saqlash,

² Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. –Наманган, 2006. –Б.60.

nomning milliy til qonuniyatlariga mosligini belgilash davr talabidir.

Mustaqillik, milliy istiqlol bilan bog'liq yangi-yangi nomlar paydo bo'lmoqdaki, ularni izchil va yaxlit bir tizim sifatida o'rghanish bugungi tilshunoslik fani uchun zarur bo'lgan muammolardan biridir. Shoir Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, «Ismlarning tarixi uzoq, ismlarda asrlik qismat». Darhaqiqat, ismlar tarixi – xalq tarixi. Uni maxsus kurs sifatida o'qitish obyektiv haqiqatdir.

Onomastikaning tarkibi. XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan, eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, uslubshunoslik, nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi. O'zbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O'zbek nomshunosligi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar o'zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi³.

"Onomastika" deb nomlanuvchi fanning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rghanish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma'lumotni berishdan iboratdir.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rjanuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. "Onomastika" fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rghanishni maqsad qilib qo'yadi.

³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 ийлгача эълон қилинган ишлар олинган). –Наманган, 2008. –Б. 168.

“Onomastika” fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko’ra quyidagi guruh (bo’lim)larga ajratadi:

antroponim – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponim* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonim* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonim* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, *astroponim* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari, onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan *mifonimlar* xayoliy-to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy* va *dialektal onomastika*, *odatdag'i* (*amaliy*) va *poetik onomastika*, *zamonaviy* va *tarixiy onomastika*, *nazariy* va *amaliy onomastika* kabi turlarga bo'linadi.

Bu kursning asosiy maqsadi talabalarning ilmiy dunyoqarashini yanada mustahkamlash, uning tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlash layoqatini orttirish, tilshunoslikning dolzarb muammolarini chuqur o'rgatish, o'qituvchilik faoliyatida zarur bo'ladigan fan tarmoqlarining asosiy tushuncha va kategoriyalari haqida atroflicha ma'lumot berishdir. Bu fanni o'rganish orqali bo'lg'usi filologlar onomastikaning nazariy va amaliy masalalari bilan yaqindan tanishib chiqadilar. Bu jarayonda atoqli otlarning turdosh otlardan farqini, hozirgi o'zbek tili tarixi hamda dialektologiya fanlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Nomlarda xalq tarixining aks etishini turli misollarda tushunib yetadilar. Eng muhim, onomasionimlarni tushunish va izohlash malakasiga ega bo'ladilar. Bu kurs orqali talabalarda ilmiy ish qilish havasi

uyg'onadi. Onomasionimlarning ma'nosи, to'g'ri talaffuzи va yozilishi bo'yicha aniq ko'nikma hosil bo'ladi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir.

Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkrinsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan ham shug'ullanadi.

Onomastika, jumladan, o'zbek onomastikasi tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

"Onomastika" nomli fan quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

1. Atoqli otlarning tilshunoslikda o'rganilishi.
2. Hozirgi zamon tilshunosligida atoqli otlarning o'ziga xosligi muammolarining o'rganilishi.
3. O'zbek onomastik ko'lami, uning hajmi va mazmuni.

-
4. Onomastik birliklarni tadqiq etish metodlari.
 5. O'zbek antroponimikasi, uning tarixi va asosiy taraqqiyot bosqichlari.
 6. O'zbek toponimikasi, uning asosiy taraqqiyot bosqichlari.
 7. O'zbek toponimikasining umumiy tavsifi, unda o'z va o'zlashgan qatlam elementlari.
 8. O'zbek kosmonimikasi, zoonimikasi, gidronimikasi, etnonimikasi, ideonimikasi kabilarning rivojlanish bosqichlari.
 9. O'zbek onomastikasi masalalarini ta'limning turli bosqichlarida o'rghanish muammolari va boshqalar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda onomastikaning nazariy va amaliy muammolarini o'rghanishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Masalan, respublikadagi har bir viloyat, shahar, tuman hokimliklari huzurida toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus komissiyalar ish yuritmoqda.

Bu komissiyalar o'sha hududdagi tomonimik obyektlarga qo'yilgan nomlarni zamon talablariga ko'ra yangilash bo'yicha qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, har bir onimik leksema ma'lum bir ma'noni beradi, ya'ni leksema joy yoki shaxs haqida xabar yetkazishi mumkin. Bu xabar esa maxsus onomastik vazifani bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, bir onomastik leksema bir sohada emas, balki bir necha sohada ham ma'lum bir xabarni tashishi mumkin. Shaklan bir xil, mazmunan har xil bo'lgan onimlar onomastikada onomimiyani vujudga keltiradi: Zarafshon (shahar), Zarafshon (antroponim), Bayramali (shahar), Bayramali (antroponim). Turdosh otlar onimik leksemalarga o'tganda hosil bo'ladigan apellyativ onomimiya: To'xtasin (antroponim), to'xtasin (fe'l shakli), Go'zal (antroponim), go'zal (sifat) kabi. Onomasionimlarda sinonimiya hodisasi mavjud emas. Ularda poluonimiya (ko'p nomlilik)

mavjud: Jayhun – Amudaryo, Nasaf – Qarshi; Avitsena – Abu Ali ibn Sino kabi.

“Onomastika” faniga qiziqish va ehtiyoj xorijiy mamlakatlarda nihoyatda kuchli. Ayniqsa, Rossiyada qator monografiya va darsliklar nashr qilingan.

Rus tilida onomastikaning turli masalalariga bag’ishlangan qator to’plamlar ham nashr qilindi. “Ономастика” (Moskva, 1969), “Восточнославянская ономастика” (Moskva, 1972), “Этнография имён” (Moskva, 1971), “Ономастика и норма” (Moskva, 1976), “Историческая ономастика” (Moskva, 1977), “Ономастика Средней Азии” (Moskva, 1978) va boshqalar.

Ko’rinadiki, bu sohaga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Onomastikaning keng taraqqiy qilib borishi uning turli mustaqil bo’limlarga ajralishiga olib keldi. Jumladan, antroponimika, toponimika, zoonimika, gidronimika va h. k.ga bo’lib o’rganishga kirishildi. Bular orasida o’zbek tilshunosligida keng va atroficha o’rganilgani o’zbek tili toponimikasi desak, xato qilmaymiz.

Turkologiyada ham onomastika masalalari tadqiqiga bag’ishdangan qator ishlar mavjud. Bu sohada akademik V.V.Radlov, V.A.Gordlevskiy, N.A.Baskakov, G’.F.Sattorov, T.Jonuzoqov va boshqa olimlar samarali ish olib borganlar. Jumladan, N.A.Baskakov hozirgi kunda rus tilida faol qo’llanilayotgan yuzdan ortiq kishi nomlarining kelib chiqishi jihatidan turkiy ekanligini isbotlab berdi⁴.

Respublikamizda ham bu soha fanini yanada rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bunga mustaqillikka erishilgandan so’ng, 1991-yilda Xiva shahrida o’tkazilgan xalqaro onomastik ilmiy-amaliy konferensiyasini misol qilib keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamizning ayrim oliy o’quv yurtlarida “O’zbek onomastikasi”, “O’zbek onomastikasi masalalari”, “O’zbekiston toponimiyasi” maxsus kurslari

⁴ Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения //Антропонимика. –М., 1970. –С. 98-103.

o'qitilmoqda. Professor T.Nafasov tomonidan «O'zbekiston toponimikasi» bo'yicha o'quv dasturi tuzilgan. Ammo bu fan bo'yicha alohida darslik nashr qilinmadi. Shuni hisobga olib, qo'lingizdagi o'quv qo'llanmasi tuzildi.

O'quv qo'llanma muallifning shu soha bo'yicha to'plagan ilmiy, amaliy tajribalari, sohaning yurtimizdagi yetuk mutaxassislari olib borgan tadqiqotlariga suyanilib tuzildi.

Savol va topshiriqlar:

1. Onomastika nima?
2. Onomastika tilshunoslikning qaysi bo'lim(lar)i bilan aloqador?
3. Onomastik birlik nima?
4. Onomastikaning asosiy vazifasi qaysi?
5. Onomastikaning oldiga qanday maqsad qo'yilgan?
6. O'zbek onomastikasi shakllanishi va rivojiga qaysi olimlar o'z hissasini qo'shgan?
7. Atoqli otlarning qaysi birliklari onomastikada o'rganiladi?

2-mavzu: Onomastik leksikaning til lug'at tizimidagi o'rni

Reja:

1. Til lug'at tizimi tushunchasi.
2. Onomastik birlikning til tizimidagi o'rni.

Tayanch tushunchalar: onomastika, onomastik leksika, til, til tizimi, sistema, tizim, leksika, lug'aviy ma'noviy guruh, antroponim, toponim, leksik birlik.

Til lug'at tizimi tushunchasi. Til lug'at tizimining sistemaviy qurishilishi, yashashi va kengayishi jarayonida tizimi qonun qoidaga bo'ysunishi masalalarini tadqiq qilish o'zbek tilshunosligi fanida o'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlandi⁵. 80-90-yillarda esa bu masala to'la-to'kis ijobiy ham etildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida "sistema

⁵ Рахматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги// Ўзбек тили ва адабиёти. 1984, 5-сон. –В.22.; Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиши ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. 1974, 1-сон; Кўчкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. -Т., 1977. –166 б.; Ўзбек адабий тили лексикасини ўрганиш вазифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. 1987, 3-сон. –Б.27.

leksikologiyasi tezislari”, prof. Sh.Raxmatullayev tomonidan qaytadan yozilgan leksikologiya kursi⁶, H.Ne’matov, R.Rasulovlarning umumlashtiruvchi o’quv qo’llanmasi⁷ o’zbek tili sistem (tizim) leksikologiyasi shakllanganligini to’la-to’kis isbotladi; leksikaning tizimi tabiatini munozarasiz o’z-o’zidan tushunarli holatga aylandi. Bunday umumlashtiruvchi ishlar keyingi leksikologik tadqiqotlar uchun bir yo’llanma bo’ldi. Leksikaning sistemaviy tabiatiga tayangan holda tadqiqotlar olib borish leksik birliklarning o’ziga xos xususiyatlarini to’la ochib berish imkoniyatini beradi.

Onomastik birlikning til tizimidagi o’rni. Leksika tizimi qurilishining to’la-to’kis isbotlanishi leksikologik tadqiqotlar oldiga juda ko’p yangi muammolarni ham qo’ydi. Bu muammo va vazifalarning bir qismi sistemaviy leksikologiya bo’yicha o’quv qo’llanmasida sanab o’tilgan⁸, bir qismi esa keyingi tadqiqotlarda ko’tarildi⁹. Ammo ularning kattagina bir qismi ilmiy adabiyotlarda haligacha o’rtaga qo’yilmagan. Shunday hali yechilmagan muammolardan biri leksikaning tizimi tabiatini va unda onomosinonimlarning shu lug’at tizimidagi o’rnidir. Bu masalaga tilshunoslar 50-60-yillarda ko’p murojaat qilgan edilar. Tilshunoslikda ikki tushuncha farqlanadi: 1) tilning asosiy lug’at fondi (основной словарный фонд языка); 2) tilning lug’at sostavi (словарный состав языка).

O’tgan asrning o’rtalaridagi tadqiqotlarda, chunonchi, A.I.Vizgalov, A.A.Reformatskiy va boshqalarning ishlarida atoqli nomlar tilning asosiy lug’at fondiga kiritilmas edi. Ularning o’rni bu tadqiqotlarda lug’at tarkibida belgilanar edi. Lekin bu tadqiqotlar leksikaning sistemaviy tadqiqi alohida bir usul sifatida shakllanishidan ancha oldin bajarilgan edi. Shunga

⁶ Турсунов У, Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Фан, 1992. – 399 б.

⁷ Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 127 б.

⁸ Неъматов Ҳ., Расулов Р. Кўрсатилган асар. –Б.4.

⁹ Нафасов Т. Ўзбек номномаси. –Карши, Насаф, 1993. – 152 б.; Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лугавий градуонимия: филол.фанл.номзоди..дисс. автореф. –Т., 1996. – 21 б.; Сайдова Ҳ. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: филол.фанл.номз...дисс. автореф. –Самарқанд, 1995. – 20 б.; Киличев Б. Ўзбек тилида партонимия: филол.фанл. номз ... дисс. автореф. –Т., 1997. – 22 б.

qaramay, K.A.Levkovskaya ta'kidlaganidek, til lug'at sostavida ham atoqli o'tlar o'ziga xos alohida so'zlar sifatida ajratilar edi. Leksikaning sistemaviy tadqiqotini tilshunoslikka boshlab bergen olmilardan biri A.A.Ufimsevadir. U atoqli otlarni til leksik sistemasini to'ldiruvchi mikrosistemalardan biri sifatidan tan olinishini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida esa bu sog'ada qilingan ishlar E.A.Begmatovning tadqiqotlarida atroflicha tahlil etilgan¹⁰. Bunda tadqiqotchilarning asosiy ishi atoqli otlarni leksik sistemadagi o'rnini belgilashga emas, balki ularning leksik tizimidagi o'ziga xos alohida bir tizimcha ekanligini isbotlashga qaratildi. Keyingi davr o'zbek tilshunosligida ham olimlarning kattagina guruhining sa'y harakati bilan (jumladan, E.A.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, G'.Sattorov) atoqli otlarning til lug'at tizimining alohida bir bo'g'ini ekanligi to'la-to'kis isbotlandi. Jumladan, prof. E.Begmatov yozadi: "Tildagi turdosh ot va boshqa xil so'zlar atoqli ot vazifasiga o'tgach, turlituman shakliy hamda funksional o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, Azizjon, Azizbibi va Bo'tabek, Bo'taylor, Bo'taql, Bo'taboy ismlarini ham semantik, ham shakliy jihatdan "aziz" va "bo'ta" so'zlariga teng deb bo'ladimi?

Ism vazifasida qo'llanuvchi so'z onomastika ixtiyorida ba'zi qo'shimchalar, yordamchi shakllar va boshqa elementlarni qabul qiladi. So'zning ism sifatida funksional imkoniyatlari ham kengayadi. Masalan: Bo'riboy, Bo'rigul, Bo'rinois, Bo'rixon. . . kabi ismlarni tildagi turdosh ot bo'ri so'zining aynan o'zi deb bo'lmaydi. Ism sifatida qo'llanuvchi bo'ri aslida turdosh ot bo'lgan bo'ri (volk)dan yuzaga kelgan bo'lsa ham, u endi atoqli ot sifatida o'ziga xos semantik, nominativ va qunktsional belgilarga egadir. Xuddi shuningdek, Bobonor, Bozorgul, Jumamurod, Murodali singari qo'shma ismlar ham antroponomlik doirasida yasalgan va atoqli otlarga xos leksemalardir¹¹. Darhaqiqat,

¹⁰ Бегматов Э. Номшунослигимизнинг тадқиқ йўллари//Тил ва адабиёт таълими. 1992, 2-сон. –Б.3-5; Киши номларининг маъноларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 2-сон. –Б.5; Ўзбек тили антропонимикаси: филол. фанл.номзоди...дисс. –Т., 1965. – 480 б.

¹¹ Бегматов Э. Номшунослигимизнинг тадқиқ йўллари//Тил ва адабиёт таълими. 1992, 2-сон. –Б.4.

antroponimlar leksik sistema (tizim)ning bir tarkibiy qismi sifatida uning o'zi ham ma'lum podsistema (tizimicha)lardan tashkil topadi. Jumladan, antroponimlarning o'zi ham ism, ota ismi (otchestvo), familiya, laqab, taxallus kabi alohida guruhlarga birlashadi. Xuddi shuningdek, kishi nomlari guruhi o'z navbatida erkaklar va ayollarga qo'yiladigan nomlar to'dasiga ajratiladi. Yuqorida qayd qilingan antroponimik birliklarning o'ziga xos semantik, yasalish, tuzilish va uslubiy xususiyatlari mavjud. Bu til birliklarining rus tilshunos olimlari K.A.Levkovskaya va A.A.Ufimsevalar "Til lug'at sostavidagi alohida gruppa so'zlar"¹² yoki "Til leksik sistemasining ajralmas bo'lagi"¹³ deb qayd qiladilar. Tilshunos E.Begmatov "antropoleksemalar yoki ism-so'zlar"¹⁴ deb atashni taklif qiladi.

Aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, antroponimlar alohida o'ziga xos semantik–uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, grammatic jihatdan ko'plik ifodalay olmaydigan til sistemasida alohida tizim va tizimchalardan iborat bo'lgan bu til birliklari umumiylug'at tizimining qaysi bo'g'inidan joy olishi, lison va nutq ixtilofida bu tizimcha qaysi bosqichga mansubligi muammosi hamon ochiq qolmoqda.

Biz onomastik leksikaning apellyativ leksikaga munosabatini, umuman, o'r ganilmagan degan fikrdan uzoqdamiz. Alohida olingan onomosinonimlarning (onomastik leksikaning) alohida olingan apellyativ leksikaga munosabati bo'yicha faqat o'zbek tilshunosligining o'zida yuzdan ziyodroq ilmiy ishlar nashr etilgan. Bu ishlarning barchasi onomastik leksikaning alohida olingan apellyativ leksika bilan tarixiy–etimologik aloqalariga bag'ishlangan. Shunda ham bunday ishlarda, onomasiologik-etimologik ma'no bilan tarixiy–etimologik ma'no tushunchalari ko'p hollarda aralashtiriladi¹⁵.

¹² Левковская К.А. Теория слова, принципы её построения и аспекты изучения лексического материала. –М.: Высшая школа, 1971. –С.183-200.

¹³ Уфимцева А.А. Опыт исследования языка как системы. –М.: Наука, 1962. – 280 с.

¹⁴ Бегматов Э. Антрополексемалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -1965, 2-сон. –Б.65.

¹⁵ Ҳусанов Н. XV аср ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. –Т., 1996.

Qator ishlarda onomastik leksikaning ichida tizimiylar munosabatlar atroflicha ko'rib o'tilganligi ma'lum¹⁶. O'zbek tilida onomastik leksikaning semantik funksional tasnifi (antroponimlar, toponimlar, teonimlar, astronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, oykonimlar, gidronimlar va hokazolar), har bir guruhning o'ziga xos leksik-semantik, struktur xususiyatlari, indikatorlari o'z vaqtida ancha mufassal sharhlangan va izohlangan edi. Lekin o'zbek tilshunoslaridan, masalan, Abdukarim yoki Abdujalil kabilar o'zbek tili lug'at boyligi tizimida o'rinni oladimi? deb so'rasangiz aniq javob bera olmay, yo bu masalani o'rganish kerak, yo "bu so'z emas, nom-ku", – deb javob beradi.

Nom tilning lug'at boyligidan o'rinni oladimi, yo'qmi? O'rinni olsa, lug'at tizimining qaysi bo'g'inida joylashadi, aksincha bo'lganda lug'at tizimi bilan qanday bog'lanadi? Shu ikki masalani hal qilmasdan turib, o'zbek tili leksikologiyasining bugungi taraqqiyot bosqichida onomastik tadqiqotlarga qo'l urish fan taraqqiyotini tan olmaslikdan bo'lak narsa emas. Shuning uchun biz bu bo'limda nomlarning o'zbek tili lug'at boyligi tizimigagi mavqeyi masalasiga to'xtaldik.

Sistemaviy leksikologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tilning lug'at tizimi pog'onaviy qurilishga ega. Uning har bir bo'g'ini markaz va qurshovdan iborat bo'lib, bo'g'inning markazi, odatda, bir so'zdan tashkil topadi. Uning birinchi, ikkinchi, uchuinchchi qurshovlari: sinonimik, graduonimik va boshqa qatorlari bo'ladi, ularning barchasi ochiqdir, ya'ni yangi leksemalar bilan to'ldirilishi mumkin. Qurshov leksemalarining miqdori so'zlovchining madaniy saviyasi va sohani bilish darajasi bilan bog'liq. Shuning uchun sinchi o'zbek tilida olti yuzdan ziyod ot turini, baliqshunos baliqning 500 ga yaqin turi nomlarini bilgan

¹⁶ Бегматов Э., Хусанов Н., Ёкубов Ш., Бокиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари //Ўзбек тили ва адабиёти. -1992, 5-сон. -Б.21-28; Зинин С. Введение в русскую антропонимию. -Т.: Фан, 1972. – 174 с.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. -М.: Наука, 1973. – 365 с.; Чичагов В. К. Из истории русских имен, отчеств и фамилий. -М.: Учпедгиз, 1959. – 176 с.

holda, oddiy o'zbek 10-12 ot turi nomlarini, 4-5 baliq turi nomlarini bilish bilan bemalol yashay oladi¹⁷. Zaruriy ehtiyoj sifatida u bunday 18-20 so'z o'rnida atigi ikkita so'z "ot" va "baliq" so'zini bilsa ham yetarli. Oddiy o'zbek ham 500 dan ziyyodroq baliq turi va ot turlari o'rniga qayd qilinganidek, ot va baliq so'zlarini bilsa, o'z nutqi ehtiyojlarini bemalol qordira oladi. Bundan leksikologlar shunday xulosa qiladilarki, leksik tizimning istagan bo'g'inida nutqiy ehtiyoj uchun eng zaruriy vosita shu bo'g'ining markazida turuvchi leksemadir. Qurshov leksemalarining qolganlari esa ikkilamchi vazifalarni – nutqni go'zallashtirish, fikrni aniq ifodalash, qaytariqlardan qochish kabi vazifalarni bajaradi.

Aytib o'tganimizdek, til leksikasining sistemaviy qurilishi pog'onali, bosqichli tabiatga ega va quyidan yuqoriga qarab umumlashib boradi¹⁸. Mana shu jarayonda istagan quyi bosqichdan undan yuqori bosqichgacha shu bosqichning barcha so'zlari emas, balki faqat markaziy leksemasigina kiradi, xolos. Chunonchi, "ot" leksemasining qurshovi sinchi uchun 500ga yaqin so'zni qamrab olsa, bu 500ga yaqin so'zdan undan yuqoriroq bo'lган "ulov" lug'aviy ma'no guruhiga atigi bittagina so'z "ot" kiradi va quyidagi gipo-giperonomik LMGni tashkil etadi.

Vaholanki, "ulov" so'zining birinchi qurshovida turgan ot, eshak, xachir, qo'tos, tuya leksemalarining har biri ulovdan keyingi bosqich uchun markaziy leksema sifatida ro'yobga chiqadi va o'z atrofida yuzlab qurshov so'zlarni birlashtiradi. Va bu qurshov so'zlarni bilish har bir o'zbek uchun shart emas. Jumladan, "biya" bilan "baytal" farqini hamma o'zbek bilmaydi. Shu asosda biz dastlab qo'ygan savolimizni boshqa ko'rinishda ham qo'yishimiz mumkin. Masalan, "ilonbosh"¹⁹ yoki "kakra"²⁰

¹⁷ Сафарова Р Ўзбек тилида гипонимия: филол. фанл.номз ... дисс. автореф. –Т., 1987. –Б.19.

¹⁸ Нематов Ҳ., Расулов Р. Кўрсатилган асар. –Б.78-83.

¹⁹ Илонбош – олабугасимонлар туркумига мансуб, танаси чўзиқ, боши ясси, кўрининиши илонга ўхшаб кетадиган балиқ [Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик, 2-жилд. –Т., 2006. –Б.198].

²⁰ Какра – 1) кўпинча галла экинлари орасида ўсадиган кўп йиллик тахир, талҳа ўсимлик; 2) тахир, аччиқ [Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик, 2-жилд. –Т., 2006. –Б.295].

so'zi tili lug'at boyligidan o'rin oladimi? Har ikkala so'z ham o'zbek tilida so'zlashuvchilarning katta qismiga notanishdir. Albatta, bu so'zlar o'zbek tilining keng, umumiste'mol so'zlari sirasidan o'rin olmaydi.

Nomlar ham tabiatan markaziy leksemaning mana shunday eng chekka qurshov leksemalari tabiatiga egadir, lekin ularning vazifasi yuqorida qayd qilingan qurshov leksemalardan tamoman boshqachadir.

Endi, shu bo'limning boshida qo'yilgan savolga javob beramiz. Nomlar o'zbek tili leksikasining umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan keng iste'mol so'zlari sirasida o'rin olmaydi, ammo ular alohida shaxsning xususiy leksikasida katta mavqe va ahamiyatga molikdir. Masalaning bunday qo'yilishi bugungi tilshunosligimizda eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan lison va nutq ixtilofi bilan to'qnashadi. Chunki lison umumijtimoiy tabiatga, nutq esa shaxsiy ijtimoiy qimmatga egadir.


Lison nutq ixtilofidan o'ziga xos qonuniyat mavjud. Bu qonuniyat shundan iboratki, biron narsaning nutqda yashashi va voqelanishi uchun bu narsa lisoniy tizimda imkoniyat sifatida o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. O'zbek tili leksikasida nomlarning qanday imkoniyati borki, ular har bir muayyan shaxs lug'at boyligida eng faol so'zlardan bir guruhining tashkil etadi? Bunday imkoniyat o'zbek tilida har bir soha nomlari uchun alohidadir. Bizning tadqiq mavzuyimiz atoqli otlar bo'lganligi sababli biz *odam* tushunchasining tilimizda ifodalanishi va *odam* leksemasining qurshovlari ustidagina to'xtalamiz.

O'zbek tilida *odam* (shaxs)ni tavsiflash, atash yo'llari va usullari ancha mufassal o'rganilgan²¹. Biz o'zbek tilida shaxsni atash, nomlash usullaridan bir qisminigina sanab o'tamiz.

1. Jinsga ko'ra: *erkak-ayol, bobo-kampir, qiz-o'g'il.*
2. Qarindoshligiga ko'ra: *ota-on, tog'a-amma.*

²¹ Нарзиева М. Қон-қариндошлиқ номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 5-сон. -Б.47-48.

-
3. Yoshiga ko'ra: *ninni, chaqaloq, go'dak, bola, yigit.*
 4. Millatiga ko'ra: *o'zbek, tojik, qirg'iz, rus.*
 5. Turar joyiga ko'ra: *buxorolik, samarqandlik, xorazmlik, navoiylik.*
 6. Kasb-koriga ko'ra: *ovchi, baliqchi, traktorchi.*
 7. Gavda tuzilishiga ko'ra: *baqaloq, novcha, pakana.*
 8. Fe'l-atvoriga ko'ra: *ayyor, badjahl, xushfe'l.*
 9. Ayrim xususiyatiga ko'ra: *shal pangquloq.*
 10. Ayrim uzvlaridagi kamchiligiga ko'ra: *cho'loq, ko'r, soqov, gung.*
 11. Xatti-harakatiga ko'ra: *qo'rs, o'jar, muloyim, badjahl.*
- Bunday imkoniyatlarning hammasini sanab chiqish mumkin emas. Bu imkoniyatlarning barchasi shaxsni atashdagi lisoniy usul, vositalardir. Antroponimikada bulardan foydalilaniladi. Nomlar, jumladan, antroponimlar o'zbek lisoniy tizimida "odam" leksemasining alohida bir qurshovini tashkil etadi.
- Chizmadan ko'riniib turibdiki, antroponimik qurshov "odam" leksemasining eng chekkasidan o'rinni olgan. Demak, lisoniy tizimda shunday qurshov mavjud. Bunday qurshov "erkak" so'zida ham "ayol" so'zida ham mavjud bo'lib, lisoniy tizimda "erkak" so'zi nomlar qurshovi ham, "ayol" so'zi nomlar qurshovi ham bo'sh, muayyan so'zlar bilan to'ldirilmagan. Shu bois har bir shaxs bu qurshovni o'z ijtimoiy amaliyoti asosida to'ldiradi va o'zining faol so'zlariga aylantiradi.



Shuning uchun “odam”, “erkak”, “ayol” leksemalarining eng chekka qurshovini tashkil etadigan antroponimlar lisoniy-lug’aviy tizimga kira olmaydi, chunki qurshovda o’rin olgan emas, lekin bu qurshov lisoniy tizimning markazidan eng uzoqlashgan, chekka nuqtasida turadi. Shu jihatdan bu qurshovni “ilonbosh” – baliq, “kakra” – o’t leksemasi gipo-giperonimik qurshovida tutgan o’rni bilan qiyoslash mumkin. Agar “ilonbosh” – baliq qurshovining beshinchi, oltinchi qurshovida turganligi sababli o’zbeklarning 99 foiziga notanish bo’lgan holda, o’zbek tili lug’at boyligidan maxsus so’zlar sifatida shartli ravishda o’rin olsa, antroponimlar ham “odam” leksemasining barcha qatorlarining eng chekkasidan o’rin oladi. Shuning uchun umumo’zbek tili lug’at boyligida eng so’nggi, eng ixtisoslashgan so’zlar doirasidan o’rin oladi. Antroponimlar “odam” leksemasining eng chekka qurshovi bo’lganligi sababli umumijtimoiy ahamiyatga ega bo’lmay, har bir shaxs nutqida alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun har bir shaxsning antroponimlar tizimi va antroponimik boyligi uning o’ziga xosdir. Bu xoslik shunchalik xususiyki, bir kishi leksikasidagi Tohir bilan ikkinchi kishining leksikasidagi Tohir tamoman boshqa ma’no va mohiyatga ega bo’lishi mumkin.

Antroponimlar tilning lug'at tizimida eng chekka qurshov sifatida mavjud bo'lsa ham, ular tilning qurilish tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Shuning uchun ham antroponimlar deyarli barcha lug'atlardan o'rinni oladi. Antroponimlar turkiy tilshunoslikning to'ng'ich asari Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" idan boshlab "O'zbek tilining izohli lug'ati" gacha bo'lgan lug'atlarning ko'pchiligidan o'rinni olib kelmoqda. Shunday qilib, bo'limimizning xulosalab ayta olamizki, nomlarning o'zbek tilining lug'at boyligi tizimida umuman o'rinni bor. Lekin u umumijtimoiy ega emas, balki shaxsiy ijtimoiy tabiatga ega. Antroponimlar umumijtimoiy, ya'ni lisoniy lug'aviy boylikning eng chekkasidan o'rinni olsa ham, alohida olingan shaxs nutqida faol leksik boylik sifatida qo'llanilaveradi, zeroki, umumijtimoiy-lisoniy bosqichda antroponim chekka va eng zarur lisoniy bo'sh qurshovini tashkil etadi; bu qurshov lisoniy bosqichda faqat imkoniyat sifatida mavjuddir, xolos. Har bir shaxs uchun bu qurshov shaxsiy va xususiydir.

Savol va topshiriqlar:

1. Til lug'at tizimi tushunchasini ta'riflang.
2. Onomastik birlik nima,
3. Onomastik birlikning til tizimidagi o'rnini tushuntiring.
4. Leksik birlik nima?
5. Atoqli ot til lug'at tizimida qanday o'rinni tutadi?
6. Onomastik birlik qanday hosil qilinadi?
7. Lug'aviy boylikning eng chekki nuqtasi nima?
8. Til tizimi nima?
9. Lug'aviy ma'noviy guruh hodisasini izohlang.

3-mavzu: Atoqli otlarning transonimizatsiyasi

Reja:

1. Atoqli otlar haqida.
2. Transtoponimizatsiya.
3. Transantropoponimizatsiya.

Tayanch tushunchalar: *atoqli ot, so'z yasalishi, atoqli ot yasalishi, onim, onimik bosqich, onimik yasalish, onomastik sath, apellyativ, nominativ-funksional xususiyat, konversiya usuli, tashqi konversiya, ichki konversiya, gidronimik konversiya, transonimizatsiya, atoqli otlarning transonimizatsiyasi, transtoponimizatsiya, transantropoponimizatsiya.*

Atoqli otlar o'z tabiatiga ko'ra tilning g'oyatda turg'un, kam o'zgaruvchan, o'zga tillarga tarjimasiz beriladigan materialidir. Shu xususiyatiga ko'ra atoqli otlar tarixiy, lisoniy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo'ladi.

Ayniqsa atoqli otlarning bir ko'rinishi toponimlarning paydo bo'lish tarixi, ularning tuzilish va yasalish xususiyatlarini o'rganish lingvistik nuqtyi nazaridan ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida atoqli otlarning yasalishi bo'yicha E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do'simov, T.Rahmatov, N.Oxunov kabi tadqiqotchilarning qator ilmiy ishlari nashr qilingan.

Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tilda onimlarning hosil bo'lishi turli yo'l va usullar bilan amalga oshiriladi: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va h.k.

Atoqli otlarning apellyativ leksika negizida yasalishi usuli haqida fikr yuritilgan edi²². Bu bandda onimik bosqichli atoqli otlarning hosil qilinishi haqida ayrim mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Onimik bosqichli (onimik stadiyali) atamasi ostida atoqli otning apellyativ bosqichsiz birdan hosil qilinadigan holati tushuniladi. Bunda ko'proq sun'iy nomlar paydo bo'ladi²³.

²² Киличев Б. Э. Апеллятив асосли атоқли отлар. Бух ДУ ахборотлари. 2008, 1-сон.

²³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. Наманган, 2006. –Б.59.

Atoqli otlar nominativ-funksional xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan bog'liq va o'z navbatida biri ikkinchisiga qarama-qarshi lisoniy mavjudlikdir. Atoqli otlar yasalish tamoyili jihatidan o'zbek tili so'z yasalishiga o'xshasa-da, bunday otlarning hosil bo'lishida ayrim o'ziga xosliklar ham mavjud. Shulardan biri atoqli otlarning atoqli otlardan hosil bo'lishidir. Bu hodisani apellyativ (turdosh ot) hamda boshqa so'z turkumlaridan yuzaga keluvchi konversiya va derivativ usulda yasalgan atoqli otlardan ham farqlash lozim.

Onomastik tadqiqotlarda so'z yasalishining leksik-semantik usulini onomastik konversiya deb yuritilmoqda. "Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir"²⁴.

Konversiya usulida onimik yasalishning ikki ko'rinishi: tashqi konversiya va ichki konversiya mavjudligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilingan.

Jumladan, N.Uluqov Namangan viloyati gidronimiyasi misolida onomastik konversiya haqida fikr yuritib, ularni qanday manba doirasida yuzaga kelishiga ko'ra ikkiga ajratadi: tashqi va ichki gidronimik konversiya.

Tashqi gidronimik konversiyada onomastik sathga mansub bo'limgan lug'aviy birliklar, ya'ni apellyativ so'zlardan gidronimlar yasaladi: Jiyda apellyatividan Jiyda (Chortoq tumanidagi ariq) misolini keltiradi. Ichki konversiya esa til lug'at tarkibining onomastik sathi, ya'ni atoqli ot doirasida gidronimlar yasashdir deb izohlaydi. Bunda oykonim, oronim, zoonim, fitonim kabi atoqli otlar gidronimik sathga o'tadi. Aniqrog'i atoqli otdan yana bir atoqli ot yasaladi, deb qayd etadi²⁵.

Fikrimizcha, atoqli otlar doirasida atoqli ot hosil qilinishini konversiya (ko'chish)ning bir ko'rinishi deyishdan ko'ra, uni atoqli ot yasashning mustaqil bir usuli sifatida tranzitiv (o'tish),

²⁴ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: 1973. –С.115.

²⁵ Улуков Н. Намangan вилояти гидронимиясида ономастик конверсия ва трансонимизация// Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. 5-сон. –Б.77.

ya’ni bir tur atoqli otning boshqa tur atoqli otga o’tishi natijasida ot yasash deb baholash lozim. Bunda antroponim hech o’zgarishsiz toponimga, toponim esa gidronimga va aksinchalikka o’tishlar nazarda tutiladi. Bu hodisa rus tilshunosligida “transonimizatsiya – nomning bir turdan boshqa tur nomiga o’tishi”²⁶, – deb ko’rsatilgan. Transonimizatsiya hodisasining turlari sifatida transantroponomizatsiya, transtoponomizatsiya turlari ham mavjudligi qayd qilingan. Transantroponomizatsiya – antroponimlarni bir turdan ikkinchi turga, ya’ni ismning familiyaga, familiyaning ota ismiga (otchestvo)ga o’tishi, transtoponomizatsiyada esa toponimning bir turdan ikkinchi bir turga o’tishi deb izohlanadi²⁷.

Bizningcha, onomastik sathdagi barcha atoqli otlardan atoqli ot yasalishlariga nisbatan ham transnomilizatsiya termini va tushunchasini qo’llash maqsadga muvofiqdir. Chunki hodisa qanday talqin qilinmasin, oqibat atoqli otdan atoqli ot hosil qilish ustida boradi.

Yig’ilgan faktik materiallar tilimizda transonimizatsiya usuli bilan hosil qilingan atoqli otlar miqdori salmoqli ekanligini ko’rsatdi. Ular quyidagilar:

Transtoponomizatsiya. Onomastik tizimda joy nomlarining atoqli oti bilan kishilarning atoqli otlari bir-biriga juda yaqindir. Bular kundalik nutqda eng ko’p qo’llanadigan va miqdoran salmoqdurligi bilan boshqa atoqli otlardan ajralib turadi. Bunday atoqli otlar tilimizda eng qadimiy bo’lib, kishilar nutqida faol, deyarli har kun yonma-yon ishlatiladi. Bu hol ularning birini ikkinchisiga o’tib ishlatilishida qulaylik tug’diradi. Boshqacha aytganda, kishi atoqli otlari joyning ham atoqli oti sifatida ishlatiladi. Bunda ko’pincha tildagi ekstralengvistik faktorlar, ya’ni ijtimoiy-siyosiy holatlar sabab bo’ladi. Shuning uchun ham kishi atoqli otlarining joy nomlari sifatida atalishi keng tarqalgan hodisa bo’lsa, joy nomlarning kishi nomlariga aylanishi oz

²⁶ Подолская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: 1978. -С.152-153.

²⁷ Горбаневский М.В. Лексико-семантический словообразовательный анализ русского ойкономии (Междуречья Оки, Москви Нары) Автореф.канд.филол.наук. –М., 1980. –С.14.

miqdorda bo'lsa ham, uchrab turadi. Bu haqda quyiroqda alohida fikr yuritamiz.

Ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq holda transtoponimik atoqli otlarning yuzaga kelishida falsafadagi inkorni inkor qonuning tildagi aksini ko'rish mumkin. Jumladan, sobiq ittifoqning parchalanishi, milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi natijasida milliy boshqaruvning vujudga kelishi munosabati bilan inkorni inkor qonuni asosida yangi joy nomlari paydo bo'ldi. Yangi toponimlarning vujudga kelishida inkorni inkor, ya'ni asli antroponim bo'lgan atoqli ot toponimga o'tadi. Natijada, so'z (nom)ning antroponimligi barham topadi, inkor etiladi. Transtoponimizatsiya vujudga keladi: Navoiy (antroponim) – Navoiy (shahar nomi), G'afur G'ulom (antroponim) – G'afur G'ulom (metro bekati), Abdumajid (antroponim) – Abdumajid (Vobkent tumanidagi fermer xo'jaligi) va h.k.

Bunday jarayon bilan bog'liq faktlarni hozirgi paytda hamma hududlarda ham uchratish mumkin. Toponimlar ijtimoiy hayot o'zgarishlari va ularga kishilarning munosabati bilan bog'liq holda paydo bo'ladi²⁸. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar transtoponimizatsiyaga olib keladi. Bunday toponimlarning ichki tuzilishi (nomlanishi)da ham inkorni inkor qonuniyati asosida o'zgarish bo'ladi. Masalan, Buxoro shahridagi Lenin nomli ko'cha Bahovuddin Naqshband nomidagi ko'cha; Sverdlov tumani Jondor tumani deb yuritilmogda. Xullas, inkorni inkor qonuniyati asosida paydo bo'lgan transtoponimizatsiyaga ekstralivingistik hodisa sifatida qaralmog'i lozim.

Atoqli otlarning apellyativ bosqichsiz birdan hosil qilinadigan sun'iy nom sifatida qo'llanishi, ya'ni onimik bosqichli transtoponimlar ko'pincha kosmonimik obyektlarning atoqli otlari doirasida ham uchraydi. Jumladan, Yerga eng yaqin yo'ldosh Oy planetasining ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishi natijasida uning tabiiy-fizik obyektlarini maxsus nomlash bilan

²⁸ Суперанская А.В. Наименования и перенаименования в городах. Сб: изучение географических названий. М.: 1966. -С.87.

bog'liq bir qator atoqli otlar paydo bo'ldi. Bunday nomlar tilda avvaldan mavjud bo'lgan atoqli ot (antroponom)larni sun'iy ko'chirish orqali atoqli ot hosil qilish natijasida paydo bo'ldi. Bunda ikki maqsad ko'zda tutilgan. Birinchidan, fan, texnika va madaniyat sohasida umumommaga tanilgan insonlar nomini ulug'lash va abadiylashtirish bo'lsa, ikkinchidan, yangi obyekt, narsa-hodisa nomini atashdir. Masalan, Oy planetasida oddiy ko'z bilan qaraganda ko'rinaridigan kattaroq qora dog'li dengizlarni Galiley antroponimi bilan atalgan. Oydagi biroz yorug'roq obyektlar, chuqurliklar Lomonosov, Joul Kyuri deb nomlangan. Merkuriy planetasidagi dengiz Promitey deb nomlangan va boshqalar.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan ko'rinaridiki, transtoponimlarning bir ko'rinishini transkosmonimlar deb ham atash mumkin.

Transantroponimizatsiya. Bu usul bilan atoqli ot hosil qilinadi. Bunda tildagi joy nomi antroponimga o'tishi, uni atashi tushuniladi. Transantroponimlar toponimik, kosmonimik, gidronimik kabi atoqli otlarning antroponimga o'tishi orqali hosil bo'ladi: **Buxor** – qadimiy sanskritcha. Buxoro shahrida tug'ilgan yoki tavalludi qandaydir o'sha shahar bilan aloqador bo'lgan bola. Shakllari: Buxorboy, Buxorbek, Buxorjon²⁹. Toshkan, Toshkanboy – o'zbekcha + so'g'dcha. Toshkentda tug'ilgan yoki otasi (biror qarindoshi) Toshkentga ketganda yoki kelganda tug'ilgan bola³⁰.

Tilda osmon jismlarini atovchi astronomik (yunoncha: astro – yulduz, onoma – nom) atoqli otlari ham o'ziga xos maxsus leksik tizimni tashkil qiladi. Fanning keyingi taraqqiyotida kosmosni o'zlashtirish bilan qator yangi tushuncha va atamalar paydo bo'lganligi ko'pchilikka ma'lum. Tilimizdaggi koinot jismlari nomlarining ko'pchiligi Yevropa tiliga mansub. Masalan, Mars, Venera, Yupiter kabi. O'zbek tili lug'at tarkibida ham

²⁹ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. Т.: 2007. –Б.80.

³⁰ Бегматов Э.А. Кўрсатилган асар. –Б.421.

Quyosh, Oy, Zuhra, Cho'lpon kabi tabiiy-fizik obyektlarning atoqli otlari qadimdan faol qo'llanib kelinmoqda.

Keyingi davrda o'zbek tili onomastikasi tizimida Venera, Mars, Yupiter kabi transantroponomlar paydo bo'ldi. Bunday nomlar tilimiz uchun neologizm va ayni zamonda sun'iy nomlardir. Masalan, Jondor tumanidagi Ko'lyon qishlog'ida tug'ilgan ikki o'g'il bolaga Mars va Yupiter deb nom berilgan. Bunday sun'iy transantroponimlarning talaffuzi va yozilishida bir muncha noqulayliklar mavjud. Jumladan, bu yoshlarning farzandlarini Marsovich, Yupiterovich yoki Mars o'g'li, Yupiter qizi deb chaqirish noqulay.

Bu o'rinda transonimizatsiya hodisasida ikki holat mavjudligini qayd etish lozim. Dastlab kosmonimlardan transantroponimlar hosil qilingan. Chunki astronomik jismlarga o'xshatma, taqlid sifatida insonlarga nom berilgan. Planetalarning ilmiy o'rganilishi, u yerdagi tabiiy-fizik joylarni nomlash zarurati tufayli bunday nomlarga sun'iy ravishda kishi nomlari berilmoqda. Masalan, Oy planetasidagi turli dog'lar Galiley tog'i, Gagarin krateri deb atalgan. Xuddi shunday holatni Mendeleyev jadvalidagi 99-elementga Eynshteyn, 101-elementga Mendeleyev, 102-elementga Nobel nomlari berilganligida ham ko'rish mumkin bo'ladi.

Suv obyektlariga atab qo'yilgan atoqli otlar – gidronimlar ham transantroponimlarni hosil qiladi: Zarafshon (daryo nomi) – Zarafshon antroponim³¹ va boshqalar.

Xulosa qilganda, transonimizatsiya tilda atoqli otlardan atoqli ot hosil qilishning alohida bir usuli bo'lib, bunday usulda yuzaga kelgan hosilalar apellyativ leksikadan yasalgan nomlardan ham, derivatsion usulda hosil qilingan nomlardan ham farq qiladi.

Ularni apellyativ bosqichisiz to'satdan hosil qilingan, o'zi atayotgan obyektga sun'iy ravishda qo'yilgan atoqli otlar deyish mumkin.

³¹ Бегматов Э.А. Кўрсатилган асар. –Б.148.

Savol va topshiriqlar:

1. Atoqli otlar haqida ma'lumot bering.
2. Transonimizatsiya nima?
3. Transtoponimizatsiya nima?
4. Transantroponimizatsiya nima?
5. Onomik yasalish hodisasini sharhlang.
6. Nomning nominativ-funksional xususiyat haqida ma'lumot bering.
7. So'z yasalishining konversiya usulini izholang.
8. Konversiya usulining turlari qaysilar?
9. Atoqli otlarning transonimizatsiyasi qanday yuzaga keladi?

4-mavzu: Toponimlar – joy nomlari

Reja:

1. Toponimikaning tilshunoslikda o'rganilishi.
2. O'rta Osiyo toponimiysi tadqiqi.
3. Toponimikaning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi.

Tayanch tushunchalar: *til, onomastika, atoqli ot, jahon tilshunosligi, rus tilshunosligi, o'zbek tilshunosligi, onomastika, geografik nom, geografik obyekt, joy nomi, toponim, toponimiya, toponimika, toponimik material, global, lokal, to'liq, to'liqsiz.*

1. Toponimikaning tilshunoslikda o'rganilishi. Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog'liq so'zlar guruhi mavjud bo'ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Toponim yunoncha so'z bo'lib, *topos – joy, onoma – nom*. Demak, toponim – joy nomi³².

³² Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: филол.фанл.бўйича фалс.докт. (PhD) диссер. –Бухоро, 2021. –Б.13.

Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabilarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e'tirofga loyiq³³.

H.A.Smitning tadqiqtida toponimlarning nazariy asoslari, A.L.Dauzat ishida fransuz toponimlarining ma'no guruhlari yoritilgan. G.J.Kopleyning ishida joylarning umumiylar mashhur nomlari bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan bo'lsa, G.V.Lemon ingliz tilidagi toponimlarning etimologiyasiga oid qarashlarini bayon etgan.

Toponim tushunchasiga ta'rif bergan mashhur rus tilshunoslari N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar "toponimlar *Yer* planetasidan tashqari har qanday geografik nomlarni ifoda etuvchi barcha so'zlar uchun umumlashtiruvchi atamadir"³⁴, – deya qayd etishgan.

V.A.Nikonov tomonidan "toponimika geografik nomlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi; til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya sohalari bilan kesishadigan; tarix, geografiya, etnografiya bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan tilshunoslikning alohida bo'limi"³⁵ ekanligi bayon qilingan.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar toponimikani "leksikologiyaning geografik nomlarni o'rganuvchi bo'limi; biror hududning geografik nomlari jamlanmasi"³⁶, deb ta'riflagan.

O'zbek, qolaversa, O'rta Osiyo toponimikasining tadqiqi H.Hasanov faoliyati bilan bog'liq. Olim "toponim deb bir joy nomiga aytildi: lotincha *topos* – yer, *onoma* – nom, ism. Joy nomlari yig'indisi toponimiya bo'ladi. Joy nomlarini o'rganuvchi

³³Smith, A. H. English Place-Names Elements. – Cambridge: 1956. – 163 p.; Алберт Даузат. La Toponymie française. – Paris: Bibliothèque scientifique, Payot, 1960, Réimpression 1971 – 168 p.; Copley, G. J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – 226 p.; Лемон Г.Б. English Etymology. – G.: Robinson, 1783. – 693 с.

³⁴ Подолская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкоznания. – 1969. – № 4. – С.141.

³⁵ Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С.164.

³⁶ Розентал Д.Э., Теленкова М.А. Справочник лингвистических терминов. – М., 1972. – С.447.

fan esa toponimika deb ataladi. Toponimist shu soha bilan shug'ullanuvchi mutaxassis"³⁷ ekanini qayd etadi.

Ham tilshunos, ham geograf olim S.Qorayev toponimika sohasining yetuk mutaxassislaridan biri bo'lib, u toponimika haqida tushuncha berar ekan, "toponimika deganda joy nomlarini o'rganadigan fanni, toponimiya deganda esa geografik nomlar yig'indisini nazarda tutamiz"³⁸, deb qayd qilgan.

O'zbek onomastikasi masalalari bo'yicha e'tiborga loyiq tadqiqotlarni amalga oshirgan E.Begmatov va N.Uluqovlarning lug'ati³⁹da toponim va u bilan bog'liq atamalarning keng qamrovli mohiyati ochib berilgan. Ushbu lug'atda toponim bilan aloqador 130ga yaqin atama izohlangan bo'lib, xususan, unda toponimga quyidagicha ta'rif bergen: "*yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug'rofiy va sun'iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli oti: oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim va b.*"⁴⁰

Geografik obyektning atamashunoslikdagi umumlashma nomi *toponim* hisoblanar ekan, ushbu atama asosida *toponimiya*, *toponimika* kabilar tegishli hududda yashaydigan millat va xalqlarning o'tmishini, tarixiy rivojlanishini hamda etnik jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Shu o'rinda onomastikaning bir qancha atamalariga izoh berishga to'g'ri keladi. Xususan, *toponim*, *toponimiya*, *toponimika* kabi tushunchalar biri ikkinchisini, ikkinchisi uchinchisini va hokazo taqozo etadi:

- *toponim* – har qanday joyning nomi;
- *toponimiya* – biror til yoki hududda uchraydigan joy nomlari majmuasi⁴¹;

³⁷ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. – Б.3.

³⁸ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.6.

³⁹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.76-83.

⁴⁰ Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган луғат. – Б.76-77.

⁴¹ Бегматов Э., Улуқов Н. Кўрсатилган луғат. – Б.81.

– *toponimika* (*toponimistika* deb nomlanish ham kuzatiladi) – nomshunoslikdagi joy nomlarining paydo bo‘lishi, rivoji, vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi sohasi⁴²dir.

O‘rta Osiyo toponimikasiga doir tadqiqotlar A.Vamberi, V.V.Bartold, M.E.Masson, S.P.Tolstov, E.M.Murzayev, Ya.G‘ulomov, S.G.Klyashtorniy, F.Abdullayev kabi atoqli sharqshunoslardan amalga oshirilgan⁴³.

Toponimika o‘zbek onomastikaning yirik yo‘nalishi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan alohida soha sifatida shakllana boshlagan.

Toponimikaga oid ishlarning dastlabki muallifi taniqli o‘zbek geograf olimi H.Hasanov hisoblanadi. Olim O‘rta Osiyo toponimiyasini keng qamrov bilan o‘rganganligi bilan ajralib turadi. Uning «O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan» asarida toponimikaning nazariy masalalariga doir qarashlari hamda ko‘plab joy nomlarining izohi keltirilgan.

S.Qorayev toponimikani qaysi fanlar qatoriga kiritish kerak, degan munozara uzoq davom etganligini ta’kidlab, geografik nomlar, ya’ni toponimlar til lug‘at tarkibining bir qismi bo‘lib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi: so‘zni, albatta, tilshunoslik – lingvistika fani o‘rganishi kerak. Demak, olim toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan onomastika fanining bir qismi bo‘lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi⁴⁴, deb uqtirgan.

S.Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosи” kitobining “Toponimika haqida tushuncha” hamda “Toponimikaga oid terminlar”⁴⁵ qismlarida joy nomlari bilan bog‘liq asosiy tushunchalar sharhlangan.

O‘tgan asrning to‘rtinchi choragida yaratilgan bu asar sobiq ittifoq ilm-fani talablari asosida yaratilgan. Unda milliy-siyosiy

⁴² Бегматов Э., Улуков Н. Кўрсатилган лугат. – Б.77.

⁴³ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. – Б.4.

⁴⁴ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.7.

⁴⁵ Qoraev S. Ko‘rsatilgan asar. –B. 6-23; 190-197.

mustaqilligimizdan oldingi davrdagi ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at, aytish mumkinki, ijtimoiy hayotning barcha jahbalarida olib borilgan ishlar, sohalar bo'yicha tadqiqotlar, erishilgan yutuqlar kommunistik mafkuraga asoslangan ittifoq miqyosida baholangan. Toponimiya bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, xullas, barcha harakatlar rus va rossiyalik olimlar nomi bilan bog'langan.

S.Qorayevning qayd etishicha, A.I.Popov V.Gumboldtni topónimiya sohasida ancha xizmat qilgan birinchi olim deb e'tirof etgan⁴⁶.

Markaziy va O'rta Osiyo joy nomlarini o'rganish rus mutaxassislari faoliyatida asosiy o'rinni egallagani ma'lumdir. Bu borada V.V.Bartold, L.S.Berg, A.X.Vostokov, S.B.Veselovskiy, V.Vyatkin, A.P.Dulzon, V.A.Juchkevich, Yu.A. Karpenko, M.E.Masson, A.K.Matveyev, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, A.I.Sobolevskiy, V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, B.A.Serebrennikov, A.V.Superanskaya, V.N.Toporov, A.I.Popov, S.P.Tolstov, A.M.Shyogren, V.B.Shostakovich kabi olimlar keng ko'lamlı faoliyat olib borgan.

2. O'rta Osiyo topónimiysi tadqiqi. O'rta Osiyo tarixiy geografiyasini o'rganishda N.V.Xanikov, L.N.Sobolev, N.F.Sityankovskiy larning xizmati kattadir⁴⁷.

Xususan, tarixchi olim V.L.Vyatkinning nomini alohida tilga olish zarur. Chunki V.L.Vyatkin Toshkent va Samarqand hududlariga mansub topónimlarni tadqiq qilishda alohida jonbozlik ko'rsatgan. U vaqf hujjatlari asosida topónimlarning ma'nosi, paydo bo'lish tarixi hamda talaffuz jihatlarini tahlil

⁴⁶ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. –B. 6-23.

⁴⁷ Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения О Зерафшанском округе с приложением списка населенных мест округа. – СПб., 1874; Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана. ИТОРГО. Т.1, вып. 2. 1900. – С.121-314. Бу ҳақда қаранг: Кораев С. Кўрсатилган асар. – Б. 18-19.

etgan⁴⁸. Bu haqda ma'lumot bergen S.Qorayev V.Vyatkin faoliyatiga V.V.Bartoldning juda yuksak baho bergenligini qayd etgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi rus sharqshunoslaridan akademik V.V.Bartoldning asarlari toponimikada alohida o'rin tutadi. V.V.Bartold asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi⁴⁹.

O'rta Osiyo toponimiyasining qadimgi holati haqida A.L.Xromovning asarida ham ma'lumotlar berilgan. Jumladan, joy nomlari haqidagi fan – toponimiyaning shakllanishi uzoq tarixga borib taqalishini sharqshunos va tilshunos A.L.Xromov ma'lumotlaridan bilib olish mumkin. Uning xabar berishicha, hozirgi O'rta Osiyo hududining toponimikasi eramizdan avvalgi I asrda grek olimi Strabon, Ibn Xo'rdodbeh (IX asr), Abu Ja'far Narshaxiy (X asr), Muqaddasiy (X asr) va boshqalarning asarlarida ilk toponimik ma'lumotlar uchraydi.

Toponimikaga doir ilmiy asoslangan ilk fikrlar arab olimi Yoqt tomonidan bayon etilgan. "Yoqt O'rta Osiyo va musulmon Sharqining birinchi toponimisti deb hisoblanadi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, uning geografik muammolarni tahlil qilish usuli hozirgi zamon metodlarini, ayniqsa, toponimlarni topoformant (toponimlar tarkibidagi grammatic shakllar) larga ajratib tasniflash metodini eslatadi.

O'rta Osiyo toponimiyasini faol o'rganish faqat XIX asarning II yarmidan boshlandi. Shu paytdan boshlab toponimika masalalariga daxldor bo'lgan barcha ishlarni ulardagi materialning bayon etilish xarakteriga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga maxsus toponimik kuzatishlar, ya'ni geografik nomlar o'rganish obyekti bo'lgan ishlar kiradi. Mualliflar u yoki bu darajada toponimik

⁴⁸ Вяткин В.Л. К исторической географии Ташкентского района. ПТКЛА. –Т.: 1900. – С. 156-159; Материалы к исторической географии Самаркандинского вилайета. Справочная кн. вып. VII. – Самарканда, 1902. – С.1-63.

⁴⁹ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. – B. 19.

masalalarni yoritgan tarix, geografiya va o'lkashunoslikka oid asarlar ikkinchi guruhni tashkil etadi”⁵⁰.

A.L.Xromov o'z fikrlarini davom ettirib, X-XIII asrlar Movarounnahr toponimiyasining katta foizini islomgacha bo'lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (sug'diy, xorazmiy va ehtimol, baqtriya) toponimlar tashkil qiladi. XIII asr Movarounnahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy elementlarning kuchayishi va buning oqibatida sharqiy eroniy qatlamning siqib chiqarilishi bilan bog'liq. Sharqiy eroniy toponimiyadagi jadal buzilishlar va moslashishlar, ayniqsa, tojik tili turkiy tillar bilan almashgan hududlarda sodir bo'ldi. Turkiy tilli aholi uchun qabul qilingan toponimiya aynan «gung» toponimiya edi... Hozirgi paytda O'zbekiston va Tojikistonning shimoliy hududlarida sharqiy eroniy toponimiya elementlari kam miqdorda saqlanib qolgan⁵¹, deya qayd etgan.

Bayon qilinganlardan shu holat aniq bo'ladiki, O'rta Osiyo toponimikasi bilan bog'liq masalalar, ilk izlanishlar, uning muammolari bilan shug'ullanish uzoq davrlarga borib taqaladi. Toponim va boshqa geografik obyektlar nomlari haqidagi fikrlarni bayon etish hamda sharhlash mutafakkir allomalarimiz – Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Rashididdin, Abu Ja'far Narshaxiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Samarcandiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Abu Tohirxoja kabilarning qomusiy merosidan bizgacha yetib kelgan. “Devonu lug'otit turk”, “Hudud al-olam”, “Shajarayi turk”, “Boburnoma”, “Ubaydullanoma”, “Abdullanoma” va boshqa shu kabi manbalardan, O'rta Osiyo va uning xalqlari tarixi, ilm-fani va madaniyati, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, V.I.Shishkin, S.P.Tolstov, O.I.Smirnova,

⁵⁰ Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: изд-во «Ирфон», 1975. – С.7.

⁵¹ Xromov A.L. Ko'rsatilgan asar. – B.9-10.

M.E.Masson, I.I.Umnyakov, L.N.Gumilev, G.A.Pugachenkova, Ya.G'ulomov kabi olimlarning asarlaridan tegishli ma'lumotlarni olish mumkin. Bu asarlar joy nomlari borasidagi kuzatishlar uchun asos, manba vazifasini o'taydi.

3. Toponimikaning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab O'zbekiston toponomikasini o'rghanish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar sirasiga anjuman materiali, ma'ruza, maqoladan boshlab monografiya va dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

Toponimiya sohasining yo'nalishilari bo'yicha qator dissertatsiyalar yaratildiki, ularda O'zbekiston hududiga oid joy nomlarini yig'ish, aniqlangan materialni mavzu guruhlari bo'yicha tizimlashtirish, leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tadqiq etish kabi vazifalar o'z yechimini topgan.

Bu tadqiqotlarni o'rghanish ko'lamiga ko'ra bir necha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xusan, S.Qorayevning «Опыт изучения топонимии Узбекистана», O.Begimovning «Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami» kabilarda katta hudud toponimiyasi materiali qamrab olingan. T.Nafasovning «Топонимы Каракалпакской области» (1968), Z.Do'simovning «Топонимы Северного Хорезма» (1970), Sh.Qodirovaning «Микротопонимы Ташкента» (1970), Yo.Xo'jamberdiyevning «Историко-этимологическое исследование топонимов Сурхандарьинской области» (1974), S.Naimovning «Ойконимы Бухарской области» (1984), M.Ramazanovaning «Развитие ойкономии Ташкентской области в современный период» (1986), A.Zokirovning «Топонимия Джиззакской области Узбекской ССР» (1991) kabilarda ma'lum bir viloyat toponimiyasi tadqiq qilingan. T.Rahmatovning «Топонимия города Самарканда и его окрестностей» (1973), J.Latipovning «Топонимия города Маргелана и его окрестностей» (1975), N.Oxunovning «Топонимы Кокандской группы районов»

(1978), N.Mingboyevning «Топонимия Мирзачуля» (1988), T.Enazarovning «Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi» (1993), X.Bo'riyevaning «Toshkent shahrining tarixiy topominiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)» (2007) kabilarda shaharlar va ularga tegishli hududlar topominiyasi o'rganilgan. X.Xolmo'minovning «Микротопонимия Бойсунского района и его окрестностей» (1993), U.Oripovning «Nurota tumani makro- va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili» (2003), A.Aslonovning «Shpofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili» (2005), N.Adizovaning “Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tadqiqi” kabilarda biror tuman topominiyasi o'rganilgan.

N.Begaliyevning «Samarqand viloyati gidronimlari» (1994), A.Otajonovaning «Xorazm etnotoponimlari va ularning lug'aviy asoslari» (1997), A.Turopovning «Samarqand viloyati etnonim va etnotoponimlarining tahlili» (1999), Sh.Temirovning “Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi” (2019) kabi dissertatsiyalarda toponimiyaning biror sohasi tadqiq etilgan.

Sohaga oid doktorlik dissertatsiyalari ham yaratildi. Bular sirasiga lingvistika yo'nalishida Z.Do'simovning «Историко-лингвистической анализ топонимии Хорезма» (1986) hamda geografiya yo'nalishida S.Qorayevning «O'zbekiston oykonimlari» (1998) kabi ishlari kiradi.

Toponimiya muammolari yechimiga qaratilgan alohida nashrlar, monografiyalar ham yaratildiki, ular ham, asosan, yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday ishlar qatoriga S.Qorayevning «Toponimika» (T., 1970), «Geografik nomlar ma'nosi» (T., 1978), «Toponimika – geografik nomlar haqidagi fan» (T., 1980), «Toshkent topominlari» (T., 1991), «Топонимия Узбекистана» (T., 1991), «O'zbekiston viloyatlari topominlari» (T., 2005), «Toponimika» (T., 2006); E.Begmatovning «Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi» (T., 1998); Z.Do'simovning «Joy nomlarining qisqacha izohli

lug'ati» (T., 1977; hammuallif X.Egamov), «Xorazm toponimlari» (T., 1985), «Joy nomlarining siri» (Xiva, 2001; hammuallif M.Tillayeva), «Toponimika asoslari» (T., 2002; hammuallif M.Tillayeva); T.Nafasovning «Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» (T., 1985), «O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati» (T., 1988), "Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?" (T., 1989), «O'zbek nomnomasi» (Qarshi, 1993), "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari» (T., 2008; hammuallif Sh.Tursunov), «Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi» (T., 2009); B.O'rino boyevning «Samarqand viloyati toponimlarining izohi» (Samarqand, 1997), «Asrlardek barhayot nomlar» (Samarqand, 2003), «Jizzax toponimlarining ta'biri» (Samarqand, 2007); N.Yo'ldoshevning «Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi» (Buxoro, 1993); S.Karimovning «O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida» (T., 2006; hammuallif S.Bo'riyev); K.Nazarovning «Joy nomlarini yig'ish so'roqnomasi» (T., 1995; hammuallif T.Enazarov); T.Enazarovning «Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari» (T., 2001), «Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi» (T., 2002), «O'zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini» (T., 2004); «Nomshunoslik masalalari» (T., 2010), «Dialektologik amaliyot so'roqligi» (T., 2018; hammuallif X.Abdullayev), «O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati. Toponimlar tilsimi» (T., 2019; hammualliflar A.Esemuratov, J.Jumanazarov, Yu.Qodirova, G.Jumanazarova); L.Karimovaning «O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi» (T., 2002); A.Muhammadjonovning «Qadimgi Toshkent» (T., 2002); S.Naimovning «Buxoro oblasti toponimiyasi» (T., 1984), «Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati» (Buxoro, 1997); A.Otajonovaning «Xorazm toponimlari» (T., 1997); N.Oxunovning «Joylar va nomlar» (T., 1986), «Til va joy nomlari» (T., 1988), «Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari» (T., 1989), «Joy nomlari ta'biri»

(T., 1994), N.Adizovaning «Buxoro tumani mikrotponimlarining leksik-semantik tadqiqi» (2021), S.Nayimov va B.Kilichevlarning «Qiyi Zarafshon vohasi toponimlarining qisqacha izohli lug'ati» (2022) kabi asarlari mansubdir.

O'zbekiston geografiyasi hamda toponimiyasini tadqiq etish borasida salmoqli ishlarni amalgalashirgan atoqli olim H.Hasanovning «Geografik nomlar imlosi» (T., 1962), «Geografiya terminlari lug'ati» (T., 1964), «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (T., 1965), «Yer tili» (T., 1977), «Sayyoh olimlar» (T., 1981), «Geografik nomlar siri» (T., 1985) asarlari diqqatga loyiqdirdi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimiz toponimikasi bo'yicha tadqiqotlar ma'lum bir izchillikka ega emas. Bajarilgan ishlar alohida olingan hudud yoxud mamlakat (viloyat, shahar, tuman) toponimlarining ma'lum bir guruhini leksik-semantik, etimologik tadqiq etish yuzasidan olib borilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, toponimlar hudud jihatidan keng yoki tor qamrov bilan tadqiq etiladi. Bu haqda fikr yuritgan E.M.Pospelov toponimik materialni global, lokal, to'liq, to'liqsiz kabilarga ajratgan edi⁵². Amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimiz va viloyatlarda aniqlangan toponimlar to'liq tadqiq etilmagan.

Toponimlarni muayyan hududga ko'ra o'rganish o'ziga xos ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Bunda hududning toponimiyasi har tomonlama keng va mukammal tadqiq etiladi. Toponimlarni mukammal o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda hududiy toponimik materiallarni qiyosiy o'rganish talab etiladi. Bu talab turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, aholi migratsiyasi hamda aholining shevasi va etnik tarkibiga borib taqaladi⁵³.

⁵² Пospelов Е. М. Картографирование как метод исследования субстратной топонимики // Вопросы языкоznания. – М., 1967. – № 1. – С.80.

⁵³ Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: филол.фанл.бўйича фалс.докт. (PhD) диссер. –Бухоро, 2021. –Б.13-22.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimiyaning tadqiqi qachondan boshlangan?
2. Xorijda toponimiya masalalarining o'rganilishi borasida ma'lumot bering.
3. O'rta Osiyo toponimiyasining o'rganilishi haqida ma'lumot bering.
4. O'zbekiston toponimiyasi qachondan o'rganila boshlangan?
5. O'zbek toponimiyasi sohasining yetuk vakillari kimlar?
6. O'zbek toponimiyasi sohasining yetuk vakillari haqida ma'lumot bering.

5-mavzu: Toponimlardagi raqamlarning son, miqdor va boshqa ma'nolari

1. Toponim tushunchasi.
2. Joy nomlarida raqam tushunchasi.

Tayanch tushunchalar: nom, atoqli ot, joy nomi, geografik obyekt, etnonim, etnotoponim, etimologiya, son, miqdor, urug', qavm, qabila, qishloq, aholi punkti.

O'zbekiston toponimiyasida turli morfologik birliklarni kuzatish mumkin. Bular sirasiga ot, fe'l, sifat kabi faol qo'llanadigan, ravish, olmosh, son kabi miqdoran ko'p bo'lмаган nomlar ham uchraydi. Biz quyida toponimlar tarkibida kuzatiladigan ayrim shaklan songa o'xhash, mazmunan esa son – miqdor bilan bog'liq bo'lмаган ma'nolarni ifodalagan birliklar borasidagi qarashlarimizni bayon etamiz.

Mamlakatizning turli hududlarida bir, uch, to'rt, besh va boshqa so'zlar ishtirokidagi nomlarni uchratish mumkin. Ushbu nomlarning ayrimlarida sonlar o'z asl vazifasi – miqdorni ifodalashga xizmat qilsa, ayrimlarida esa miqdor bilan aloqador bo'lмаган ma'nolarda qo'llangan.

Turkiy urug' va qabilalar juda qadimiy davrlardan beri o'z boshidan murakkab shakllanish jarayonlarini kechirgan. Urug', qabila ma'lum miqdor odamlarning uyushgan guruhi, to'pi, birlashuvidan iborat bo'lgan. Ma'lum davrda bu to'daga yangi qardosh va noqardosh urug'lar (etnoslar) qo'shilib turgan yoki qabila ma'lum bir shoxobcha, tarmoqlarga bo'linib ketgan. Mana

shunday jarayonlar urug', qabila tarkibidagi komponentlarning soni miqdoriga ta'sir etgan. Mana shu xususiyat, belgi ba'zi hollarda urug', qabilani atash, nomlashga asos bo'lgan. Odatda urug' yoki qabilani tashkil qilgan jamoaning son, miqdor jihatdan oz yoki ko'pligi ushbu etnosning ijtimoiy hayotdagi o'rni va rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli ham ma'lum xalq etnogenezida u yoki bu urug' yoki qabilaning o'rnini va ahamiyatini aniqlash uchun tadqiqotchilar ularning soni va miqdoriga e'tibor berishgan.

Turkman tilshunosi S.Otaniyozov ushbu tip etnonimlarni "etnosning tarkibi va tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan etnonimlar" sarlavhasi ostida tahlil qilgan va unga urug', qabila, guruh ma'nosini anglatuvchi so'zlar, son va miqdor hamda etnosning hajmi bilan bog'liq, shuningdek etnosning aralashuvi, qo'shilushi bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi etnonimlarni kiritgan⁵⁴.

A.Otajonova Xorazmda ming, yuz/juz, qirq, beshqay, birg'ulak, to'qiz, o'nolti, o'nikki, beshuy, mingbag'olon kabi etnonimlarning mavjudligini, shuningdek, mo'g'ulcha mang'it, nayman, do'rmon etnonimlari ham son, miqdor anglatishini qayd qilgan⁵⁵.

A.Turobovning yozishicha, Besho'g'il, Yettiurug', Sakkizo'g'il so'zlarida o'g'ilning beshtaligi, urug'ning yettiga tarmoqlanishi anglashiladi. U Beshbarmoq, Beshbola, Beshbegixo'ja, Beshkal, Beshkuba, Beshnayman, Besho'g'il, Beshsayid, Beshqozoq, Yettiuyli, Yettiurug' (Jetiuruv), Minglar, Kattaming, Kichikming, Uchqora, Uchiskandar, Uchkaraman, Qirq, Oltio'g'il, Sakkizo'g'il, To'qizboy, To'rtayir, To'rtko'z etnooykonimlarining lug'aviy asosi son, miqdor anglatuvchi etnonimlardan iborat deb hisoblaydi⁵⁶.

⁵⁴ Атаниёзов С, Этнонимы в туркменском языке: автореф.дисс. докт.филол.наук. –Ашхабад, 1990. – С.12-13.

⁵⁵ Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: филол.фил.номз...диссер. –Т., 1996. –Б.37-38.

⁵⁶ Туробов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳдили: филол.фил.номз...диссер. –Т., 1999. –Б.60.

Toponimik materiallar orasida bir necha etnonim son, miqdor tushunchalarini ifodalaydi va bularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) umuman son, miqdor bilan bog'liq etnonimlar: *mang'it, ming, nayman* va b.;

2) qarindoshlik munosabatida bo'lgan va bir urug' yoki qabilaga kiruvchi etnik komponentga ishora qiluvchi etnonimlar: *qirq qiz, childuxtaron, beshbola* va b.;

Qayd qilingan etnonimlarning aksariyatida miqdor tushunchasi son bilan ifodalanib, aniq sezilib turadi. Ammo ba'zi o'zga tillarga mansub leksemalardan yasalgan va hozirda oddiy so'z sifatida iste'molda uchramaydigan etnonimlarda miqdor tushunchasi yashirin holdadir. Masalan, *manit<man,+it-ming, nayman<naym//nayma* – *sakkiz, do'rman* – *to'rt* ma'nosini ifodalagani va buryat-mo'g'ul tillariga mansubligi ma'lum⁵⁷.

Bir so'zi. Ushbu so'z *Birkunlik* toponimi tarkibida uchraydi. Mazkur toponim Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi qishloq nomidir. Mahalliy aholi toponimning etimoni sifatida qishloqning Kitob shahri markazidan bir kunlik yo'l bo'lganligi bilan izohlaydi. Aslida toponim *Burgutli* shaklida bo'lib, turkiy qavm nomlaridan biri sanaladi⁵⁸. Toponim tovush o'zgarishiga uchragan.

Uch so'zi. Bu so'z *Uchko'rpa, Uchtepa, Uchtut, Uchuylik, Uchurug', Uchqiz, Uchqora* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Mazkur toponimlar tarkibidagi *uch* so'zi turli ma'no qirralarini namoyon etgan. Jumladan, Uchtepa toponimidagi *uch* so'zi *yonma-yon yoki yaqin masofada joylashgan uchta tepa*, shuningdek *uch – belgilangan hududning yoki narsaning oxiri, so'nggi joyi*⁵⁹ kabi ma'noni ham ifodalaydi. Demak, toponim *tepa* indikatori bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Xuddi shunday holatni *Uchtut* toponimida ham kuzatish mumkin.

⁵⁷ Черемисов И.М. Бурят-монголско-русский словарь. –М.: Наука, 1951. – 335 с.

⁵⁸ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Т.: Мухаррир, 2009. –Б. 63.

⁵⁹ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 264.

Uchuylik toponimi etnonim asosida paydo bo'lgan⁶⁰. Demak, mazkur toponim tarkibidagi *uch* morfemasi alohida ajratilmaydi. Bu toponimga *uchuyli* etnonimi asos bo'lganligi sababli *uch* so'zi son – miqdor ma'nosini ifodalamaydi va h.k.

Uchqiz toponimini etimologik tahlil qilgan prof. T.Nafasov uchqiz – tiklik ko'lami baland bo'lgan, usti choshtepa singari sirtli bo'lgan tepalik, deya ta'rif bergan⁶¹. Demak, *uchqiz* aslida *uchquz* bo'lib, tepalik turini ifodalaydi. Aytish mumkinki, Uchqiz toponimi tarkibida ham son ma'nosidagi so'z mavjud emas.

To'rt so'zi. Mazkur so'z *To'rtayg'ir*, *To'rtko'l*, *To'rtog'ayni*, *To'rttom*, *To'rtuylik* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Aytish lozimki, qayd etilganlardan faqat *To'rttom* toponimi tarkibida son ma'nosidagi so'z ishtirok etgan⁶². Toponim to'rt (4) uy ma'nosiga ega. Bu nom mazkur joyda birinchi qurilgan to'rt uy sababli paydo bo'lgan.

To'rtko'l/*To'rtgul* toponimiga sharh bergen atoqli sharqshunos V.V.Bartold *to'rtko'l – choldevor, vayron bo'lgan devor, qo'rg'on xarobasi* ekanligi haqida izoh qoldirgan⁶³. T.Nafasov *to'rtko'lni* to'rburchak so'zi asosida paydo bo'lgan, deb qayd etgan. Manbalarda *To'rtayg'ir*, *To'rtog'ayni*, *To'rtuylik* kabi nomlar etnonimlar asosida shakllanganligi qayd etilgan⁶⁴. *To'rtayg'ir*, *to'rtog'ayni*, *to'rtuyli* etnonimlari qipchoqlarning urug'laridan biri sanaladi. Demak, bu nomlar tarkibida ham to'rt soni mavjud emas.

Besh so'zi. Ushbu so'z qatnashgan toponimlar O'zbekistonning barcha hududlarida uchraydi. Jumladan, *Beshariq*, *Beshbek*, *Beshbola/Beshbo'la*, *Beshbuloq*, *Beshgumbaz*, *Beshdara*, *Beshdarak*, *Beshyog'och*, *Beshkal*, *Beshkaltak*, *Beshkapa*, *Beshkent*, *Beshko'sa*, *Beshmachit*, *Beshnova*, *Beshpaykal*, *Beshpanja*, *Beshsari*, *Beshta*, *Beshtanga*, *Beshtanob*, *Beshtaxta*, *Beshterak*, *Beshtut*,

⁶⁰ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.133.

⁶¹ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 265.

⁶² Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 256.

⁶³ Бартолд В.В. Сочинения. т.1. –М. 1963. –С.199.

⁶⁴ Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Т.: 1971. –С.116.

Beshto'la, Beshuyli, Beshchashma, Besherkak, Besho'choq, Besho'g'il, Beshqiz, Beshqozoq, Beshqo'l, Beshqo'rg'on, Beshqo'ton kabilar.

Yuqorida qayd etilgan toponimlardan *Beshbola/Beshbo'la, Beshkal, Beshkaltak, Beshko'sa, Beshsari, Beshuyli, Besherkak, Besho'g'il*, kabilar etnonimdir. Xususan, *Beshbola/Beshbo'la* – qo'ng'irotlarning oyinni bo'limiga, shuningdek Zarafshon vodiysidagi qoraqalpoqlarning, Surxondaryo turkmanjuzlarining, Farg'ona qipchoqlarining, Zarafshon sariq qipchoqlarining bir urug'i; *Beshkal* – mang'it, yuz va o'zbeklashgan arablarning urug'tarmog'i; *Beshkaltak* – qo'ng'irotlar qo'shtamg'ali bo'limiga mansub kal urug'ining bir tarmog'i, qipchoqlarning bir urug'i⁶⁵; *Beshko'sa* – Qashqadaryo va Surxondaryo qo'ng'irotlarining ochamayli, maydato'da urug'larining bir tarmog'i, qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limidagi urug' nomi hamda Surxondaryo turkmanjuzlarining jilontamg'ali bo'limiga mansub urug' nomi⁶⁶; *Beshsari* – qipchoqlarning bir urug'i⁶⁷; *Beshuyli* – uyli urug'ining tarmog'i; *Besherkak* – qo'ng'irotlarning voxtamg'ali bo'limidagi gilambovi (gilambog'i) urug'ining bir tarmog'i; *Besho'g'il* – qo'ng'irotlarning voxtamg'ali bo'limidagi bolg'ali tarmog'iga mansub urug' nomi⁶⁸.

Beshariq, Beshbuloq, Beshdarak, Beshyog'och, Beshkapa, Beshkent, Beshmachit, Beshnova, Beshpaykal, Beshpanja, Beshta, Beshtaxta, Beshterak, Beshtut, Beshto'la, Beshchashma, Besho'choq, Beshqiz, Beshqozoq, Beshqo'l, Beshqo'rg'on, Beshqo'ton toponimlarining ayrimlarida besh raqami, ayrimlarida esa besh so'zining *miqdoran ko'p, ancha, bir nechta* kabi ma'nolari mujassamlashgan.

Beshbek toponimi tovush o'zgarishi orqali peshpek so'zidan hosil bo'lgan. Peshpek – bir necha tepalar yaqinida bo'lgan qishloq ma'nosiga ega bo'lib, Beshbek tovush o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan.

⁶⁵ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 58-59.

⁶⁶ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М. 1976. –С.90-93.

⁶⁷ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. –B.37.

⁶⁸ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 34-35.

Olti so'zi. Olti so'zi *Oltiariq*, *Oltio'g'il*, *Oltiqoplilik*, *Oltiqoq*, toponimlari tarkibida uchraydi. Zikr etilganlardan *Oltio'g'il* toponimi etnonim asosida shakllangan. Bu haqda S.Qorayev quyidagicha ma'lumot bergen: *Oltio'g'il* – *Samarqand viloyati Narpay, Paxtachi tumanlaridagi qishloq nomi*. *Oltio'g'il* – *etnonim*⁶⁹. Demak, bu nom tarkibidan *olti* so'zini alohida ajratib bo'lmaydi.

Oltiariq, *Oltiqoplilik*, *Oltiqoq* kabilarda *olti* so'zi son, miqdor ma'nosini ifodalagan. Jumladan, *Oltiariq* toponimi asosida *olti* soni bor deyishga asoslar mavjud. *Oltiariq* 6 qishloq ((*Povulg'on*, *Polosoy*, *Laylakxona*, *Yangiqo'rg'on*, *Jo'ra* va *Kitkon*) ariqlariga bo'lingan. *Oltiariq* nomi shundan kelib chiqqan va keyinroq shaharcha va tuman nomiga o'tgan⁷⁰. Shuningdek, *Oltiqoq* – *Navoiy viloyati Tomdi tumanidagi aholi punkti nomi*. S.Qorayev ushbu nomni *olti+qoq*: *oltita qoq* (*ko'lmak*)⁷¹ tarzida sharhlangan.

Shahrisabz tumanidagi ekinzor yer maydoni *Oltiqoplilik* deb nomlanadi. Bu haqda prof. T.Nafasov *olti qop g'alla urug'i sepiladigan joy. Har qopga 12 pud, jami 72 pud g'alla ekilgan. Mo'ljal joy nomining yaratilishiga asos bo'lgan*⁷², deya xabar bergen. Pud tarixiy o'lchov birligi bo'lib, bugungi kunda 16,38 kilogrammga teng. Demak, 1179,3 kilogramm og'irlikdagi don ekilgan maydon oltiqoplilik deb yuritilgan.

Yetti so'zi. *Yettijar*, *Yettikechuv*, *Yettisoy*, *Yettisuv*, *Yettitom*, *Yettiuy*, *Yettiurug'*, *Yettiquduq* kabi toponimlar tarkibida *yetti* so'zi ishtirok etgan. Mazkur toponimlarni etimologik tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularning tarkibida uchraydigan *yetti* komponenti doim ham son ma'nosida qo'llanmagan.

Jumladan, *Yettikechuv* toponimi tarkibidagi *yetti* so'zi kechuvning yettitaligini emas, balki ko'pligini bildiradi. *Yetti* etnolingvistik atama bo'lib, ko'plik, qudratlilik ma'nosini anglatgan⁷³. Demak, bu o'rinda *yetti* miqdor ma'nosini

⁶⁹ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. –B.91.

⁷⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик. 6-том. –Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б.518.

⁷¹ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. –B.91.

⁷² Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 141-142.

⁷³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1977. –Б.57.

ifodalagan. Xuddi shuningdek, Yettisuv, Yettijar toponimlarida ham aniq son (raqam) emas, miqdor ma’nosи ko’zga tashlanadi.

Shunday qarash T.Nafasov tomonidan ham bayon etilib, *yetti so’zi joy nomlari tarkibida ko’p uchrashi, uning bir necha ma’nosи borligi, jumladan, Yettiquduq – ko’p quduqli, yonma-yon joylashgan, yaqin masofada bir necha quduqlar bo’lgan joy ekanligi qayd etilgan*⁷⁴.

Yettitom toponimi tarkibida yetti (7) soni qatnashganligini qayd etish lozim. Bu toponim Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi hisoblanadi. Qarshi – Samarqand, Ko’kdala – Chiroqchi yo’li chorrahasining g’arbida yettita hovli qurilgan, shu asosda aholi punkti paydo bo’lgan⁷⁵.

Tarkibida *yetti* so’zi uchraydigan *Yettiuy, Yettiurug’* kabilar etnotoponimlar hisoblanadi. Bu haqda manbalarda atroficha ma’lumot berilgan. Chunonchi, *yettiuy* – *urug’* nomi. Etnonimiyada *uy* – avlod, *to’p*, *urug’* ma’nosini bildirgan. *Uy* so’zi ayrim etnonimlar (uchchi) tarkibida totem (sigir)ni anglatgan⁷⁶.

Yettiurug’ toponimi ham etnonim asosida paydo bo’lgan. Mazkur toponimga qipchoq *urug’*laridan biri hisoblangan *yettiurug’* etnonimi asos bo’lgan. Bu *urug’ning* shakllanishida *oytamg’ali, qo’shtamg’ali, sirg’ali, qamchili, juvonli, samanotli, cho’michli* kabilar ishtirok etgan⁷⁷.

X.Doniyorov “Qitmır” kitobidan ko’chirma deb 56-raqam bilan yettibosh etnonimini qayd etgan⁷⁸. Demak, *Yettibosh* toponimi ham etnonim (yettibosh) asosida paydo bo’lgan.

Aytish mumkinki, *Yettijar, Yettikechuv, Yettisoy, Yettisuv, Yettitom, Yettiquduq* kabilardagina *yetti* so’zi son-miqdor ma’nosini ifodalagan.

⁷⁴ Nafasov T. Ko’rsatilgan asar. –B. 99.

⁷⁵ Nafasov T. Ko’rsatilgan asar. –B. 68.

⁷⁶ Nafasov T. Ko’rsatilgan asar. –B. 68.

⁷⁷ Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Т.: 1971. –С.138.

⁷⁸ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Т.: Наврӯз, 2017. –Б. 93.

Qirq so'zi. Ushbu so'z ishtirokidagi *Qirqyop*, *Qirqoyoq*, *Qirqqiz*, *Qirqquloch*, *Qirqqal'a*, *Qirqlar* kabi toponimlar mavjud. Toponimlarning ayrimlari (*Qirqquloch*, *Qirqqal'a*)da qirq soni (40) miqdor, o'lchov, raqam ma'nolarida ishtirok etgan. Jumladan, *Qirqquloch* – Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi qishloq. Aslida quduq nomi bo'lgan: qirq – noaniq miqdorni angatuvchi so'z, quduq suvining ancha chuqur joyda ekanligini bildiradi. Quduq nomi qishloq nomiga o'tgan⁷⁹. *Qirqqal'a* – Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Bunda qirq so'zi ko'p, ancha ma'nolarida qatnashgan. Turkiyadagi bir shahar nomi ham *Qirqqal'a*.

Qirqyop, *Qirqoyoq*, *Qirqlar* kabi toponimlar *qirq* etnonimi asosida shakllangan.

Qirq – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Tarqoq holda Samarqand atrofida, Panjikentning janubida, hozirgi G'allaorol, Jizzax, Zomin va O'ratega hududlarida yashaganlar. Ko'pincha o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri – yuzlar bilan aralashgan holda yashaganlar. Shuning uchun ham ko'pchilik manbalarda «qirq yuz» nomi bilan ham ma'lum. Qirq, yuz va ming qabilalari marqa degan umumiylig nom bilan atalgan. Qirqlarning etnogenezi Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan bog'liq. Qirqlar o'tmishda bir qancha urug'larga bo'lingan...⁸⁰.

Qirqyop toponimi etimologiyasi haqida fikr yuritgan prof. Z.Do'simov uning ikki qismdan iboratligi, qirq va yop (ariq) komponentlaridan *qirq urug'inining arig'idir* ma'nosi ifodalanishini qayd etgan⁸¹.

Qirq so'zi ishtirok etgan toponimlardan yana biri *Qirqoyoq*dir. Ushbu toponim ham etnonim asosida shakllangan. Bu haqda prof. T.Nafasov shunday ma'lumot bergen: qipchoqsaroylarning bir urug'i – qirqoyoq. Qirqoyoq – hasharot

⁷⁹ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 374.

⁸⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик. 11-том. –Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. –Б.12.

⁸¹ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1977. –Б.154.

turi. Shu hasharot o'tmishda totem sanalgan. Totem→urug' nomi→qishloq nomi. Etnik tarkib asosida qishloq nom olgan⁸².

Buxoro viloyati Romitan tumanidagi *Qirqlar* toponimi ham etnonim asosida shakllangan⁸³.

Demak, tarkibida qirq so'zi bo'lgan toponimlarning ayrimlarida son-miqdor, ko'plik kabi ma'nolar ifodalangan bo'lsa, ba'zilari etnonimlar asosida shakllanganligini sababli son-miqdor ma'nosini yo'qotib, o'zi qo'shilib kelgan so'z bilan yaxlitlanib qolgan.

Ming. Ming so'zi toponimiyyada alohida e'tibor loyiq sanaladi. Bu so'z ishtirokida *Ming*, *Minglar*, *Mingbuloq*, *Mingko'char*, *Mingchinor*, *Mingchuqur*, *Mingo'rik* kabi geografik obyekt nomlari uchraydi. Ushbu toponimlarni kelib chiqishi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish natijasida ularning tarkibida uchraydigan *ming* birligi kamdan-kam holatda son ma'nosida qo'llanganligini aniqladik.

Jumladan, *Ming*, *Minglar* kabilar har doim etnotoponim sifatida qayd etiladi. S.Qorayev *ming*, *yuz* urug'lari haqida fikr yuritganda ularning son ma'nosini ifodalamasligini ta'kidlagan⁸⁴.

Darhaqiqat, *ming* – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri hisoblanadi. Minglar Samarqand viloyati, qisman Farg'ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surhondaryo viloyatining Boysun, Sherobod, Denov tumanlarida, Xorazmda va Tojikistonning Hisor tumanida yashaganlar. Minglar uch yirik guruhga ajralgan, ularning har biri o'z navbatida yana boshqa kichik guruhlarga bo'lingan: 1) tug'ali (axmat, chag'ir, to'yi namoz, oqshiq va b.); 2) bog'lon (chibli, qora, mirza va b.); 3) uvoq tamg'ali (alg'ol, chaut, jayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyovxo'ja, yarat)⁸⁵.

⁸² Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 373.

⁸³ Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms formed on the basis of nation names. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN:2509-0119. <http://ijpsat.ijsh journals.org>. Moroko. 2021. B. 104-107.

⁸⁴ Qoraev S. Ko'rsatilgan asar. –B.79.

⁸⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик. 5-том. –Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б. 670.

Minglar – ming urug’i vakillari yashaydigan manzil, minglar qishlog’i tarzida izohlanishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda *ming* etnonimi son, raqam ma’nosidagi ming (1000) so’zi asosida shakllangan tarzidagi qarashlarga ham duch kelish mumkin⁸⁶.

Mingqishloq toponimi ham etnonim asosida shakllangan deyish mumkin. Ya’ni ming qabilasi, urug’i vakillarining qishlog’i.

T.Nafasov *Mingko’char* toponimini sharhlar ekan, uning paydo bo’lishida ikkita faraz borligini ko’rsatgan. 1) ming+Ko’char: ming – etnonim, Ko’char – antroponim, deya izohlagan, ya’ni ajdodi ming qabilasiga mansub bo’lgan Ko’char ismli kishi tashkil qilgan qishloq – Mingko’char; 2) meng – yer tuzilishining turini, tuproq tarkibi bilan bog’liq yer shaklini bildiruvchi so’z. Tog’ etaklarida tuproq tarkibining zichligi yomon holatda bo’lgan, tarkibida mayda qumsimon tosh zarralari bo’lgan yer – meng. Yog’ingarchilik ko’p bo’lgan vaqtda suvni tez shimib olib ko’chish xavfi tug’iladi. Ana shunday joy – Mingko’char/Mengko’char⁸⁷.

Lekin *Mingbuloq*, *Mingchinor*, *Mingchuqur*, *Mingo’rik* kabilarda ishtirok etgan *ming* so’zi etnonim bilan emas, balki son, miqdor ma’nosi bilan bog’liq. *Mingbuloq* – ko’p buloqli joy, *Mingchinor* – ko’p chinor daraxti o’sgan joy, *Mingchuqur* – o’y-qirli, o’ydim-chuqurlar ko’p bo’lgan joy, *Mingo’rik* – ko’plab o’rik daraxti bo’lgan joy. Ushbu toponimlarda *ming* so’zi “ko’p”, “juda ko’p”⁸⁸, “son-sanoqsiz”, “adadsiz”⁸⁹ kabi ma’nolarda qo’llangan.

Mingo’rik atamasining etimologiyasi bo'yicha maxsus maqola nashr ettirgan A.Xametova ushbu nomning etimologiyasiga doir o’ziga xos bir sharhni o’rtaga tashladi.

Ming so’zi ming sonidan tashqari ko’plikni, mujassamlikni ifodalaydi: *to’yga ming kishi keldi, men ming kun kutdim*. Bu

⁸⁶ Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Филол.фанл.номз. диссер.автореф. – Т.: 2007. –Б.10.

⁸⁷ Nafasov T. Ko’rsatilgan asar. –B. 165.

⁸⁸ Do’simov Z., Egamov X. Ko’osatilgan asar. –B.96.

⁸⁹ Nafasov T. Ko’rsatilgan asar. –B. 165.

misollarda odam, kunlar aniq ming bo'lishi shart emas. Yana bir misol: Shingjonning Turfon, Shahiyor, Kuchor tumanlarida buddaviylar davridan qolgan yodgorliklar bor. Ular o'r, tepa, do'ngliklarga o'yib, yasalgan g'or-hujralar bo'lib, har bir o'rlikda bitta, ikkita, uchtadan uchraydi... Uyg'urlar ularni *minguylar* deyishadi. Rus turkshunos olimlari esa "Пещеры 1000 буд" deb atashgan. O'r, o'rik, o'rlik so'zlaridagi asosiy ma'no o'r bo'g'ini orqali ifodalanmoqda. O'r so'zi qadimdan to hozirgacha barcha turkiy tillarda o'rlik, *balandlik*, *pastga nisbatan ustunlik*, *yuksaklikni* ifodalaydi. Mingo'rik – ko'plab tepaliklar, balandliklar mavjud joy⁹⁰.

Aytish mumkinki, O'zbekiston hududida etnonim asosli toponimlar ko'plab uchraydi. Ularning bir qismi millat va xalq nomlari asosida shakllangan bo'lsa, qolgan qismi turkiy urug' va qavm nomlari asosida shakllangan⁹¹.

Toponimiyada bevosita raqam bilan emas, balki son, miqdor ma'noli boshqa tillarga mansub birliklar ishtirokidagi nomlar ham uchraydi. Jumladan, *du*, *chor* elementlari shular qatorida turadi.

Du elementi ko'plab toponimlar tarkibida qo'llanib, sanoq son⁹². *Duob*, *Duoba*, *Dureza*, *Dug'oba* kabilar asosida *du* – ikki soni o'rin olgan. *Duob* topominining tarkibi: du – ikki, ob – suv. Bu o'rinda ob (suv) oqar suv, jilg'a yoki daryoning irmog'i ma'nosida qo'llangan. Ma'nosisi: ikki jilg'a (daryo) qo'shilgan joydagi qishloq. *Duoba* toponimi ham yuqoridagi kabi shakllangan. *Dureza* topominining tarkibi: *du* hamda *reza* (bo'lingan, ajralgan). Ma'nosisi: suv yo'li (ariq) ikki qishloqni ajratib o'tgan yoki qishloqni ikkiga bo'lган ariq. *Dug'oba* toponimi ham ikki ariq bilan bog'liq bo'lib, ikki suv (daryo, ariq) birlashgan joyni anglatadi.

⁹⁰ Хаметова А. "Мингўрик" атамасига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, 1-сон. –Б.77.

⁹¹ Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal TEORETICAL & APPLIED SCIENCE p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Taraz. 2021 <http://T-Science.org>

⁹² Хаметова А. "Мингўрик" атамасига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, 1-сон. –Б.77.

Chor elementi ishtirokidagi toponimlar respublikaning deyarli barcha hududlarida uchraydi. *Chorbog'* fors-tojikcha so'z bo'lib, *to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan, o'rtasida hovlisi, qo'rg'oni bo'lgan, mevali daraxtlar, gulzor joy, katta va go'zal bog*⁹³ tushuniladi.

Chorbog' so'zining qadimgi shakli *sarvag'/sarvag'*n degan qarashlar bor. Qadimgi turkiy til leksikasiga oid lug'atda *sarvag'* qayd etilgan bo'lib, unga *qasr* deb izoh berilgan⁹⁴.

T.Nafasov *sarvag'/sarvag'*n so'zi *sar+vag'/vag'*n tarzida tuzilgan bo'lsa, bu so'zni katta ibodatxona, bosh ibodatxona tarzida ham izohlash mumkin deya qayd etib, *Chorbog'*→*arvag'/Sarvag'/Sarvag'*n/*Sarbag'*n – qo'rg'on, *qasr*, katta qo'rg'on, ulkan *qasr*⁹⁵ ekanligini ko'rsatgan.

S.Gubayev Farg'ona vodiysida *charbog'* nomli urug' borligini ko'rsatgan⁹⁶.

Chorgumbaz, Chordara, Chorsu, Chorqi, Chorquduq kabi toponimlarning asosida ham chor (chahor) – *to'rt so'zi* turibdi.

Chorgumbaz – tarkibi: *chor+gumbaz*. *Chor* – chahor (*to'rt*) so'zining qisqargan, o'zgargan shakli. *Gumbaz* – eroniy tillardagi gunbad/gunbaz so'zining o'zbekcha talaffuz va imlo shakli. *Gumbaz* – binoning qubba shaklidagi ust qismi. *Machit, dahma, mozor, go'rxonalarning ustida aylana shakldagi qubbali gumbaz qilingan*. Bitta imoratda *to'rtta gumbaz bo'lgani* uchun *chahor+gunbaz*→*chorgumbaz*→*Chorgumbaz* (dahma, machit) deyilgan. Shu nom asosida paydo bo'lgan aholi punkti *Chorgumbaz* toponimi bilan atalgan.

Chordara – tarkibi: *chor+dara*. O'rtasida xona, uy bo'lib, *to'rt tomoni* yoki old va orqa tomoni ayvon sifatida qurilgan dala shiyponi – *chordara*. Dala shiyponi sifatida qurilgan bino atrofidagi qishloq – *Chordara*.

⁹³ Farhang... –B.561.

⁹⁴ Древнетюркский словарь. –Л., 1969. –С. 490.

⁹⁵ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 309.

⁹⁶ Губаев С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX вв (по данным топонимии). –Т., 1983. –С.80.

Chorsu toponimi ham alohida e'tiborga loyiq. Chorsu toponimi respublikamizning deyarli barcha hududlarida uchradi. Chorsu toponimi ikki qismidan iborat: chor+su. Har ikkala so'z ham fors-tojik tiliga mansub. Chor (chahor) to'rt, su – taraf, tomon; yo'lak, yo'l; ko'cha. Chorsu – chorraha – to'rt tomonga yo'l ketadigan, usti gumbaz qilib yopilgan bozor. Chorsu va chorraha bir-biridan farq qiladi. Chorrahalar shahar tevaragida yoki rabot qismida bo'lgan, chorsu esa shaharning markaziy qismida, shahristonda, bosh bozor o'rashgan joyda bo'lgan. shahar markazida usti gumbaz qilib yopilgan bozordan shahar ichki qismiga va rabot, mahallalarga, to'rt tomonga, asosan, shaharning to'rt darvozasiga qarab ketadigan yo'l bo'lgan. Ana shu to'rt yo'l bosqlanadigan joy chorsu deb atalgan. Ushbu nom keyinchalik toponimik obyekt atovchi birlikka – toponimga aylangan⁹⁷.

Xullas, toponimiyada son shaklidagi birliklar ishtirokidagi nomlar ko'plab uchraydi. Ularning ko'pchiligidagi son shaklidagi birliklar miqdor ifodalashga xizmat qilmaydi. Bu toponimlarning uzoq shakllanish jarayonlari, nom tarkibidagi fonetik yoki morfemik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Toponimlar tarkibidagi boshqa son-miqdor bilan bog'liq so'zlarni tadqiq qilish esa keyingi izlanishlarda o'z yechimini topadi, deb o'ylaymiz.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimning tarkibi deganda nima tushuniladi?
2. Toponim qanday morfemalarga ajratiladi?
3. Toponim tarkibida ko'p uchraydigan raqamlar qaysi?
4. Qaysi raqam toponimlarda ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiradi?
5. Bir so'zi polisemiyasini sharhlang.
6. Ming, yetti, besh raqamlari bilan shaklangan toponimlarning etnonimlarga munosabatini sharhlang.
7. Toponimlarda qo'llangan qaysi raqam "kop", "ancha" ma'nolarini ifodalaydi?

⁹⁷ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B. 310-311.

6-mavzu: Toponimlardagi rang va belgi bildiruvchi so'zlar

Reja:

1. Toponimlar tarkibidagi so'zlar.
2. Oq so'zi ishtirokidagi toponimlar.
3. Qora so'zi ishtirokidagi toponimlar.

Tayanch tushunchalar: nom, atoqli ot, joy nomi, geografik obyekt, etnonim, etnotoponim, etimologiya, rang, belgi, urug', qavm, qabila, qishloq, aholi punkti.

Toponimlar tarkibidagi so'zlar. O'zbekiston, xususan, Buxoro viloyati toponimiyasida geografik nomlar tarkibida ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlariga oid birliklar faol qo'llansa, ravish, olmosh, son kabi turkumlarga mansub so'zlar kam qo'llanadi.

Ushbu qismda toponimlar tarkibida qo'llanadigan oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi lug'aviy birliklar, ularning semantikasi, etimologiyasi xususida fikr yuritamiz. Mazkur birliklar toponim tarkibida ham rang bildirishga xizmat qiladimi, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Oq so'zi ishtirokidagi toponimlar. Oq so'zi izohli lug'atda o'n bir ma'noda qo'llanishi ko'rsatilgan: 1) qor, sut, paxta rangidagi (oq doka, oq qog'oz, oq non); 2) oq tusga moyil, tiniq (oq badan, oq tanli); 3) oqlik (sut-qatiq ma'nosida); 4) aroq (so'zlashuv tilida); 5) chor Rossiyasi podshosiga tegishli; uning tarafdori; 6) oxirgi, toza (oqqa ko'chirmoq); 7) gunohsiz, sha'niga dog' tushmagan kishi; to'g'ri, haqiqat; 8) oqargan tuk (sochning oqi); 9) ko'zning qorachiqni o'ragan tiniq rangli, shaffof qismi; 10) ba'zi kasalliklar natijasida ko'z qorachig'ida paydo bo'ladigan oqish dog', pardal; 11) tuxumning oqsil moddasi⁹⁸. Ko'rindiki, ushbu so'z tabiatdagi rang, shaxs, predmet va hodisa bilan bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Shuningdek, oq so'zi toponimlar

⁹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. З-жилд. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. -Т.: 2006-Б.175-176.

tarkibida ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Ko'plab toponimlar tarkibidagi oq so'zi rang ma'nosiga egami? Yoki boshqa ma'nolarda ham qo'llanadimi? Ushbu savollarga quyidagi tahlillar orqali javob beramiz.

Buxoro viloyati toponimiyasida oq so'zi ishtirokidagi bir qancha joy nomlari mavjud: Oqgul (G'ijduvon t.), Oqmasjid (Buxoro sh.), Oqoltin (Kogon t.), Oqpo'lat (Olot t.), Oqrabot (Buxoro t., Vobkent t., Jondor t., Reshko' t., Shofirkon t., G'ijduvon t.), Oqtepa (Jondor t., G'ijduvon t.), Oqxo'ja (Jondor t.), Oqchamamat (Kogon t.).

Oqmasjid. Buxoro shahridagi ko'cha nomi. Ushbu toponim mahalliy aholi tilida Oqmachit deb yuritiladi. Toponim hududdagi masjid nomidan shakllangan. Tarkibi: oq+masjid. T.Nafasovning qayd etishicha, bino, imoratlarga nisbatan **oq so'zi** rang ma'nosini bildirmaydi. Davlat (xonlik, beklik, to'ralik) tomonidan qurilgan masjid, saroy, qo'rg'on, rabotlarga nomiga oq so'zi qo'shilganda davlat, hukumat, hokimiyat, katta, ulkan, buyuk; hashamatli, salobatli ma'nolarini anglatgan. Buxoroda 16-19-asrlarda xonlik farmoyishi, ruxsati yoki hashar yo'li bilan qurilgan machitlar oqmachit – Oqmachit atalgan. Oq so'zi xonlikka qarashli ekanligiga, hajm jihatdan katta ekanligiga ishora⁹⁹.

Demak, Oqmachit toponimidagi *oq* komponenti hajm ma'nosida reallashgan. Bu qurilgan inshootning ulkanligi yoki keng maydonni egallaganini ko'rsatishi ham mumkin. Mo'g'ullar davlatining markazi sanalgan Oq O'rda Oltin O'rdanining bir qismi bo'lib, Jo'jixonning o'g'li O'rdaxon nomi bilan bog'liq. Ehtimol, Oq O'rda uchun ham rang bilan bog'liq bo'limgan ma'no asos bo'lgandir.

Oq masjid atamasi bilan O'zbekistondagi ikkita me'moriy yodgorlik nomlangan. Bular Samarqand viloyati Tim qishlog'i hamda Xivadagi Oq masjid yodgorliklari. Manbada ular haqida

⁹⁹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. –Т.: Мухаррир. 2009. –Б.197.

ma'lumot berilganda biriga *devorlari ganch bilan qoplangan* (*nomi shundan*), ikkinchisiga *gumbazi va asosi uzoqdan oppoq bo'lib ko'rindi* (*nomi shunday*)¹⁰⁰ deya sharh berilgan.

Oqrabot. Buxoro tumanidagi aholi punkti nomi. Tuman Buxoro shahri atrofida bo'lganligi sababli *rabet* komponentli nomlar hududda ko'p uchraydi. Buxoro tumani toponimiyasini tadqiq etgan N.Adizova Oqrabot nomi haqida ham ma'lumot bergen. Toponim ikki qismidan iborat: oq-rabet. "Oq" so'zi bugungi kunda rang-tus ifodalovchi birlik sifatida izohlanadi. Shu bilan birga "oq" so'zning "hajm jihatdan katta, baland, me'yordagidan ortiq" kabi ma'nolari ham bor. "Rabet" so'zi "oq" so'zi bilan qo'shilib, "katta rabet", "ulkan istehkom", "hukumat tomonidan bunyod qilingan inshoot" kabi ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, N.Adizova Oqpo'lat toponimi haqida fikr yuritganda ham nom tarkibidagi "oq" so'zi rang ifodalamasligini qayd etgan. Bu toponim etnonim asosida shakllangan bo'lib, oqpo'lat – "po'lat urug'inining katta qismi yashaydigan maskan" ma'nosiga ega¹⁰¹.

Toponimlar tarkibidagi oq, qora so'zlari haqida fikr yuritgan E.M.Murzayev turkiy xalqlarda qadimda tog'dan oqib tushuvchi tezoqar, sho'x suvni *oqsuv*, tekis yerlarda buloq, sizot suvlaridan paydo bo'lgan suvni *qorasuv* deb ataganliklarini qayd etgan¹⁰².

Bayon qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, toponimlar tarkibida qo'llanadigan *oq* komponenti bir o'rinda rang-tus ma'nosini, ikkinchi o'rinda esa boshqa ma'nolarni, xususan, *katta, ulkan, keng, ko'lamdor* kabilarni anglatadi.

Ba'zan *oq* komponentli toponimlarga etnonimlar asos bo'lganligini ham kuzatish mumkin. Bu haqda T.Nafasov ma'lumot bergen. Bu ma'lumotlarda oqboy – mang'itlarning urug' tarmog'i; Oqboy – Kitob tumanidagi qishloq. Bu toponimning Oqvoy (Koson tumani) varianti ham qayd etilgan. Oqmo'yin/oqbo'yin etnonimi (mang'itlar urug'i) negizida

¹⁰⁰ Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси. 12 томлик. 6-том. –Т.: 2003. –Б. 615.

¹⁰¹ Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –Т.: Navro'z, 2020. –Б.55-56.

¹⁰² Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М., 1974. -С.200.

Oqmo'yin/Oqbo'yin (G'uzor tumani) paydo bo'lgan. Xuddi shunday, Oqmang'it toponimi ham etnonim asosida shakllangan¹⁰³.

Albatta, etnonimlardan yuzaga kelgan toponimlar tarkibidagi elementlarning yaqqol ko'zga tashlanishi yoki komponentlarning har bir qismi mustaqil qo'llanishiga qaramay, ular morfemalarga ajratilmaydi. Shuning sababli ham etnonimlar tarkibida ko'ringan *oq* so'zi leksik-semantik va grammatic jihatdan tahlil etilmaydi. Chunonchi, oqmang'it – "oq rangli mang'it" emas.

Nafaqat Buxoro viloyati, balki respublikamizning boshqa hududlarida ham ko'p uchraydigan nomlardan biri *Oqtepa* toponimidir. Ushbu toponim Samarqandning Qo'shrabot, Qashqadaryoning Koson, Buxoroning Jondor va G'ijduvon tumanlarida mavjud.

Toponimning tarkibi: *oq+tepa*. Nom, avvalo, geografik obyektni atash uchun qo'llangan. Ya.G'ulomovning fikricha, eramizning 4-5-asrlaridan boshlab O'rta Osiyoning barcha vohalarida sug'orish kanallarining ustida va ekin dalalari o'rtasida dehqonlarning xom g'ishtdan qurilgan ko'shklari vujudga keladi, ularning xarobalari hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, ularni tepa, oqtepa yoki tal deb ataydilar¹⁰⁴.

Toponimiyada tepa tushunchasi o'ziga xos o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Toponimiyada tepa oronim (tog'lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari)¹⁰⁵; relyef tiplari va shakllari (yer yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi¹⁰⁶ sifatida qayd etiladi. Tepa ishtirokida choshtepa, bo'ztepa, qoratepa, oqtepa, sho'rtepa, qorovultepa kabi geografik obyekt nomlari mavjud. Xullas, oqtepa oronimidan aholi punkti nomi paydo bo'lgan.

¹⁰³ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. –B.195-199.

¹⁰⁴ Ғуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. –Т.: 1959. –Б.121.

¹⁰⁵ Қораев С. Географик номлар маъноси. –Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

¹⁰⁶ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. –Т., 2002. – Б. 82.

Qora so'zi ishtirokidagi toponimlar. Tilimizda ko'p qo'llanadigan qora so'zining o'ndan ortiq ma'noda ishlatalishi "O'zbek tilining izohli lug'ati"¹⁰⁷da qayd etilgan. Lekin aytish lozimki, toponimlar tarkibida qo'llanilgan qora so'zining ma'nosi lug'atda berilmagan. Xo'sh, biz *qora* so'zining toponimiyada qanday ma'nolarda kelganligini kuzatamiz? Ushbu so'z toponimlarda *tekislikdagi kichik balandlik, do'ng joy, kichik tepa, ko'p, zich, qalin* (bog', daraxt so'zlari bilan bog'langanda), *ko'p miqdordagi suv* (qorabuloq), *yuksak, katta* (qorako'l) va boshqa ma'nolarni ifodalaydi.

Demak, aytish lozimki, lug'atda bayon etilgan izohlar vositasida *qora* komponentli toponimlarni sharhlash imkonsiz. Shunisi muhimki, *qora* komponentli toponimlarning aksariyati o'z qatlamga mansub. Bu holatni, bizningcha, *qora* so'zining turkiy tillarga mansubligi bilan izohlash mumkin.

Qora so'zi toponimiyaning turli sohalarida uchraydi. Jumladan, *Qoradaryo, Qoraariq, Qorasuv* – gidronim, *Qorabog'*, *Qorako'l* – oykonim, *Qoraato, Qorako'lcha* – nekronim, *Qoraqalpoq, Qoraqulonchi* – etnotoponim va h.k.

Buxoro viloyati toponimiyasida o'ndan ortiq *qora* komponentli nomlar mavjud. Bular sirasiga *Qorabog'* (G'ijduvon t.), *Qoravul* (Jondor t.), *Qoravulon* (Shofirkon t.), *Qorajeri* (Buxoro t.), *Qorako'l* (Qorako'l t.), *Qorako'liyon* (Buxoro t.), *Qoraun* (Qorako'l t.), *Qoraxoni* (Romitan t., G'ijduvon t.), *Qorahoji* (Qorako'l t.), *Qoraxumori* (Jondor t.), *Qoraqalpoq* (Peshko' t.), *Qoraqulonchi* (Qorako'l t.) kabilarni kiritish mumkin.

Qorabog'. Ushbu toponim ikki qismdan iborat (*qora+bog'*). Xalq tilida sharhanishiga ko'ra, *qora* so'zi bog', daraxt so'zlari bilan qo'llanganda *ko'p, zich, qalin* kabi ma'nolarni ifodalaydi hamda qorabog' – "ko'p daraxti bo'lган", "daraxtlar zich joylashgan makon" kabi ma'nolarni yuzaga keltiradi. *Qorabog'*

¹⁰⁷ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.335-337.

toponimi haqida fikr yuritgan A.Geybullayev Ozarbayjondagi Garabag/ Garabax nomi pecheneglarning garabag etnonimidan ekanligini asoslab bergen¹⁰⁸.

Demak, Qorabog' toponimini etnonim asosida shakllangan deb aytish mumkin.

Ma'lumki, etnonimiyada *qora* so'zi alohida e'tiborga loyiq sanaladi. Chunki ko'pgina etnonimlar tarkibida *qora* so'zi uchraydi. Chunonchi, *qora*, *qoraabdal*, *qorabag'anali*, *qorabuvra*, *qorabo'riq*, *qoralar*, *qoramang'it*, *qoranayman*, *qorasiyroq*, *qoraxoni*, *qoracha*, *qora chivar*, *qoraqalpoq*, *qoraqursoq*, *qoraqo'yli*, *qoraqo'ng'irot*, *qorag'osmoq*, *qorag'ursak*¹⁰⁹.

Buxoro toponimiyasidagi *qora* komponentli nomlarning aksariyati etnonimlar asosida shakllanganligini inobatga olib, biz quyida ana shu toponimlarning ayrimlariga alohida to'xtalamiz.

Qoraxoni//Qaraxoni. Manbalarda qayd etilishicha, Ko'lobda yashovchi arablarning sholbof urug'iga qarashli tarmoq nomi – *qoraxoni* deb atalgan¹¹⁰. Shuningdek, oqqipchoqlarning jag'altoy urug'iga qarashli tarmoqlardan birining nomi ham *qoraxon* deb yuritilgan. Shu sababli aytish mumkinki, *qoraxon/ qoraxoni* etnonim sanaladi.

Qoraqalpoq. Turkiy xalqlarning biri sanalgan qoraqalpoqlar uzoq tarixga ega etnik guruh sanaladi. N.Oxunovning ma'lumot berishicha, Qoraqalpoq toponimi Farg'ona viloyatining Dang'ara, Buvayda, Andijon viloyatining Izboskan, Andijon tumanlarida ham mavjud¹¹¹. Ushbu etnos turli sabablar bilan hozirgi Buxoro viloyatining Peshko', Shofirkon tumanlarida tarqalgan. Ular bunyod etgan aholi punktlari Qoraqalpoq/Qoraqalpoqlar deb nomlanadi. Toponim etnonim asosida paydo bo'lgan.

Qopaqulonchi – qishloq. Qorako'l tumani. Qoraqulonchi – qulonchi (qulon) urug'ining bir tarmog'i. Yana shu tumanda Qulonchi, Ariqbo'yiqulonchi degan qishloqlar ham bo'lganligi

¹⁰⁸ Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. –Баку, 1986. –С. 145.

¹⁰⁹ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Т.: Наврӯз, 2017. –Б.101-103.

¹¹⁰ Оvezov Ж. К истории племени мурчалии// Труды ЮТАКЭ, т.5. –Ашхабад, 1955. –С.113.

¹¹¹ Охунов Н. Жой номлари тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –Б.77.

aniqlangan.

Qorako'l. Ushbu toponim Buxoro, Varaxsha, Poykent, Shofirkon, Romitan kabi qadimiylardan sanaladi. Toponim tarkibidagi *qora* so'zi katta, ulkan, keng ma'nolariga ega bo'lib, *katta ko'l, ulkan ko'l* deb sharhlanishi mumkin. Chunki Qorako'l Zarafshon daryosi bo'yida bo'lib, daryo Amuga quyilgan. Turli tabiiy o'zgarishlar, suv toshqini va boshqalar sabab ulkan ko'l paydo bo'lganligini (hozirda Qorako'l tumanining quyisida Olot tumani hududida Dengizko'l gidronimi mavjud) e'tibordan qoldirib bo'lmaydi. Shuning uchun Qorako'l – toponimini gidronim asosida shakllangan deyish mumkin. Viloyat hududidagi *Qorako'liyon* toponimi "qorako'lliklar" so'zining fors-tojik tilidagi ko'rinishidir. Bu toponimning paydo bo'lishini aholi migratsiyasi bilan sharhlash mumkin.

Qorali. Mahalliy xalq tilida Qaroli deb yuritiladi. Yuqorida turkiy mo'g'ul tillaridagi *qora/qara* – tepa, balandlik, tiklik ko'lami kichikroq bo'lgan do'nglik kabi ma'nolarda qo'llanishini qayd etgan edik. Balki tepa borligi uchun Qorali/Qarali deb nomlangan bo'lishi mumkin. Xalq tilida olxo'rini qorali (*qora olu*) deyishadi. Shu mevali daraxt asosida paydo bo'lganligi ham ehtimol.

Buxoro toponimiyasida fors-tojik tili ta'siri kuchli sanaladi. Bu holatni tarxiy jarayonlar bilan sharhlash mumkin. Viloyat toponimiyasida fors-tojik tilida rang atamasi bilan bog'liq nomlar ham uchradi. Jumladan, Siyohkoron Buxoro shahridagi ko'cha nomi bo'lib, ushbu ko'chada rang bilan ishlovchi hunarmandlar istiqomat qilgan hamda o'z ustaxonalarida faoliyat olib borgan. Siyoh – *qora* rang (qiyoslang: safed – oq, zard – sariq, kabud – ko'k va h.k.).

Tarixchi olim professor H.To'rayevning qayd etishicha, Siyohkoron – qoralovchilar, *qora* rangga bo'yovchilar ma'nosida qo'llanilgan. Alovida guzar sifatida XVIII–XIX asr vaqf hujjatlarida tilga olinadi. Bu guzarda yashovchi aholining asosiy mashg'uloti eski poyafzallarni ta'mirlash, *qora* rangga bo'yash va

sotishdan iborat bo'lgan. Joy nomi ham shu mashg'ulot turidan kelib chiqqan¹¹².

Xulosa sifatida aytish mumkinki, toponimlar tarkibidagi turli so'zlar doim ham o'z asl ma'nosida qo'llanavermaydi. Sifatlar, ayniqsa, rang-tus ifodalaydigan birliklar kamdan-kam holatlarda o'z asl denotativ ma'nosida uchraydi. Buxoro viloyati hududidagi oq va qora komponentli toponimlarning katta qismida rang ma'nosи bilan aloqador bo'limgan ma'nolar ifodalangan.

Rang-tus ma'noli so'zlar, ayniqsa, etnonimlar asosida shakllangan toponimlarda umuman qo'llanilmagan. Etnonimlar tarkibida qadimda rang ma'nosи ifodalangan bo'lsa-da, ular tayyor holda toponimga o'tganligi uchun morfemalarga ajratilmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimlar tarkibida qanday lug'aviy birliklar qo'llanishi mumkin?
2. Toponimlardagi rang bildiruvchi so'zlarning semantikasi bilan bog'liq o'ziga xoslik nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Joy nomlari tarkibidagi *oq* so'zining semantikasini sharhlang.
4. Joy nomlari tarkibidagi *qora* so'zining semantikasini sharhlang.
5. *Oq* so'zi toponimlar tarkibida qanday ma'nolarni ifodalashi mumkin?
6. *Qora* so'zi toponimlar tarkibida qanday ma'nolarni ifodalashi mumkin?
7. Toponimlar tarkibida yana qanday rang bildiruvchi lug'aviy birliklar qo'llanadi?

¹¹² O'zR Markaziy davlat arxivi, saqlov birligi – 378. 1709-yilda tuzilgan vaqf hujjati.

7-mavzu: Geografik nomlarning kelib chiqishi

Reja:

1. Geografik nom tushunchasi.
2. Geografik nomlarning mavzu guruhlari.

Tayanch tushunchalar: *nom, toponim, geografik nom, geografik obyekt, joyning holati, suv obyekti, yer yuzasi, o'simlik nomi, hayvon nomi, etnonim, qavm, qabila, urug', afsonaviy nom, diniy nom, g'aroyib nom, migrantsion nom, yangi nom.*

Geografik nom tushunchasi. Geografik nomlarning kelib chiqishiga asosiy sabab ularga bo'lgan ehtiyojdir. Bular insoniyat paydo bo'lgandan boshlab kerak bo'gan. Dastlabki geografik nomlar juda oddiy bo'lgan, masalan, tog', daryo, ko'l va boshqalar. Keyinchalik nomlar asta-sekin murakkablashib borgan, chunki bir geografik obyektni ikkinchisidan ajratishga ehtiyoj tug'ilgan. Shuning uchun ularni nomiga «katta», «kichik», «baland», «past», «oq» «qizil» va boshqalarni qo'shib ishlatish boshlangan. Joy nomlari turli-tuman, ajoyib va g'aroyibdir, soni esa juda ko'pdir. Bundan tashqari, yer yuzasidagi ko'plab geografik obyektlar o'z nomlariga ega emas. Bu narsa yaxshi o'zlashtirilmagan, tekshirilmagan hududlar (cho'llar, baland tog'li o'lkalar, Antarktida va boshqalar) uchun xosdir.

Geografik nomlarning mavzu guruhlari. Mavjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhdarga bo'lish mumkin:

1. *Joyning holati, xususiyati, yer relyefi va iqlimga bog'liq nomlar.* yer yuzida «shimoliy», «janubiy», «g'arbiy» va «sharqiy» ma'nolarni anglatadigan burun, orol va daryolar bor. Masalan, Nordkop (Shimoliy burun), Xokkaydo (Shimoliy orol), Rio Grande del Norte (Shimoliy katta daryo), Sharqiy Xitoy dengizi, Shimoliy Tyanshan, G'arbiy Tyanshan, Orqaoloy, O'rta Dengiz va boshqalar.

Joyning holati, xususiyati, yer relyefi va iqlimga bog'liq nomlarni quyidagi ichki guruhlarga ajratish mumkin:

– joyning havosi va quyoshga nisbatini ifodalovchi nomlar: *Kungay Olatau, Terskay Olatau, Sovuqdara, Sovuqquduq, Chili* (*sovuuq*).

– yer yuzasi relyefiga bog'liq nomlar: *Qoraqurum – suvsiz, o'simliksiz, xunuk tosh uyumlari demakdir. Islandiya* (*Muz o'lkasi*), *Shpitsbergen* (*Nayzatog'*), *Monblan* (*Oqtog'*), *Qumtepa, Belisiniq, Bukriqoya, Egritosh.*

– toshning nurashi natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari: *Odamtosh, Qo'yotosh, Teshiktosh, Zindonsoy, O'radaaryo, Kiyiktosh, Baqatosh.*

– geografik obyektlarning ko'rinishi xususiyatidan kelib chiqqan nomlar: *Beshpanja, Og'zikeng, Ichaksirt, Tumshiqcho'qqi, Tuyamo'yin, Echkishox.*

– geografik obyektlarda nomida hajm va miqdor bildiruvchi so'zlar: *Uchqo'l, Yettiquduq, Uchariq, Beshariq, Oltiariq, Kengdala, Yetimbuloq, Egizbuloq, Yakkatut, Qo'shqoya.*

– georgafik obyektning joylashish o'rnini bildiruvchi nomlar: *Jarqishloq, Chuqurovul, O'rtaovul, Yuqoriqishloq, Pastqishloq, Tepaqishloq.*

2. *Suv obyektlariga bog'liq nomlar.* Daryo, ko'l va quduqlar katta-kichikligiga, suvning rangi, sho'rligi, tozaligi, chuqurligiga qarab turlicha nomlangan. Suv tiniq va toza bo'lsa, Oynako'l, Oynabuloq; chuqur va tiniq bo'lsa Ko'ksuv, qordan boshlangan suvlar Oqsuv, loyqarog'i – Ayrонко'l, Sarisuv deb ataladi. Masalan, Xuanxe «Sarg'ishdaryo» degani.

Chuqur va tez oqadigan daryolar *qizil* so'zi bilan ifodalanib, Surxob, Kolarado (ispancha) deb atalgan. Qorasuv – buloq suvi – tekis yerda sekin oqadi.

Farg'ona viloyatida Tentaksoy, Surxondaryoda Jinnidaryo bor, bular bahorda to'lib oqib, suv toshqinlarini keltirib chiqaradi, qirg'oqlarni buzib, yemiradi, yozda esa suvi qurib qoladi.

Qishda muzlamaydigan suv obyektlari ham bor. Bularga issiq nom berilgan. Masalan Issiqko'l. Suv obyektlarini suvi sho'r yoki nordon bo'lsa, Sho'rquduq, Achchiqko'l, Sho'rbuloq deb ataladi.

Yer ostidan suvlar fontansimon otilib chiqsa – Qaynarbuloq deb atalgan. Buloq suvi issiq va ma'danli bo'lsa, Issiqsuv, Obigarm, Obirahmat, Qaynoqbuloq, Qo'tirbuloq, Arashon deb ataladi.

Xaritalarda Ters, Tersoqar nomli daryo va soylar bor. Bular asosiy daryoning oqim yo'naliishiga teskari, ters holatda bo'lgandan yoki harakat xususiyatlaridan Tezoqar, Yugurikariq, Tentaksoy, Jinnidaryo, To'palangsoy va boshqalar shunday nom olgan.

3. *O'simlik bilan bog'liq nomlar*. O'zbekiston toponomiyasida o'simlik nomlari bilan bog'liq topominlar ko'p uchraydi: *Archazor*, *Bodomzor*, *Yong'oqzor*, *Jiydabuloq*, *Terakzor*, *Chilonzor*, *O'rikzor*, *O'rikli*, *Qamishzor*, *Jangal*, *Yantoq* kabilar. Amudaryoda Maymunto'qay nomli chakalakzor bor. Bu bir zamonlarda maymunlar shu yergacha tarqalganligidan dalolat beradi. Qozog'istonda Taldiqo'rg'on, Qarag'anda (qora tikonli buta), Qatortol, Ko'kterak, Terakzor. Ruminiyadagi bir qishloqning nomi Kirasaya, ya'ni «olcha qishlog'i», Ozarbayjondagi Xinaluk qishlog'i xinazorlari bilan mashhur. G'arbiy Yevropadagi Shvartsvald («qora o'rmon»), Janubiy Afrikadagi Drakon tog'lari (Drakon – o'simlik), Shimoliy Amerikada Florida (ko'kalamzor), Kokos orollari Javzi Hindiy (Yong'oq), Bukovina (buk) kabilar nomlar mashhur.

4. *Hayvonlarga bog'liq nomlar*. Toponomiyada hayvon nomlari bilan ataluvchi ko'plab geografik nomlar mavjud. Masalan, Qoplqnqir, Qoplonsirt, Kaptarxona, Bo'rixona, Jayraxona, Minqush (Qirg'izistonda), Medvejegorsk, Olenogorsk (Murmansk oblastida), Tyulen qo'ltig'i (Yangiyer orolida), Galapagos orollari (Galapago – toshbaqa). Baykal qo'ltig'inining o'rtasidagi orollardan to'rttasi Tushkani deb ataladi. Mahaliy aholi tushkan deb quyonni ataydi. Darhaqiqat, bu orollarda quyonlar ko'p tarqalgan.

5. *Tana a'zolari bilan ifodalangan nomlar*. Xalq geografik obyektlarni alohida xususiyatlarini e'tiborga olib qo'ygan nomlar ham bor. Nom berishda odam va hayvonlarni alohida a'zolariga e'tibor bergan. Bular sirasiga barmoq, burun, og'iz, panja,

tish, shox, qulqoq, qo'ltiq kabilarni kiritish mumkin. Masalan Dejnev burni, Muruntau, Oqgumsuq, Sibirdagi Xamar (mo'g'ulcha – burun), Svyatoy Nos (Dmitriy Lapteva qo'ltig'ida), Volchiy Nos, Balvanskiy Nos, Ay-Burun, Krivoy Rog (Ukraina), Krasniy Rog (Rossiya), Yaxshi umid burni, Fil suyani burni, Fors qo'ltig'i kabilar.

6. *Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar*. Bunday nomlarga Achchiktosh, Gazli, Gugurtli, Jezqazg'an, Kumushkon, Kumushli, Magnitogorsk, Oltinbel, Oltinkon, Oltintepa, Oltinlisoy, Oltintog', Surmatosh, Temirtau, Toshko'mir, Tuzkon kabilar kiradi.

Argentina mamlakatining nomi argentus – kumush nomidan olingan.

7. *Kasb-hunardan olingan nomlar*. Bunday nomlar O'zbekistonda, ayniqsa, keng tarqalgan: Bo'zchi, Bo'yoqchi, Kosagaron, Sovungar, Egarchi, Pichoqchi, Po'stindo'zon, Tabiblar, Telpakfuro'shon, Tokchilik, Charmgaron, Cho'ponbozor, O'qchi, Qayishfuro'sh, Qalandarxona, G'o'zabozor kabi nomlar aholining kasb-hunaridan kelib chiqib nomlangan.

8. *Xo'jalik buyumlaridan olingan nomlar*. Xo'jalik buyumlari nomlari ham geografik nomlarning kelib chiqishida faol qatnashgan. Masalan: qozon so'zi, turkiycha bo'lib, u ruslar, ukrainlar, beloruslar, bolg'arlar tomonidan qabul qilingan. Qozon so'zidan kelib chiqqan bir qancha nomlar mavjud: Qozon shahri (Tatariston), Qazanjik (Turkmaniston), Qazonbuloq (Ozarbayjon) Qozonsuv (Shimoliy Kavkaz), Qazonlik (Bolgariya).

Toponimiyada *darboza* /darvoza so'zidan kelib chiqqan nomlar uchraydi. Masalan: Darboz tizmasi, Darboz daryosi (Tojikiston), Darboza (Qoraqum cho'llari), Temur darvozasi va boshqalar. Buxoro shahrining qadimgi qal'asidagi Samarqand darvoza, Qarshi darvoza, Qorako'l darvoza kabi nomlar borki, ular joylashgan hudud ham shu nom bilan atalgan. Demak, shaharda Samarqand darvoza, Qarshi darvoza, Qorako'l darvoza kabi toponimlar ham mavjud bo'lgan.

9. *Xalq, qabila, qavm va urug'larga bog'liq nomlar.* Toponimikada xalq, millat, qabila, qavm va urug' nomlari bilan aloqador birliklar etnonimlar deb yuritiladi, ular asosida shakllangan nomlar etnotoponimlar sanaladi. Bu nomlar tarixiy davrlarda xalqlarning qayerlarda yashalganligidan va o'zaro aloqalaridan guvohlik beradi. Bu nomlar sirasiga Ayrончи, Arab, Asaka, Baliqchi, Boyovut, Barlos, Bo'ka, Do'rmon, Malik, Mang'it, Mo'g'ul, Nazarbek, Naymon, No'kis, Olot, Sirg'ali, Turkman, Uyshun, Uyg'ur, Qирг'из(он), Qозоқ(он) kabilar kiradi.

10. *Aholining ijtimoiy holatidan kelib chiqqan nomlar.* Bu nomlar ma'lum hududda yashovchi aholining ijtemoiy strukturasini ifoda etadi. Bunday nomlar O'zbekistonning deyarli hamma qishloq va shaharlarida uchraydi. Biroq ular keyinchalik boshqa (yangi) nomlar bilan almashtirilgan. Masalan, Darveshon, Darveshxona, Devonxona, Qalandarxona.

Aholini ijtimoiy holatini ifodalovchi nomlar boshqa mamlakatlar hududida ham keng tarqalgan. Masalan: Belarusda «Besxlebechi» (Nonsiz), «Koroyed» («Po'stloqxo'rlar»), «Moxoedn» («Moxxo'rlar») va boshqalar. Shu bilan birga aristokratik toponimlar ham mavjuddir, Masalan: Rossiyanı ko'p shaharlarida Dvoryanlar ko'chasi, Meshchanlar ko'chasi va boshqalar bo'lgan.

11. *Shaxslarning ism, familiyasi, laqabi va taxallusidan olingan nomlar.* Jahonda bunday nomlar juda keng tarqalgan. Bularning ko'pchiligi sayyoohlar, dengizchilar, olim, shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari nomlariga qo'yilgan. Masalan, Barens dengizi, Beruniy shahri, Yekaterinburg shahri, Islom Karimov ko'chasi, Laptevlar dengizi, Kuk bo'g'ozi, Navoiy viloyati va shahri, Sharof Rashidov tumani, Chelyuskin burni, Mikluxa-Maklay qirg'og'i, Xabarovsk shahri kabilar.

Oy sirtidagi kraterlarga Beruniy, Ulugbek, Merkuriydagи krater, tog'lik va tekisliklarga Pushkin, Lermontov, Tolstoy,

Chexov, Shevchenko, Repin kabi mashxur shaxslarni nomlari berilgan.

Olttoyda cho'qqi Rerix nomi bilan atalgan. Boliviya davlatini nomi Simon Bolivar nomi bilan bog'liq. Angliya qirolichasi Viktoriya nomi bilan orol, ko'l, sharshara va boshqa geografik obyektlar atalgan.

12. *Afsonaviy va diniy nomlar*. Dunyo xaritasida afsonaviy va diniy nomlar ham ko'plab uchraydi. Bunga misol qilib, O'sh shahri yaqinidagi Taxti Sulaymon, Amudaryodagi Duldul otagan (Hazrati Alining uchar oti daryoning shu joyidan sakrab o'tgan emish), Kofirnihon daryosi bo'yidagi (Tojikistonidagi Xonaqa qishlog'i yonidagi) kechik Poyi Duldul, Ohangarondagi Alining qoyasi, Sirdaryodagi Farhod qoyasi, Farg'ona vodiysidagi Shohimardon, Toshkentdagi Kaykovus arig'i, Turkmaniston chegarasidagi Zulfiqor yo'lagi (Alining qilichi chogpan dara), Shri Lankadagi Odamoto cho'qqisi va boshqalarni ko'rsatash mumkin.

Dunyo xaritasida turli dinlar bayrami, avliyo va muqaddas shaxslar sharafiga qo'yilgan joy nomlari ham uchraydi: San-Marino, San-Toms, San-Fransisko, San-Salvador, Santo-Domingo, Santo-Krus, Santyago, Svetaya Yelena, Svetoy Lavrentiy, Svetoy Nos kabilar.

Topoonimiyada Iskandariya (Misr), Zangiota, Nurota, Cho'ponota, Shayx Hovandi Tohur, Yalong'ochbuva, Qalqonota, Quyluq kabi nomlarda tarixiy shaxslarning izi bor.

Afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faraziy nomlar, ya'ni biror voqeа yoki mish-mishlar sababli bor, deb taxmin qilingan, aslida mavjud bo'limgan joylarning nomlari ham uchraydi: Ya'juj Ma'jun yeri, Saddi Iskandar, Ko'hiqof, Sannikov yeri kabilar.

13. *G'aroyib nomlar*. Dunyo xaritasida hazilnoma, kulgili yoki vahimali nomlar ham uchraydi. Masalan Angliyada Rahming kelsin, So'qir kuyovlar, Qurbaqalar, Kallamushqa'la, Zo'r muhabbat, Ko'rinxmay qoldi, Piyanistanning tavbasi nomli

shaharlar, Italiyada va Uralda It g'ori, Amerikada Ajal vodiysi, Eronda Dashti noumid kabi nomlar bor.

Bunday nomlar O'zbekistonda ham topiladi: Borsa-kelmas, Ho Darvesh, Labbay tog'a (Namanganda), Charchamang (Shahrisabzda), Jangchiqar (Zarafshon vodiysida), Cho'ntak qishloq (Andijonda), Ko'k do'ppi (Farg'ona viloyatida), Bo'g'ozterak, Moxovlar, Og'zikeng, Qorko'mdi, Gadoytopmas va boshqalar.

Bunday nomlar eshitilishidan g'alati-g'aroyib bo'lib tuyulsa-da, har birining o'z tarixi, o'z tafsiloti bor, albatta.

14. Migratsion nomlar. Bu geografik nomlarning bir hududdan ikkinchi hududga olib kelinishi bilan bog'liq. Bunday jarayon ikki yo'l bilan sodir bo'ladi:

1) aholining migratsiyasi natijasida eski nomlar to'ppato'g'ri yangi hududlarga ko'chirilishi. Bunga Amerika materigi juda yaxshi misol bo'ladi. Bu yerda Yevropadan ko'chirib kelingan minglab geografik nomlar bor. Ayniqsa, AQShda Angliya, Shotlandiya, Irlandiya toponimlari uchraydi: London, Boston, Nyu-London, Kembridj, Oksford, Grinvich va boshqalar. Bunday nomlar turli shtatlarda bir necha marta qaytariladi. Fransiyadan Orlean, Paris, Lion, Moskva nomi Aydaxo, Vemant, Michigan, Ogayo, Texas, Odessa nomi esa Vashington, Delover, Missuriy, Nyu-York, Texas, Florida shtatlarida ko'plab uchratiladi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa Ispaniya, Portugaliyadan ko'chirilib kelingan nomlar uchraydi: Sevilya, Volensiya, Barselona, Granada, Serra-Nevada va boshqalar. Okeaniyada Afrikadan kelgan nomlar uchratiladi. Masalan, Yangi Gvineya.

Bunday nomlar Turkistonda ham kuzatiladi. Masalan: bu hududda 10 dan ortiq Samarqand nomi bo'lgan. Bulardan bittasi Farg'ona vodiysidagi Isfaradir. Sug'dni (Qashqadaryo, Zarafshon) arablar bosib olgandan so'ng 712-yilda sug'diyilar Farg'ona podshosi Alatarga elchi yuborib boshpona so'raydi, lekin u

bermaydi. So'ngra ular Isfara vodiysida joylashishga majbur bo'ladilar. Joyni Samarqandak deb ataydilar, hozir qirg'izlar uni Samarqandik deyishadi.

2) bir hududni ikkichi hududga o'xshatish natijasida kelib chiqqan nomlar. Bunda joyning landshaftiga, ko'rinishiga, ohangdorligiga asosiy e'tibor berilgan. Masalan, Yevropadagi Shveysariya toponimi Osiyoda, Amerikada, Yangi Zelandiyada uchraydi.

Venesuella mamlakatining nomi Venetsiya nomidan olingan bo'lib, kichik Venetsiya ma'nosini beradi. Mazkur nom XV asrning oxirlarida ispanlar tomonidan berilgan. Ular Janubiy Amerika qirg'og'ida bir xushmanzarali aholi punktini uchratib, Venetsiyaga o'xshatishgan va shu nomni berishgan. Keyinchalik butun mamlakat shu nom bilan atalgan.

Polyak xaritashunoslarining ma'lumotiga ko'ra, Polsha xaritasida Koreya nomi 19, Amerika 18, Vengriya 13, Abissiniya 9, Kanada 9, Braziliya 5, Italiya 3, Bolgariya 1, Venetsiya 7, Kiyev 4, Vavilon 2 marta qaytariladi va migrations nomlar hisoblanadi. Biroq xaritalarda bir-biriga juda o'xhash, boshqa hududlardan ko'chirilmagan geografik nomlar ham uchratiladi. Masalan, Rossiyaning Vologdon oblastida Buxoro degan joy bor. Buni O'zbekistondagi Buxoro shahriga hech aloqasi yo'q. Rus tilining ba'zi dialektlarida «buxara» so'zi «bo'sh yer» ma'nosini beradi.

15. *Xato nomlar*. Dunyo xaritasida mazmuniga mos kelmaydigan haqiqatga asoslanmagan geografik nomlar ham uchrab turadi. Masalan, Tinch okeani nomi xatodir. Nomi «Tinch» bo'lgani bilan o'zi juda katta to'lqinlar, bo'ronlar makoni. Shohimardon? Hazrat Alini Shohimardon – erlar shohi deyishgan, ammo uning bu yerga nima dahli bo'lishi mumkin, uning qabri Iroqda. Osiyo deb, dastlab O'rta dengizning Sharqiy sohillari tushinilgan. Bu nom asta-sekin umumlashib, Yaponiyagacha tarqalgan. Osiyo deganlarida asos bor. Osiyo – asu – sharq, kun chiqar degan so'z. «Tinch» okean deb atalishini

sababi bor: Magelan okeanda so'zib yurganda kuchli to'lqinlar, bo'ronlar bo'lmanan.

Professor H. Hasanovning fikricha geografiya tarixida eng xato nom «Amerika» sanaladi, chunki 1) mahaliy tub aholi o'z yurtini bunday atamagan; 2) agar Xristafor Kolumbning 1492-yilda kashf etgani tan olinsa, qit'aning nomi Kolumbika bo'lishi kerak edi. Biroq bu yerlarga Kolumbdan ilgari sayyoh va savdogarlar borib kelgani ma'lum. Kolumbning o'zi ham yanglishib «Hindistonning bir qismiga kelib qoldim» deb o'ylagan; 3) bu qit'ani Amerigo Vespuchi ham kashf etmagan. U Braziliyaning sharqiy sohillarini aylangan. U faqat 32 betlik maktub yozgan va maktubda noma'lum yerlarga borganini bayon qilgan. Uning maktubi qo'ldan qo'lga o'tib, hatto xaritalarga tushib, g'arbiy qit'a «Amerika yeri» keyinchalik «Amerika» bo'lib ketgan bo'lishi mumkin yoki bu qit'a dengizchi Kabotning 1497-yilgi ekspeditsiyasiga sarmoya bergen ingliz boyvachchasi Richard Amerikaning ismi bilan atalgan bo'lishi mumkin. Uni yangi qit'a yoki G'arbiy qit'a deb atash o'rniroq bo'lardimi?

Hozirgi zamon olimlarining fikricha, Amerikaning tub aholisi indeetslar bo'lganligini e'tiborga olib, uni «Indo Amerika» deyishi o'rniroq bo'lsa kerak. Yangi qitani Amerika deb 1507-yilda lotoringiyalik geograf Valdzemyuller atagan. Lekin 1538-yilgacha faqat Janubiy Amerika shu nom bilan atalgan. Merkater degan xaritashunos tuzgan xaritada ikki materik ham shu nom bilan tushirilgan.

16. *Yangi zamon nomlari*. Bunday nomlar sobiq ittifoq davrida qo'llangan Marks, Engels, Lenin, Kirov, Kalinin, Telman kabi nomlar o'rnida Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Istiqlol, Mustaqillik kabilarni qo'llash bilan bog'liq.

Geografik nomlarning kelib chiqishini boshqa usullari bor. 1) nomlarning oldiga old ko'makchi (predlog) «pri», «oldi», «orti», «za» qo'shilib, yangi geografik nomlar kelib chiqqan: Kavkazorti (Zakavkazye), Baykalorti (Zabaykalye), Iliorti (Zaliy),

Oloyorti (Zaolay), Kaspiy orti pasttekisligi va boshqalar; 2) kalka tushunchasi, ya’ni tarjima qilingan, ikki tilda, ikki xil ataluvchi nomlar: Qorasuv – Siyohrud, Qizilsuv – Surxob, Oqsuv – Obisafid va boshqalar; 3) juft geografik nomlar: Kattasuv – Kichiksuv, Oqsuv – Qorasuv, Qoraqum – Qizilqum, Qoratog’ – Oqtog’ kabi; 4) adabiy nomlar: Moviy Dunay, Moviy Kubba kabi; 5) geografik obyektlarning xususiyatlarini kursatuvchi nomlar: Sho’rko’l, Chuchukbuloq, Chuqursoy, Bodomsoy, Mineral suv va boshqalar; 6) geografik obyektlarning qayerda joylashganligini ko’rsatuvchi nomlar: Rostov-na-Donu, Petropavlovsk-Kamchatsk, Komsomolsk na Amure kabi; 7) geografik obyektga noto’g’ri ma’no beruvchi nomlar: Xotinko’prik. Bu so’zni xotin (ayol)larga hech aloqasi yo’q. Eski o’zbek tilida «tosh»ni ham xotin deb atashgan. Turkmanistondagi «Taxtabozor» toponimining ham «taxta» so’ziga aloqasi yo’q. Bozor joylashgan joy juda tekis bo’lganligi sababli bu so’z qo’llangan; 8) geografik nomni kelib chiqishiga sabab bo’lgan obyekt hozirda butunlay yo’qolib ketgan, biroq nom qolgan. Masalan, Saratov shahri. Bu Saritau nomidan olingan, tog’ esa yo’q bo’lib ketgan, nomi esa saqlanib qolgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Joyning holati, xususiyati, yer relyefi va iqlimga bog’liq nomlar qanday xususiyatlarga ega?
2. Suv obyektlariga bog’liq nomlar qanday ataladi.
3. O’simlik bilan bog’liq nomlar fanda nima deb yuritiladi?
4. Hayvonlarga bog’liq nomlar qanday asoslar bilan paydo bo’ladi?
5. Foydali qazilmalarga bog’liq nomlarning paydo bo’lish sabablarini sharhlang.
6. Kasb-hunardan olingan nomlar uchun qanday holatlar asos bo’la oladi?
7. Xo’jalik buyumlaridan olingan nomlarning o’ziga xos jihatlarini tushuntiring.
8. Xalq, qabila, qavm va urug’larga bog’liq nomlar fanda qanday ataladi?
9. Shaxslarning ism, familiyasi, laqabi va taxallusini ifodalovchi nomlar qanday asoslar bilan toponimlarga aylanadi?

8-mavzu: Toponimlarning uslubiy xususiyatlari

Reja:

1. Toponimlardan uslubiy maqsadlarda foydalanish.
2. Sadriddin Ayniy asarlarida qo'llangan toponimlar.

Tayanch tushunchalar: *nom, joy nomi, toponim, toponimiya, Sadriddin Ayniy, asar, qahramon, qatag'on, saroy, urug' nomi, uslubiy, mifologik nomlar, diniy to'qima nomlar, sinxron-tarixiy, diaxron-tarixiy.*

Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o'rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo'lsa, so'ngra yozuvchi uslubi manerasini belgilash uchun ham ahamiyatlidir. Bu jihatdan qaraganda, Sadriddin Ayniy asarlaridagi toponimlar, ularning ma'no va tuzulish turlari, leksik va uslubiy xususiyatlari diqqatga sazovordir.

Davr bilan hamnafas bo'lgan yozuvchi S.Ayniy o'tmish davr voqealarini hikoya qilar ekan, bevosita tasvirlanayotgan voqealar yuzaga kelgan joy, sharoit bilan kitobxonni to'liq tanishtirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning asarlarida Buxoro amirligining ma'muriy bo'linishi, shaharning tuzilishi, turli xil joy nomlarini ifodalovchi so'zlar anchagina uchraydi. Uning asarlarida jami 571 ta geografik nom qo'llangan. Shundan 158 ta qishloq nomi 98 ta ko'cha (mahalla), 78 ta shahar , 33 ta rayon (tuman), 25 ta oblast (viloyat), 39 ta gidronim, 18 ta oronim va 122 ta turli geografik (madrasa, masjid, mozor, qal'a) nomlari ishlatilgan. Yuqorida keltirilgan toponimlar, asosan, Buxoro va uning tumanlari hududidagi geografik joy nomlaridir.

Bunday real toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ba'zan yozuvchi turli harakat va voqea-hodisalar bo'lib o'tgan, ro'y bergan joy nomlarini yashirishi, ya'ni shu joy nominining bosh harfi yoki boshqa yashirin nom bilan atashi mumkin. Buning turlicha sabablari bo'ladi. Jumladan, siyosiy jihatdan taqiqlangan yoki yozuvchiga yaqin, tegishli joy bo'lishi mumkin. S.Ayniy ham

Shofirkon tumanidagi bir qishloq nomini faqat bosh harfi «M» bilan ataydi: *Shofirkon tumaniga qarashli «M» qishlog’ida Abdurahimboy hovlisida ishlar qizigan edi*¹¹³.

Fikrimizcha, «M.» qishlog’i adibning «Kunjaki domlasi va asosiy xo’jayini Mulla Abdusalom yashaydigan Mahalla nomli qishloqdir. Chunki o’zining «Esdaliklar» epopeyasida bu qishloqning to’liq nomini eslatib o’tadi: Men «Kunjaki domlam» va asosiy xo’jayinim Mulla Abdusalom bilan birga uning qishlog’i bo’lgan «Mahalla» qishlog’iga chiqdim va u yerdan Mahallayibolo qishlog’iga – bobomning uyiga bordim¹¹⁴.

Yozuvchi o’z asarlarida ayrim toponimlarning ma’nosini ochib bergan. Bunda ma’lum bir joy nomi nega shunday atalganligiga kitobxonning diqqati tortiladi: *Akromboy to’pchiboshi sarbozlar kuchi bilan bog’ qilmoqchi edi. Shuning uchun u bo’lajak chorbog’ning nomini «Zo’robod» qo’ygan edi. Ammo xalq u chorbogga «Zulmobod» nomini munosib ko’rdi*¹¹⁵.

Ayrim hollarda shu toponim bilan bog’liq bo’lgan rivoyatlar, afsonalar keltirib xalq etimologiyasini beradi. Bu jihatdan «Tezguzar» qishlog’i «Childuxtaron» mozori nomlarining izohlanishi xarakterlidir¹¹⁶. Bu afsona va rivoyatlar o’z navbatida asar tilini shirali va jozibador bo’lishini ta’minlaydi.

Yozuvchini faqat yirik joy nomlari emas, balki eng kichik dala nomlari ko’cha, mahalla, ariq va tepaliklar nomlari ham qiziqtirgan. Ana shunday kichik obyektlar nomi mikrotoponimiyada o’rganiladi.

S.Ayniy asarlaridagi mikrotoponimlar anchagina o’rinni egallagan. O’zining 20 yildan ortiq umrini Buxoro shahrida o’tkazgan adib shahar mikrotoponimiyasini ataylab sanamay, voqealar tasviriga bog’lab olib boradi. Jumladan, «Esdaliklar» asrining IV qismida bir begunoh aravakashning amir amaldorlari tomonidan toshbo’ron qilinishni tasvirlar ekan, shaharning ichki

¹¹³ Айний Садриддин Асарлар. Саккиз томлик. 3-том. Т., 1968. –Б.49.

¹¹⁴ Ayniy Sadriddin 5-tom. T., 1968. –B.218.

¹¹⁵ Ayniy Sadriddin 2-tom. T., 1968. –B.177.

¹¹⁶ Ayniy Sadriddin 5-tom. T., 1968. –B.222.

tuzulishi mikrotoponimlari bilan tanishtirib o'tadi: ...*Toshbo'ron qiluvchilar aravakashning tuyada osilib qolgan o'ligini Naddofon va To'qimdo'zlik katta ko'chasi orqali Bozori Nav, Labi Rud ko'chasigacha, undan Xo'ja Kalon masjidi, Madrasayi Nav oldidan Sesu ko'chasiga va Bazzozlik rastasi, Sarafon gumbazi, Chorsu, Xiylabofon, Kuyimurg'kush guzarlari orqali Qavola darvozasigacha to'xtamay toshbo'ron qilib o'tkazganlar... Madaxon, Arabon guzarlaridan Mirzo G'ofur guzarigacha o'tganlar, undan katta ko'cha bilan Imom darvozasiga yetganlar...*¹¹⁷

Misoldan ko'rindiki, yozuvchi bir kichik voqeani tasvirlash orqali butun ko'hna Buxoroning qadimiyligi geografiyasini ko'z oldimizda yaqqol gavdalantira olgan. Shu misoldan aniqki, S.Ayniy asarlarini o'z navbatida tarixiy geografik asar sanasa ham bo'ladi.

Toponimiya oidi asarlardan ma'lumki, qadim zamonda ko'cha va mahalla nomlari shu ko'cha yoki mahallada yashovchi kishilaring kasb-kori, millati, turmushi va mashg'ul bo'lgan hunariga qarab nomlangan. S.Ayniy asarlaridagi ko'pgina joy nomlari ham shu mahallada yashovchilarning kasb-kori bilan bog'lab qo'yilganligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum ko'cha yoki mahalla nomidanoq bu yerda yashovchi aholining mashg'ulotini bilish mumkin. Masalan, Gavkushon – mol so'yuvchilar, qassoblar ko'chasi, Kemuxtgaron nomli mahalla. Kemuxt eng chidamlı, qattiq charm (ruscha: shagren). Bu maxsus chidamlı charm qadim vaqtarda sag'r deb yuritilgan¹¹⁸. Kemuxtgar – kemuxt ishlab chiqaruvchi usta. Kemuxtgaron ko'chasing nomi ham ana shundan olingandir. Sobunfurushon (sovun ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar ko'chasi). Bo'yrabofon (bo'yra to'quvchilar), (Shonataroshlik (taroq yo'nuvchilar) So'zangaron (igna bilan ishlovchilar, tikuvchilar), Tagbandbofon (ot, eshaklarning egar va to'qimlarini ishlab chiqaruvchilar) va boshqalar.

¹¹⁷ Ayniy Sadriddin 7-tom. Т., 1968. –В.115.

¹¹⁸ Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. З жилдлик. 1-жилд. – Т., 1963. – Б.398.

Turli kasb-hunar nomlari bilan atalgan yuqoridagi kabi nomlar til taraqqiyotining keyingi davriga kelib eskirib iste'moldan chiqib qoldi. Hozirgi paytda ularni qayta tiklash chora-tadbirlari ko'rilmoxqda.

S.Ayniy ba'zi personajlarning nutqini individuallashtirish maqsadida ayrim rus tili va u orqali kirgan toponimlar talaffuzini o'zgacha qilib bergan. Ya'ni eski o'zbek tili talaffuzi va orfografiyasi shaklida berilgan: Islom davlatlaridan boshqa besh davlat, chunonchi: *Jirmon (Germaniya) Itoliyo, Ameriko, Farangiston, Anglis davlatlari ittifoq bo'lib, boshevik tuxmini quritmoqchi bo'lib, jang e'lon qilganlar*¹¹⁹.

Xuddi shuningdek, Buxoro toponimi ayrim din vakillari nutqida yoki tantanali uslubda yozilgan xatlarda Buxoroyi sharif, ya'ni «muqaddas Buxoro» nomi bilan yuritilgan: *Taqsim, Buxoroyi sharif to'ylari juda botartib bo'ladi-da, – deb Hojiyoqubboy gap boshladi*¹²⁰.

S.Ayniy asarlaridagi toponimlar tuzilishiga ko'ra sodda, lekin asosiy ko'pchiliginu ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning turli xil sintaktik munosabatlar vositasida birikishi va qo'shilishidan tarkib topgan qo'shma toponimlar tashkil etadi.

Etimologik jihatdan, asosan, arabcha, forscha va umumiy turkchadir.

Shunday qilib, toponimik leksika S.Ayniy asarlarida o'z mazmun boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlaridagi toponimlar badiiy tasvirini real chiqishi uchun xizmat qilgan. Hamda kitobxonada feodal davri shahar tuzilishi, geografiyasi haqida konkret tasavvur qoldiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimiya va uslubiyatning o'zaro munosabatini izohlang.
2. Toponimlar qanday uslubiy xususiyatlarni o'zida namoyon eta oladi?

¹¹⁹ Ayniy Sadreddin 2-tom. T., 1968. –B.405.

¹²⁰ Ayniy Sadreddin 2-tom. T., 1968. –B.60.

3. Badiiy asar tilidagi toponimlarni qo'llash bilan bog'liq holatlarga sharh bering.

4. S.Ayniy asarlarida qo'llangan toponimlarga xos uslubiy jihatlarni izohlang.

5. Asardagi toponimlar yozuvchining maqsadini ifoda etishga xizmat qiladimi?

9-mavzu: Buxoro toponimlari tarkibida qo'llanuvchi so'zlar

Reja:

1. Toponimarning tarkibi.

2. Toponimlardagi ayrim so'zlar tavsifi.

Tayanch tushunchalar: *nom, toponim, geografik nom, geografik obyekt, apellyativ, apellyativ leksika, turdosh ot, qo'shimcha, affiks, affiksoid.*

Nomshunoslikning bir qismi sanalgan toponimiyada tarkib jihatdan turli-tuman nomlar uchraydi. Bu haqda professor T.Nafasov o'zining tadqiqotida Qashqadaryo viloyati toponimlari misolida diqqatga sazovor fikrlarni bayon etgan¹²¹. Biz ushbu qismda Buxoro viloyati toponimlari tarkibida uchraydigan ayrim so'zlarning tahliliga e'tibor qaratamiz.

Buxoro viloyati toponimlari tarkibida quyidagi maxsus so'zlar qo'llanadiki, ular toponimlarning turli jihatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday so'zlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bugungi kunda mustaqil qo'llanmaydigan so'zlar.

2. Hozir ham mustaqil ma'noga ega so'zlar.

Birinchi guruhga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kent: *Vobkent, Kumushkent, Shakarkent*. Kent so'zi qo'rg'on ma'nosini anglatadi.

– tez/-jiz/: *Malaxteza, Tezguzar, Jizmandi*. Tez/jiz so'zlari qo'rg'on ma'nosiga ega.

¹²¹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Т.: Мухаррир, 2009. – 430 б.

-
- mon/-man/: *Pushmon*, *Talipushmon*, *Safarman*. Mon/man so'zi qo'rg'on ma'nosini ifodalaydi.
 - metan/-mitan/-maton: *Armetan*, *Novmetan*, *Romitan*. Metan/mitan – istehkom, mustahkamlangan qo'rg'on ma'nosiga ega.
 - duvon/-tuvon/-devol/-duvol: *Avurduvon*, *Buzunduvon*, *G'avuzduvon*, *G'ijduvon*, *Qotishtuvon*. Duvon/tuvon so'zlari qishloq, mahalla ma'nosini anglatadi.
 - kana/-xona/-kan: *Obkana*, *Arabxona*, *Pattaxona*. Kana, xona so'zlari makon, xona, yashaydigan maskan ma'nosiga ega.
 - ob/-ab: *Bolojob*, *Labobiyon*. Ob – katta hajmli oqar suv, daryo. Daryo bo'yidagi manzil shunday atalgan.
 - kom/-kon/-gon/-gan: *Komde*, *Siyokon*, *Xo'jakon*, *Qarikon*, *Shofirkon*. Kom/kon so'zlari daryo, anhor ma'nosini anglatgan.
 - kesh/-kash/-kish/-kush. *Xorkash*, *Sho'rkash*, *Qumkashon*. Kash suv ayirgich balandlik; qo'rg'on ma'nosiga ega.
 - marg': *Marg'osim*. Mapg' – o'tloq, yaylov ma'nosiga ega so'z.
 - toq/-tuq: *Chortoq*, *Chortuq*. Toq/tuq – oqar suv, daryo ma'nosidagi so'z.
 - var: *Shovare*. Var – tevaragi devor bilan o'ralgan joy, istehkom.
 - jo'y: *Poyjo'y*, *Jo'yzar*, *Jo'yimo'min*, *Jo'yiodoq*, *Jo'ynav*, *Jo'yrabod*, *Jo'ysafed*. Jo'y – ariq, anhor ma'nosida.
 - deh: *Dehdaroz*, *Dehibaland*, *Dehiko'hna*, *Dehcha*, *Komde*, *Denav*. Deh – qishloq ma'nosida.
 - pul: *Saripul*. Pul – ko'prik ma'nosida.
 - tal/tall: *Tayital*, *Talig'undak*, *Taligandum*, *Talikulo'h*, *Talipoya*, *Talisang*, *Tali sangobod*, *Talisafed*, *Talisobun*. Tal/tall - tepa, do'nglik ma'nosida.
- Ikkinchı guruhga esa quyidagilarni kiritish mumkin:
- rabot: *Rabot*, *Ravot*, *Rabotcha*, *Rabotak*, *Oqrabot*, *Qo'shrabot*. Rabot – istehkom, atrofi devor bilan o'ralgan joy, manzil ma'nosini ifodalagan.

-
- qishloq: *Bog'qishloq, Tomqishloq, Sherqishloq, Yangiqishloq, Qishloqcha, Qumqishloq*. Qishloq – qo'rg'onlar majmuyi, qishda yashaydigan maskanlar guruhi.
 - obod: *Aminobod, Amirobod, Gulobod, Fayzobod, Xonobod*. Obod – o'zlashtirilgan yerda tashkil qilingan qishloq.
 - jon/-jan/-shon/-jom: *Yorjon, Jonbobo, Jongeldi, Joniston, Qirlishon*. Jon/shon – buloq; suv manbayi, kanal; daryo ma'nolariga ega.
 - rud. *Tanirud, Shohrud, Boboyirud*. Rud – daryo, oqar suv, anhor.
 - band: *Bandboshi*. Band – kichik hajmli oqar suv dambasi.
 - machit: *Balandmachit, Toshmachit*. Machit/masjid – ibodat qilinadigan maskan ma'nosida.
 - saroy: *Saroy, Ko'ksaroy, Miyonsaroy, O'zbeksaroy*. Saroy – hashamatli imorat, yurt boshlig'i qarorgohi; turkiy qavmlardan birining nomi.
 - ariq. *Ariqbo'yj, Beshariq, Mirobariq, Adoqariq, Qosimariq*. Ariq – qazib suv oqizilgan chuqur o'zan ma'nosida.
 - qozoq. *Qazoqon*. Qozoqlar istiqomat qiladigan makon ma'nosida.
 - terak: *Terakzor, Teraklik* – terak daraxti ma'nosida. Shuningdek, darak/terak – band, damba, to'g'on ma'nosida ham qo'llanadi.
 - bog'. *Anjirbog', Bog'iamir, Chorbog'*. Bog' – mevali daraxtlar va gullar ekilgan joy.
 - nova: *Novaboshi*. Nova – yog'ochni o'yib suv o'tkaziladigan moslama ma'nosida.
 - ko'l: *Ko'l, Ko'lobod, Oydinko'l, Chuqurko'l, Sho'rko'l*. Ko'l – suv to'plangan chuqur havza.
 - jar: *Jarqoq, Jarqo'rg'on*. Jar – o'yiq, katta yoriq ma'nosida.
 - bozor. *Bozorjoyi, Jumabozor, Otbozor, Ro'yibozor, Sarbozor, Eskibozor, Yangibozor*. Bozor – savdo qilinadigan joy.
 - osiyo: *Galaosiyo, Diosiyo, Osiyo, Sariosiyo*. Osiyo – tegirmon ma'nosida.

-
- ko'prik: *Toshko'prik*. Ko'prik – ariq, kanal, daryo ustida o'tish uchun qilingan moslama.
 - quduq: *Uchquduq*, *Quduqchi*. Quduq – yer tubidagi suv havzasi.
 - tepa: *Oqtepa*, *Qatortepa*, *Qo'riqtepa*, *Qo'rg'ontepа*. Tepa – tekislikda yer sathidan baland do'nglik.
 - guzar: *Guzar*, *Tezguzar*. Guzar – ikki tarafi imoratli yo'l, o'tish joyi ma'nosida.
 - qir: *Tayqir*. Qir - cho'ziq balandlik.
 - suv: *Suvobod*, *Suvchilar*. Suv – yer osti va yog'in suvlari yig'indisi¹²².

Yuqorida sanalganlardan tashqari, joyning geografik xususiyati bilan bog'liq bo'lgan qoya, bo'yin, buloq, chashma, kamar, anhor va boshqa so'zlar ham borki, ular Buxoro viloyati toponimiyasida uchramaydi. Chunki ular vodiy hududlarga bog'liq so'zlardir.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimlarning tarkibi deganda nima tushuniladi?
2. Lug'aviy birliklar va toponimlarning tarkibi qanday jihatlari bilan o'zaro farqlanishini sharhlang.
3. Toponimlarning tarkibida qanday grammatik shakllar keng qo'llanadi?
4. Joy nomlari tarkibidagi bugungi kunda mustaqil qo'llanmaydigan so'zlar qaysilar?
5. Toponimlar tarkibida hozir ham mustaqil ma'noga ega so'zlarning semantikasiga xos xususiyatlarni izohlang.

¹²² Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т., 2007. – 238 б.

10-mavzu: Buxoro etnotoponimlari va ularning etimologik xususiyatlari

Reja:

1. Toponimik siyosat.
2. Etnotoponimlar etimologiyasi.

Tayanch tushunchalar: onomastika, toponim, toponimiya, etnonim, etnonim ma'nosi, etnotoponim, atama, atoqli ot, qabila, turkiy, urug', qabila, xalq nomi, qatag'on, do'rmon, mang'it.

Toponimik siyosat. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish, tushunib yetishga suyanilgandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'limganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹²³, – degan fikri Vatanimiz toponimik merosi uchun ham tegishlidir. Chunki toponimlarda o'zbek xalqining uzoq o'tmishi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti aks etadi.

Toponimlar asrlar davomida yaratilgan lisoniy, tarixiy va madaniy-ma'naviy meros hisoblanadi. Ularda xalqning qadimiy davrlardan tortib to shu kungacha bo'lgan noyob kuzatish, tajriba va turli e'tiqodlari o'z ifodasini topgan bo'ladi¹²⁴.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarni tadqiq etishda ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu, birinchi navbatda, toponimlar tilning turg'un unsurlari sifatida xalqlarning tili va tarixini o'rganishdagi muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Toponimiyaga oid tadqiqotlar nafaqat qadimdan u yoki bu xalq, elat va uning tilining tarqalish hududini, qatlamlashish hamda shunga o'xhash hodisalarini aniqlashga, balki xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va etnolingvistik aloqalarni tiklashga, aniqlashga ham imkon beradi. Bu jihatdan Quyi

¹²³ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқолол ва тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б.71.

¹²⁴ Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. –Т., 2004. –Б.4.

Zarafshon vohasi, aniqrog'i Buxoro viloyat toponimlarning kattagina bir qismini tashkil etgan etnotoponimlarni to'plash va ularni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, toponimlarga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda toponimlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan, alohida tadqiqot manbayi bo'lib o'rganiladigan bo'ldi. Buning bevosita dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida»gi 1996-yil, 31-may, 203-sun qarorini keltirish mumkin. Bu qaror asosida Respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida toponimik komissiyalar tarkib toptirildi. Xususan, Buxoro viloyatida ham shunday komissiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Yig'ilgan materiallar va ularning tahlili Buxoro viloyati toponimlarning kattagina bir qismini etnotoponimlar tashkil qilganligini ko'rsatdi. Buxoro etnooykonimlarini o'rgangan S.Nayimov viloyat hududida o'ttizga yaqin etnooykonim borligini qayd etadi¹²⁵. Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha etnotoponimlarning umumiy soni oltmishdan ortiqdir.

Toponimlar shu obyekt nomi uchun asos bo'lgan apellyativning ma'no mazmuniga ko'ra: antropotoponim, gidrotoponim, topotoponim, zootoponim, fitotoponim, etnotoponim va boshqalarga bo'linadi.


Bular orasida etnotoponimlar o'zining turli ma'noviy hamda etimologik jihatlarini namoyon etishi bilan ajralib turadi.

Etnotoponim – yasalish negizi etnonimlar tashkil qilgan joy nomlari. Etnonim yunoncha etnos – “xalq” va “onim” – “nom” so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmuyi etnonimiya, etnonimlarni o'rganadigan fan etnonimika deyiladi¹²⁶. Etnik

¹²⁵ Найимов С. Бухоро облост этноойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1984, 3-сон.

¹²⁶ Qorayev S. Toponimika. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006, 75-b.

nomlar tildagi eng qadimiy so'zlar sanaladi. Etnonimlarning asosiy ko'pchiligi toponim yoki toponim tarkibida etnik element sifatida saqlanib qolgan.



Taniqli toponomist olim S.Qorayev har qanday etnonimning ma'nosi borligini, ularning qadimiyligini, shu sababli ayrimlarining etimologiyasini aniqlash borasida bir qancha qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'iroq, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas¹²⁷.

Urug', qabila va xalq nomlari asosida paydo bo'lган joy nomlari fanda etnotoponim deb yuritiladi. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday joy nomlarini o'rganish xalqimiz tarixini chuqr o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Etnonimlarning joy nomiga aylanishi ikki ko'rinishga ega. Birinchidan, etnonim to'ppadan to'g'ri joy nomi ma'nosini ifodalaydi, ikkinchidan esa ayrim nomlar etnik element

¹²⁷ Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. -B.85.

(etnonim)ning boshqa so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan. Biz quyida mana shu holatlarga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Buxoro viloyati hududi qadimgi davrlardan boshlaboq turli xalq, elat va qabilalar istiqomat qilib kelganligi bilan ajralib turadi. Bu hududda turkiy qavmlarning o'ndan ortig'iga mansub aholi yashagan.

Xususan, Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi **Qatag'on** qishlog'i nomi eng qadimgi turkiy qabila nomidan transpozitsiya usuli bilan hosil bo'lgan. Qatag'on o'zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Afg'oniston, Tojikiston, O'zbekiston hududlarida, asosan, Qashqadaryoning Shahrисабз vohasi, Buxoro vohasi, Xorazm, Farg'ona vodiysi. Toshkent vohasida yashashgan. Qatag'onlar bir necha urug'ga bo'lingan. O'tmishda ular chorvachilik bilan shug'ullangan. Asrlar davomida o'troqlashib, dehqonchilik qilganlar¹²⁸.

Qatag'onlar O'zbekistonning turli hududlarida yashagan. Ular o'zbek tilining qarluq lahjasida so'zlashgan. Prof. T.Nafasov qatag'onlar yashagan hududlardagi ayrim joylar ariq, soy, tepe, guzar, dasht, qir kabilar ham qabila nomi bilan qo'llanganligini qayd etgan. Jumladan, Qatag'onariq, Qatag'onsoy, Qatag'ontepa, Qatag'onguzar va boshqalar¹²⁹.

Do'rmon – o'zbek qavmlaridan biri. Do'rmonlar O'zbekiston, Tojikiston va Afg'oniston hududlariga Dashti Qipchoqdan 16-17-asrlar davomida kelib ornashgan. Do'rmonlar Zarafshon daryosining o'rta oqimi, Surxondaryo viloyatidagi Qoratog' daryosining o'rta qismi, Surxon daryosining yuqori oqimlarida, Bobotog' etaklarida, Toshkent vohasida, qisman Xorazm viloyatida joylashgan. Do'rmon qavmining tarkibida oq qo'yli, uvoq, uch urug', ko'k chelak, no'g'ay, gurdak, oy tamg'ali va boshqa bo'linmalari bo'lgan¹³⁰. Do'rmon etnonimi ko'plab

¹²⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдик, 10-жилд. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. -Б. 615.

¹²⁹ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. -B.360-361.

¹³⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдик, 3-жилд. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. -Б.399.

toponimga asos bo'lgan. Do'rmon etnooykonimi turkiy va mo'g'ul xalqlari uchun umumiy bo'lgan etnonim asosida paydo bo'lgan. O'zbekistonning barcha tumanlarida Do'rman/Do'rmon toponimi uchraydi. Buxoro viloyati esa Shofirkon tumanida mavjud.

Do'rmon atamasi mo'g'ul tilida "to'rt" ma'nosini anglatuvchi "do'rub", "do'rbo'n"¹³¹ so'zlari bilan juda yaqin.

Mang'it etnotoponimi ham aslida mang'it etnonimi toponimizatsiyasi asosida yuzaga kelgan. Mang'it o'zbek xalqi tarkibidagi eng qadimiy, yirik qabila. Uning oqmang'it, qoramang'it, cholmang'it, boyg'undimang'it, to'qmang'it, o'nikki, chalamang'it kabi bo'linmalari, temirxo'ja, esaboy, esat, guvalak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, chovqay, kulatamg'ali, mang'itqozoq, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay kabi urug' tarmoqlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud¹³². Mang'it so'zi aslida mo'g'ulcha bo'lib, «mingaad», ya'ni minglar demakdir¹³³.

Ushbu etnonim O'zbekistonning qariyb barcha tumanlarida uchraydi. Mang'it atamasi qishloq, ovul, guzar, shahar, tumanning atoqli nomi, ya'ni toponim sifatida qo'llanadi. Buxoro viloyatida esa G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi shu etnonim bilan atalgan.

Mazkur etnonim toponim sifatida bir qancha so'zlar bilan birga qo'llanadi: Mang'itguzar (G'uzor tumani), Mang'itto'p (Qamashi tumani), Mang'itobod (Urgut tumani), Mang'ittepa (Ishtixon tumani), Oqmang'it (Pastdarg'om, Urgut tumanlari)¹³⁴.

Shuningdek, Xo'jaobod, Jondor, Buvayda, Dang'ara tumanlarida mang'it etnonimi toponim sifatida qo'llanadi. Gurlan, Hazorasp tumanlarida Mang'itsolma, Mang'ityop (aslida Mang'ityob bo'lib, "yob" so'zi Xorazm shevasida "ariq" ma'nosini anglatadi, ya'ni "mang'itlarning arig'i") kabi qishloqlar

¹³¹ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. -B.96.

¹³² Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. -B.161.

¹³³ Ишаев А. Мангит сўзининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти 1958, 2-сон. -Б.63-65.

¹³⁴ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. -B.160-162.

ham bor. Qolaversa, Qoraqalpog'iston Respublikasida Mang'it tumani ham mavjud.

Bahrinbayot – Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Aslida Bahrin turklashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomiga **bayot** so'zining qo'shilishi natijasida bu etnotoponim hosil bo'lgan.

T.Nafasovning qayd etishicha, bahrin qabila nomiga totem asos bo'lgan. Bahrin – lochinning bir turi bo'lib, qo'lga o'rgatilgan bahrinlar bilan qush va boshqa jonivorlar ovlangan. Qabila jamoasi bahrin qushiga sig'inishgan, tug'iga shu qush tasviri tushirilgan. Totemistik qarash tufayli qabila totemi toponimga aylangan¹³⁵.

Turkmano'g'li – Kogon tumanidagi qishloq nomi. Turkman – millat nomini bildiruvchi so'zga **o'g'il** so'zining qo'shilishidan paydo bo'lgan va h.k.

Xuddi shuningdek, Buxoro viloyatida tarkibida –lar, –on, –chi, –xona kabi qator elementlar ishtirok etgan etnotoponimlar ham mavjud: **Arablar**, **Arabon**, **Qiyoton**, **Qirg'izchi**, **Janaparxona**, **Mang'iton**, **Minglar** va boshqalar.

Ayrim etnonimlar tarkibida shunday elementlar uchraydiki, ular bugungi kunda qo'shimcha sifatida talqin qilinishi mumkin. Bular jumlasiga *achamayli*, *badroqli*, *baymoqli*, *baliqchi*, *ba(o)lg'ali*, *boyli*, *joytamg'ali*, *juvonchi*, *irg'oqli*, *po'lotchi*, *sirg'ali*, *so'loqli*, *taroqli*, *tuyoqli*, *uvuzchi*, *uyruvchi*, *erganakli*, *o'yuvli*, *o'roqli*, *o'roqchi*, *qoraqo'yli*, *qoracha*, *qo'shtamag'ali* va boshqalarni kiritish mumkin. Aslida ushbu etnonimlar tarkibidagi –li, –chi kabilarning qo'shimchaligi aniq emas. Shuning uchun ham bunday etnonimlardan hosil bo'lgan atoqli otlar, ya'ni etnotoponimlar yasama so'z sifatida tadqiq etilmasligi lozim. Bu haqda prof. Z.Do'simov ham o'z qarashlarini bayon etgan¹³⁶.

Etnotoponimlar etnik jihatdan qabila, urug'larning ma'lum territoriya bo'ylab joylashganligi va uning qonuniyatlarini

¹³⁵ Nafasov T. Ko'rsatilgan asar. -B.54-55.

¹³⁶ Дусимов З. Этнотопонимы Хорезма // Проблемы азербайджанской ономастики. - Баку, 1990. - С. 263-264; Дўсимов З. Хоразм этнотопонимлари//Ўзбек ономастикаси. III Республика илмий-амалий конференцияси тезислари. -Хива, 1991.- №1.-Б.26.

o'rganishda ham amaliy ahamiyatga ega. Bu hodisa areal toponimikada, ya'ni toponimlarning turli hududlar bo'ylab tarqalish xususiyatlarini aniqlovchi tarmog'ida o'rganiladi. Bu nuqtayi nazardan Quyi Zarafshon hududi etnotoponimlariga nazar tashlasak, ulardan **Janapar**, **Urganji**, **Chandir** kabi etnotoponimlar viloyat markazidan ancha uzoq tevarak qishloqlar nomi; Saroy, Arabxona, Nayman, Minglar kabi etnotoponimlar shahar markazidagi joy nomlari yoki unga yaqin qishloq nomlari atalganligi ma'lum bo'ladi.

O'rni kelganda etnonimlar, ular asosida yuzaga kelgan etnotoponimlarning imlo xususiyatlari borasida shuni qayd etish lozimki, bular turli o'rirlarda turlicha yozilmoqda. Ba'zan etnonim ham, etnotoponim ham bosh yoki kichik harflar bilan yozilayotganini kuzatish mumkin. Bunda eng maqbul yo'l atoqli otlarning imlo jihatlariga tayanish lozim. Aniqrog'i, etnotoponim bosh harf bilan boshlanishi kerak. Chunki etnonim asosida ma'lum bir geografik joy, obyektning atoqli oti paydo bo'lgan. Masalan, mang'itlar yashagan (yashayotgan) qishloqqa Mang'it deb nom berilgan. Etnonim esa turdosh ot bo'lib, qabila, qavmni ifodalovchi umumiyl nom sanaladi. Xohlagan bir qabila, qavm nomi etnonimdir. Shuning uchun etnonim kichik harflar bilan yozilishi kerak.

Umuman olganda, etnotoponimlarni areal usulda tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik, etnografiya va arxeologiya uchun ham ulkan material beradi.

Xulosa qilganda, etnotoponimlar tilda tasodifiy holatda emas, balki til taraqqiyoti qonunlari asosida ma'lum bir motivlarga tayangan holda hosil bo'ladi. Etnotoponimlar o'z tarkibida etnonimlarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini, daliliy materiallarini mujassamlantiruvchi boy lingvistik, etnografik va tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir. Etnotoponimlarning ilmiy tadqiqi bunday nomlar asosida yotgan lug'aviy birliklarning ma'no mohiyatini to'g'ri anglashga ham yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Toponimiya haqida ma'lumot bering.
2. Etnonim nima?
3. Etnotoponim nima?
4. Etnonim atoqli yoki turdosh otmi?
5. Qavm, urug', qabila atamalarini sharhlang.
6. Xalq va millat qanday farqlanadi?
7. O'zbeklar xalqmi yoki millatmi?
8. Buxoro viloyati hududida uchraydigan etnonim va etnotoponimlarni sharhlang.

11-mavzu: Oykonimlar

Reja:

1. Oykonim tushunchasi.
2. Oykonimlarning tasnifi.

Tayanch tushunchalar: til, tizim, atoqli ot, onomastika, toponim, joy nomi, oykonim, aholi punkti, ovul, qishloq, mahalla, shaharcha, shahar.

Joy nomlarining bir qismini oykonimlar, ya'ni aholi yashaydigan punktlar va ularning qismlari tashkil qiladi. Hozirgi tilimizdan «qo'rg'on», «qishloq», «shahar» ma'nosida ishlatalgan: -kat, kand, -duvon, -jiz, -metan kabilar yordamida yasalgan oykonimlar faol qo'llanmoqda: Shirikat, G'ijduvon, Xonjiza, Romitan.

Oykonimlarning turli tiplari mavjud. Aholining mashg'uloti, kasb-hunar bilan bog'liq oykonimlar: Taqachi, Degriezlik, Telpakdo'z; O'simlik va hayvonot dunyosi bilan bog'liq: O'rikzor, Olmaliq (Toshkent), Chiiali (Qashqadaryo) kabi.

Oykonim atoqli otning, xususan, toponimning bir turidir. Oykonim deganda, (yunoncha: oykos – turar joy, maskan+onoma – atoqli ot) aholi yashovchi jorylar, maskanlarning atoqli oti. Toponim turi.¹³⁷ Aholi yashaydigan joylarning atoqli otlari

¹³⁷ Begmatov E., Uluqov N. Ko'rsatilgan lug'at. –B.58.

bo'lgan oykonim (toponim)lar alohida olib o'rganilayotgan hudud hamda o'sha hudud xarita (karta)sining eng muhim va zarur elementlari bo'lib, biron mamlakat, davlat yoki o'lka tabiatining betakror xususiyatlarini o'zida u yoki bu darajada aks ettira oladi.

Oykonimlar sirasiga *ko'cha*, *daha*, *qishloq* (*qishloq fuqarolar yig'ini*), *mahalla* (*mahalla fuqarolar yig'ini*), *ovul* (*ovul fuqarolar yig'ini*), *posyolka*, *shaharcha*, *shahar* kabilar kiradi. Oykonimlar tizimida ko'cha nomlari alohida o'rinni tutadi. Ko'cha aholi yashaydigan maskan va yo'l ma'nosida qo'llanadi. Ko'cha aholi yashaydigan maskan ma'nosida oykonim, yo'l ma'nosida esa dromonim sanaladi. Bu haqda fikr yuritgan I.Xolmuratov *dromonim tizimining o'ziga xos alohida obyektlaridan hisoblanadi. Dromonim yo'l, ko'cha, yo'lak, berk yo'lak degan tushunchalarni o'zida ifodlaydigan termin. Shu yerda mavzuga tegishli bir nozik nuqta bor: aholi shahar, shaharcha, ovul, ovul fuqarolar kengashi, jamoa xo'jaligi, qishloq kabi topoobyektlarda yashaydi. Lekin shahar ham, shaharcha ham, qishloq ham, ovul ham nisbatan olganda katta, ya'ni ular o'rganilayotgan hudud oykonimlari tizimida mikrotoponim va makrotoponimlar sanaladi. U yerda yashayotgan kishilardan birini topish uchun oykonimlarning o'zinigina topish kamlik qiladi. Odatda, topooykonim(lar)ning tarkibidagi ko'cha, massiv, guzar, mahalla kabilardan biri aytilsa, qidirilayotgan manzilni tezroq topish mumkin¹³⁸,* deya qayd etgan.

Oykonimlar katta-kichik, aniqrog'i mikrooykonim va makrooykonim holatlarida bo'lishidan qat'iy nazar, ularning ichiga, ya'ni ularning mazmun va mohiyatiga kirib borib, zarur manzilni topish uchun shu hududga tegishli ko'cha va mahallalarning aniq nomlarini bilish kerak bo'ladi. Kishilar ma'lum shahardagi mahallaning ko'chasida yashaydi. Demak, oykonimlar tarkibida *ko'cha* birligi katta *ko'cha*, *tekis ko'cha*

¹³⁸ Холмуратов И. Жанубий Қорақалпогистон ойконимлари ва уларнинг лугавий асосларининг лисоний тадқиқи. Филол. фанл. фалс. доктори (PhD) диссер. –Бухоро, 2019. –Б. 27.

birikmalaridagi ma'noda emas, balki Shodlik ko'chasi, Baxt ko'chasi kabi birikmalar bilan ifodalangan ma'noda qo'llangan bo'lishi talab etiladi.

Oykonim atamasiga astionim tushunchasi juda yaqin turadi. Astionim shahar va posyolkalarning atoqli otidir¹³⁹. Ayrim adabiyotlarda qishloq, mahalla, ovul kabilarning nomlari ham astionimlarga kiratilgan¹⁴⁰. Mana shu astionim terminining izohli talqini bir necha lug'atda u yoki bu darajada uchratish mumkin bo'ladi. Masalan, N.V.Podolskayaning "Словарь русской ономастической терминологии"¹⁴¹ nomli lug'atida qayd etilib, izohlangan, astionim – *класс топонима, собственное имя любого города*. Demak, oykonimlar istalgan shahar, shaharcha, qishloq, mahalla va ovul fuqarolar kengashi, ovullarning nomlari hisoblanadi. Ularning shartli ravishda dunyo bo'yicha quyidagi turlarga bo'lib, tasniflab o'rganilishi tadqiqot mavzucini ma'lum darajada oydinlashtirishga ham yordam beradi:

- 1) jahon davlatlari hududidagi oykonimlar;
- 2) mamlakat doirasidagi topooykonimlar;
- 3) viloyat(lar) hududidagi oykonimlar;
- 4) tumanlar doirasidagi topooykonimlar;
- 5) alohida hudud (lar)dagi oykonimlar.

Bunda shahar va shaharcha, hatto, qishloq yoki ovul ichidagi mahalla, ovullarni alohida oykonimik hududlar deyilishi to'g'ri¹⁴².

Oykonimlar umuman nom va topoobyekt nuqtayi nazaridan toponimlar jumlasiga kirgani bilan birga tez o'zgaruvchan, ma'lum ijtimoiy zaruriyat tufayli yangilanadigan joy nomlari tizimi ham hisoblanadi. Ularni S.Qorayev quyidagicha holatda guruhlagan¹⁴³:

¹³⁹ Begmatov E., Uluqov N. Ko'rsatilgan lug'at. -B.58.

¹⁴⁰ Эназаров Т., Хусанова М., Есенмуратов А. Ўзбек номшунослиги. -Т.: Наврўз, 2015. -Б. 139.

¹⁴¹ Подолская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. -М.: Наука, 1978. -С.39, 41.

¹⁴² Xolmuratov I. Ko'rsatilgan manba. -B. 28-29.

¹⁴³ Qorayev S. Toponimika. T.: O'zbekiston faylasaflari milliy jamivati nashrivoti, 2006. -B.52.

-
- 1) tabiiy yoki tabiiy geografik oykonimlar;
 - 2) ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.

Oykonimlarni kengroq ilmiy nuqtayi nazardan quyidagicha tarzda tasniflash mumkin:

- 1) tarixiy oykonimlar;
- 2) zamonaviy oykonimlar;
- 3) arxaik oykonimlar¹⁴⁴;
- 4) yangi oykonimlar;
- 5) mikrooykonimlar;
- 6) makrooykonimlar.

Oykonimlarning asosiy qismini antropooykonim va etnooykonimlar tashkil etadi.

Antropooykonimlar. Antropooykonim – lotincha: antropo – odam, oykos – joy demak. Kishi ismlari bilan atalgan joy nomlari antropooykonimlardir. Toponimiyada antropooykonimlarning salmog'i ko'p.

Antropooykonimlarning ko'pchiligi qadimda xonlar va ularning avlodlari, amaldorlar, eshon va avliyolarning nomlari asosida tashkil topgan. Farg'ona viloyatida Xudoyorxon, Mallaxon; Buxoroda Olimxon; Bahouddin, Samarqandda Sultonobod, Xo'ja Ahror va boshqa qishloq nomlari bunga misol bo'la oladi.

Antropooykonimlar, asosan, ikki usul: transpozitsiya va kompozitsiya vositasida paydo bo'ladi¹⁴⁵.

Transpozitsiya, ya'ni shaxs nomlarining bevosita joy nomiga ko'chishi natijasida paydo bo'lgan antropooykonimlar: Sobirjon (kishi ismi), Sobirjon (joy nomi) Choriqulboy (kishi ismi), Choriqulboy (qishloq nomi), Choriqulboy (ko'prik nomi).

Kompozitsiya usulida antropooykonimlar shaxs ismi va indiktor asosida yuzaga keladi: Obidqishloq, Tog'ayobod (Buxoro), Malikcho'l (Navoiy).

¹⁴⁴ Шмелева. Т. В. Ономастика. Учебное пособие. –Славянске-на-Кубани, 2013. –С.83.

¹⁴⁵ Наймов С.Н. Ойкономмы Бухарской области: автореф. канд. филол. наук. –Т., 1984. –С.11.

Ayrim toponimlar, ayniqsa antropotoponimlarni izohlashda turli xil qarashlar mavjud. Jumladan, Afrosiyob (Samarqand) toponimi afra va siyob qismlaridan iborat bo'lib, bu qismlar ma'nosи turlicha izohlanganini ko'ramiz.

1. Afro so'zi arabcha – ot demak, siyoh – forscha qora. Afrosiyob – qora ot, qora otliq mazmunini beradi.

2. Afro – balandlik, yuksaklik ma'nosiga ega. Toponim afroz + siyoh+ob qismlaridan iborat bo'lib, Afrosiyob – qora suv angori tepasida, yuksakligidagi qo'rg'on demak. Samarqanddagи Afrosiyob shaharchasi Siyoh+ob – qorasuv angori tepasidadir.

3. Afra – nur, go'zallik shon-u shavkat ma'nosini ham beradi.

Afrosiyob – dabdabali, haybatli, qora shoh. Sug'dlarning lashkarboshi Afrosiyobning nomidir. Kishi ismi, taxallusi va laqabi vositasida shakllangan antropooykonimlar qadimgi Buxoro mikrotoponimiyasida ko'pchilikni tashkil qiladi: *Xalfa Xudoydod, Eshoniimlo, Mirzo Ubayd, Qozi Zohid, Mirarab* kabi.

Hozir ham ayrim shaxslar nomi familiyasi bilan ataluvchi viloyat (Navoiy), tuman (Fayzulla Xo'jayev), jamoa xo'jaligi (Qayum Murtazoyev), qishloq (Abdusalom) kabi qator antropooykonimlar mavjud.

Ammo sobiq sho'rolar tuzumi davrida sun'iy ravishda tilimizda antropooykonimlar ko'payib ketdi. Bu hol ayrim tarixiy nomlarning yo'qolishga sabab bo'ldi. Toponimist olimlarimizning fikricha, kishi ismi va familiyalarini yangi joylarga istisno tarzidagina berish maqsadga muvofiqdir.

Etnooykonimlar. Joy nomlarining katta bir qismini etnooykonimlar tashkil qiladi.

Etnonim (lotincha: etnos – xalq, urug', nomos – nom)lar atoqli ot (toponim) vazifasiga ko'chgach, u ma'no va vazifasiga ko'ra o'zgaradi. Avval etnonim sifatida kishilarning ma'lum ijtimoiy-tarixiy guruhi ma'nosini anglatgan bo'lsa, endi u yakka tushuncha, yakka obyektning nomiga aylandi.

Quyida ayrim etnooykonimlar izohi beriladi.

Sayyot – Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Turkiy urug'lardan birining nomi. Arabcha sayyod – ovchi, ovchilik qiluvchi demak. Etnonim oykonimga aylangan.

Mang'it – qadimgi turkiy qabilalardan biri. Mang'itlar Buxoroda 1753-1920-yilgacha hukmronlik qilgan, etimologiyasi: mangqat – minglar degan ma'noni bildiradi.

Tarkibida etnonim bo'lgan oykonimlarni tuzilishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Etnonim to'g'ridan to'g'ri transpozitsiya yo'li bilan etnooykonimga aylangan tub nomlar: Qatag'on (qishloq), Mang'it (qishloq), Xalach (qishloq).

2. Etnonim va aniqlagich leksemali nomlar: Arabxona, Qo'ng'irotguzar.

3. Etnonim va qo'shimcha asosida paydo bo'lgan nomlar: Turkmani, Avg'oni, Barloslar va h.k.

Taniqli tilshunos olim X. Doniyorov "O'zbek xalqining shajara va shevalari" (1968) risolasida 92 bobli o'zbek birlashmasiga kirgan urug' nomlari haqida fikr yuritib, o'zbek urug'lari juda ko'pligi va ular ham to'la tadqiq qilinmaganligini, hozirgi joy nomlarining asosini o'zbek urug'lari nomlari tashkil etishini ko'rsatadi. Darhaqiqat, birgina Samarqand viloyatida besh yuzga yaqin etnooykonimlar hozir ham mavjudligini A.Turobov¹⁴⁶ qayd etadi.

Yirik toponimist olim H.Hasanov O'rta Osiyoda joy nomlariga aylangan etnonimlar (xalq, qabila, urug') ning sakson ikkitasini qayd qiladi. Bu etnonimlarga qarab, shu nomli shaharda yoki qishloqlarda qadimda shunday qabilalar yashagan deb bemalol aytish mumkin¹⁴⁷, deydi.

¹⁴⁶Туробов А. Самарқанд вилояти этноойконимларининг таҳлили: филол.фанл. номз... диссер. –Т., 1999. – 130 б.

¹⁴⁷Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. –Т., 1965. –Б. 10.

Toponimika sohasining yetuk vakili T.Nafasovning "O'zbekiston toponomalarining izohli lug'ati" (1988) kitobida qayd qilingan "Aymoq" Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Bu joy nomi turkiy va mo'g'ul tillariga oid qadimiyligi so'z. Qirg'iz, uyg'ur, yoqut, oltoy, tuva tillarida aymoq–aymak–aymaq shakllarida uchraydi va xalq ma'nosini bildiradi. Aymaq–qabila, urug' ma'nolarida qo'llanadi. Evenk tilida ham urug', qabila ma'nosini bor. Aymoq o'zbek tilida mug'ullar istilosidan so'ng yuzaga kelgan bo'lib ko'chmanchi qabila (urug')larga nisbatan qo'llangan. Etnonim oykonimiga o'tib etnooykonim hosil bo'lgan¹⁴⁸.

Ko'rindiki, joy nomlarini tarixiy qiyosiy aspektida tahlil qilish faqat uni yaratgan xalq tarixi uchungina emas, balki tarixiy semasiologiya va fonetika uchun ham qimmatli material beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Oykonim nima?
2. Oykonim tushunchasiga ta'rif bering.
3. Oykonimlar qanday paydo bo'lishini sharhlang.
4. Oykonimlarning tasnifi izohlang.
5. Qishloq nima?
6. Aholi punkti nima?
7. Mahalla qanday tuzilma sanaladi?
8. Shahar va shaharcha o'zaro qanday farqlanadi.
9. Ovul qanday oykonim sanaladi?

12-mavzu: Antroponim va uning o'rganilish tarixi

Reja:

1. Antroponim haqida ma'lumot.
2. Antroponimlarning lingvistik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: til, tizim, atoqli ot, onomasionim, onomastika, antroponim, antroponimika, antroponimiya, ism, familiya, ota ismi, taxallus, laqab.

¹⁴⁸ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. –Т.: Ўқитувчи, 1988. –Б.10-11.

Antroponim haqida ma'lumot. Antroponim – kishining atoqli oti, ismi. Antroponimika – leksikologiya (onomastika) ning kishi otlari (ismlari) ni o'rganuvchi bir bo'limi. Shaxs nomlari ham boshqa leksik birliklar singari o'zining umumiyligi va xususiy belgilari bilan bir leksik sistemaga birlashadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron planda sistem-struktur va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish yaxshi natijalar beradi¹⁴⁹.

Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo'q. Ismlar jamiyatda muhim ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday shaklda bo'lmasin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Masalan, arabcha nomlar O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga islom dini bilan birga kirib keldi. Ismlar lingvostistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin.

Onomastikaning tarkibiy bir qismi bo'lgan "Antroponimika" kursi o'tilgach, talabalarda quyidagi bilim majmuyi hosil bo'ladi:

- 1) antroponimika o'z obyekti va tadqiq usuliga egaligi;
- 2) tilda nomlar ma'lum bir sistem qurilishga egaligi;
- 3) har bir nom ma'lum bir tarix mahsuli ekanligi;
- 4) har bir nom o'ziga xos talaffuz, yozilish, yasalish va tuzilish xususiyatlariga egaligi;
- 5) antroponimik indikatorlar mavjudligi;
- 6) antroponimlar regional xususiyatga ega ekanligi;
- 7) antroponimlar ham boshqa leksik birliklar singari uslubiy ahamiyat kasb eta olishi va h.k.

¹⁴⁹ Зинин С. И., Введение в русскую антропонимию. –Т.: Наука, 1972. –С.5.

O'zbek antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolar ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. O'zbek tarixiy antroponimiyasining barcha kategoriya va komponentlarini – kishi ismlarini, laqablar hamda taxalluslarni o'tmishda o'zbeklar uchun rusum bo'lgan arabcha, forscha shakllarini har tomonlama o'rganish.
2. Mifonim va teonimlarni to'la o'rganib chiqish.
3. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish. Masalan, Bobur asarlarida antroponimlar kabi.
4. Antroponimlarning imlosi masalasi
5. Nomlarning izohli, orfografik, etimologik lug'atlarini tuzish va h.k.

Antroponimlarning lingvistik xususiyatlari. Ismlar o'z obyekti haqida ma'lum bir axborotlarni berishi mumkin. Prof. A.V.Superanskaya ushbu axborotlarning uch tipini qayd qilib o'tadi: 1) lisoniy; 2) nutqiy; 3) qomusiy¹⁵⁰.

Til birligi sifatida ular shaxslarni atashga, individlarni bir-biridan ajratishga xizmat qiladi. Nutqiy informatsiyada esa so'zlovchining shu ismga munosabati ifodalanadi. Masalan, "Gitler nomini eshitsam ajinam qo'zg'aydi". Bu gapda so'zlovchi Gitler shaxsini aniq tasavvur qilmasa ham, uning nomiga nisbatan salbiy munosabat bildirganini sezish qiyin emas. So'zlovchining ismga bo'lgan munosabatini shu ismni turli xil talaffuz qilishdan ham bilish mumkin: *Abdusalom, Abdu-u-salom, Abdusa-lo-om* kabi. So'zlardagi ayrm unlilarni cho'zish yoki undoshlarni ikkilantirib talaffuz qilish orqali kuchli emotsiional-ta'sirchanlik hosil bo'ladi. Bu haqda tadqiqotchi G.Yaxshiyeva "O'zbek tilida fonografiya uslubiy vositalar" nomli nomzodlik dissertatsyasida keng ma'lumot bergen¹⁵¹. Qomusiy informatsiya esa antroponim asoslagan apellyativ ma'noga yaqinlashadi:

¹⁵⁰ Суперанская А.В. Общая имена собственного. –М.: Наука, 1973. –С.17.

¹⁵¹ Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол.фана.номз...диссер. –Т. 1997. –Б.23.

Gulnora, Gulandom, Guliruxsor ismlarida gulga xos bo'lgan noziklik, yoqimlilik semalari ancha bo'rtib turadi.

Ko'pchilik ismlarda milliylik xususiyati ham seziladi, jumladan, o'zbekcha ismlar familiya bilan ishlatilganda "o'g'li", "qizi" so'z shakllari bilan birga kelsa, ruscha familiyalar -ev, -eva, -ov, -ovna shakl yasovchilari bilan hosil qilinadi. Ammo keyingi davrda o'zbek antroponimlari ham ruscha model asosida yasaladigan bo'ldi. Antroponimlar til taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda o'sadi, rivojlanadi. Jamiyat hodislari bilan bog'liq holda yangi ismlar paydo bo'ladi, ayrimlari eskirib iste'moldan chiqadi. Biror ism kishilarga 50-100 yil davomida berilmasa, u eskirishi yoki unutilishi mumkin. Jumladan, ayrim tarixiy asarlarda biz uchun g'ayritabiyy eskirib qolgan ismlar uchrab turadi. Bu o'rinda xalq og'zaki ijodi namunalarida qo'llanilgan ismlar o'zining barqarorligi bilan ajralib turishini qayd qilmoq lozim. Chunki dostonlar og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga ko'chib yurganligi, doimiy aytilib va tinglanib kelinganligi uchun ularda eskirgan ismlar deyarli uchramaydi. Xuddi shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangi ismlar ham paydo bo'ldi. Jumladan, o'zbek tilida, sobiq sovet tuzumi bilan bog'liq qator nomlar paydo bo'lishi bunga misol bo'la oladi: *Oktyabr, Marks, Mels, Telman* va boshqalar.

Antroponimlar o'z xarakteriga ko'ra umumnutqqa yoki shevalarga xos bo'lishi mumkin. Ammo ko'pgina ismlarni ularning shakliga qarab adabiy yoki variant ekanligini belgilash qiyin. Buning uchun o'zbek tili dialektlarida uchrovchi faqat shu dialektga xos bo'lgan ismlarni bir joyga to'plash va ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi.

Antroponimlarning shevaviy xususiyati ularning talaffuzi shaklidan bilinib turadi. Jumladan, qipchoq shevalarida so'z boshida "y" – "j", "x" – "q", so'z o'rtasida "b" – "v", "q" – "g" tovushlari almashinib talaffuz qilinadi. Bu hodisa antroponimlarda to'liq o'z aksini topgan: Zevi (Zebi), To'g'izboy

(To'qqizboy), Jo'ldoshboy (Yo'ldoshboy) kabi. Kishi nomlari turli tematik guruhlarga ham birlasha oladi. Jumladan, diniy tushunchalar bilan bog'liq ismlar: (Xudoyberdi, Xidirali, Abdurahmon). Hayvon nomlari (Qo'chqor, Qo'zi, To'qli, Bo'ri). O'simliklar dunyosi bilan bog'liq nomlar: (Lola, Nargiz, Rayhon) va h.k.

Ism bir denotativ qatordagi nomlarni ifodalasa bir nomlilik hisoblanadi ("Oybek" – do'kon, Oybek – taxallus). Ismlar toponimlarga aylanganda bu hodisa yaqqol seziladi. Chog'ishtirig: *Usmon Yusupov* – kishi ismi va familiyasi; *Usmon Yusupov* – tuman nomi, *Isroil* – kishi ismi, *Isroil* – mamlakat nomi. Bu so'zlar turli maydon va podsistemaga mansubdir. Masalan, ikkita Marhamat, beshta Robiya shaxs ismlari bir-biri bilan omonimlik tashkil qila olmaydi. Chunki bular lingvistik faktor sanalmaydi. Ammo Andijon viloyatidagi Marhamat tumani va talaba nomi bo'lgan Marhamat o'zaro omonim hisoblanadi. Chunki bularning designantlari (belgilari) boshqa-boshqa maydonlarga aloqadordir. Agar atoqli ot turli leksik maydonlarga aloqador bo'lsa, bular omonimdir. Omonimlik har xil leksik maydonlarga xos faktorlardir¹⁵². Antroponomislarda polisemiya hodisasi uchramaydi. Ammo antroponomislarda polionimiya (atama A.V.Superanskayaniki) hodisasi anchagina uchraydi. Bunga "Alpomish" dostonidagi Alpomish va Hakimboy nomlari misol bo'ladi. Xuddi shuningdek, ismlar turli millat vakillari nutqida turli variantlarda ishlatali mumkin: Ibn Sino – Avetsena, Aristotel – Arastu kabi.

Antroponomilar o'ziga xos yasalish va tuzilish strukturasiga ega. Ma'lumki, atoqli va turdosh ot bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Tilla, ayniqcha, nutqda ularning biri o'rnida ikkinchisining qo'llanilishi kabi hodislara atoqli otlar tarkibining kengayib borishida muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, turdosh

¹⁵² Баскаков Н.А, Содиқов А.С, Абдуазизов А. А. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 90.

leksemalar antroponimlarga aylangach, ularda qator o'zgarishlar yuz beradi, jumladan, ular kategoriya jihatidan o'zgaradi (boshqa leksik-grammatik gruppaga o'tadi), semantik jihatdan ham o'zgarish (ma'no maxsuslanishi)ga uchraydi. Leksema antroponimlarga aylangach, uning asosiy vazifasi ma'lum shaxsni xuddi shunday boshqa shaxslardan farqlashdan iborat bo'ladi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyatlari ham o'zgaradi. Shuning uchun antroponimlar yasalishida ham maxsus tomonlar mavjud. Bu, ayniqsa, antroponimlar kompozitsiya usulida hosil bo'lishida yaqqol ko'rindi. Jumladan, o'zbek tilida otning kichraytirish, erkalash shakllari va boshqa yordamchi unsurlar ham turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishda keng qo'llanadi: Otabek, Bekjon, Qizlarxon kabi. Bu hodisa professor A.Muxtorovning "Atoqli otlarning turdosh ot asosida hosil bo'lishi" maqolasida keng tahlil qilingan. Shu o'rinda muallifning quyidagi fikrini keltirish joizdir: "O'zbek tilida muannas (jenskiy rod) shaklini hosil qiluvchi – "a" affiksini qo'shish orqali juda ko'p atoqli otlar ham yuzaga kelgan: Nozim tartibga soluvchi shaxs, Nozima – ism; sohib – egalik qiluvchi, Sohiba – ism; muhib – sevishgan, Muhiba – ism.

Hozirgi o'zbek tilida bu xildagi atoqli otlarning miqdori va qo'llanish darajasi kundan–kunga ko'payib bormoqda: *Erkina*, *Mavsuma*, *Gulyora*, *Yorqina*, *Dilso'za*¹⁵³. Bundan tashqari, antroponimlarning komponent-sistem, funksional-struktur tahlili shuni ko'rsatadiki, "Sulton", "Qora", "Eson" kabi onimlar mustaqil antroponim holatida ham, ikki komponentli qo'shma antoroponimlarning tarkibiy qismi holatida ham kelishi mumkin. Ular shaxs nomlarini yasash jarayonida qo'shma ot oxirida ham, boshida ham kela oladi. *Sultonbek*, *Qoraboy*, *Esonqul*, *Beksulton*, *Boyqaro* va h.k.

¹⁵³ Мухторов А. Атоқли отларнинг турдош от асосида ҳосил бўлиши//Ўзбек тили грамматик қурилиши ва стилистикаси масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –Самарқанд, 1996. –Б.16-21.

O'zbek tilida antroponimlar o'z tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: antropokomponentli va antroformantli. Antropokomponentli qo'shma ismlarda har ikkala komponent ham so'z shaklida bo'ladi: Sultonbek, Bodomgul, Kunbotir, Gulbadan kabi. Antropoformantli ismlar mustaqil so'z va qo'shimchadan iborat bo'ladi: Topildi, Turdi, Utagan kabi.

Qo'shma antroponimlarni hosil qilishda ishtirok qiladigan ayrim leksemalar o'z xarakteriga ko'ra erkak va ayol ismlarining yasalishiga ko'ra farqlanadi. Chog'ishtiring: *Teshaboy, Tursunboy, Teshay, Tursunoy*.

O'zbek tilida antroponimlarning yasalishi va tuzilishi xususiyatlarini atroflicha va to'la o'rghanish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Kishi ismlari nutq uslublariga ko'ra ham farqlanib ishlatiladi. Bu farq rasmiy va so'zlashuv nutq uslublarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Rasmiy uslubda ism, ota ismi va familiya to'liq ishlatilsa, so'zlashuv nutqida ismlarning noto'liq shakllari ham vujudga keladi: Shohnazar ismini Shoh, Mohira ismini Mohi deb yuritish bunga misol bo'la oladi. Ismlarga xos funksional-uslubiy xususiyatlarni o'rghanish davr talabi hisoblanadi.

Antroponimlar oddiygina so'z emas, balki o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan leksik birliklar hisoblanadi. Antroponimlar xalq tili, madaniyati va ma'naviyatining eng qadimi, ko'hna merosi bo'lib, ularda xalqimizning o'tmish tarixi, tili, etnografiyasi, ajdodlarimizning turmushi, diniy-falsafiy qarashlari, e'tiqodi, orzu-armonlari aks ettirilgandir.

Taniqli tilshunos olim V.N.Nikonov ta'kidlaganidek: "Bir-biridan ajralmas, amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir"¹⁵⁴. Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o'rghanish qadimi tarixga ega. Yuz yillar davomida unga bag'ishlab minglab asarlar yozildi.

¹⁵⁴ Никонов В.А. Имя и общество. –М.: Наука, 1974. –С. 259.

Natijada, kishi ismlarini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bir sohasi antroponimiya paydo bo'ldi. Bu ilm xuddi toponimika, etnonimika, zoonimika, kosmonimika singari onomastikaning tarkibiy bir qismini tashkil qiladi.

Keyingi yillarda onomastika masalalarini o'rganishga qiziqish butun jahonda kuchayib ketdi. Yuzlab alohida kitoblar nashr qilindi, ko'pgina xalqaro onomastik konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, onomastik konferentsiyalar Ulyanovsk (1967), Gorkiy (1969), Saransk (1973), Penza (1974), Samarqand (1969), Buxoro (1974), Xiva (1991) va boshqa shaharlarda bo'lib o'tdi. Onomastika masalalari bilan butun jahon olimlari ham qiziqadi. Bunga 1972-yilda Sofiyada o'tkazilgan xalqaro onomastik konferensiya materiallari yaqqol misol bo'la oladi.

Dunyo xalqlari tilshunosligida antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning atoqli ot sifatida atash tabiat, lingvomadaniy, nominatsion-motivatsion asoslari, lingvistik va ekstralinguistik omillarini o'rganishga qiziqish ustuvor. Bu borada M.E.Rut, A.V.Superanskaya, N.I.Tolstoy, G.R.Aliyev, N.A.Baskakov, G.F.Blagova, A.G.Gafurov, T.J.Januzakov, V.U.Maxpirov, V.A.Nikonov, G.F.Sattarov, A.G.Shayxulov, G.R.Galiullina, O.V.Naumova maqola va dissertatsiyalari bevosita shu masalalarga bag'ishlangani bilan e'tiborni tortadi¹⁵⁵.

¹⁵⁵ Рут М.Э. Антропонимы: размышления о семантике // Изд. Урал. гос. ун-та. – 2001 – №20 [Сер.] Гуманитарные науки. Вып. 4. – С.59-64; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В.Суперанская. – М.: Наука, 1973. – 365 с.; Толстой Н.И. Имя в контексте народной культуры / Н.И.Толстой // Язык о языке: Сб. статей. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С.101-111; Алиев Г.Р. Лингвистические и экстралингвистические факторы в антропонимии (на материале тюркских языков: азербайджанского, узбекского, казахского, киргизского, татарского и башкирского): Автореф. дис. ... докт. филол. наук / Г.Р.Алиев. – Алма-Ата, 1989. – 48 с.; Баскаков Н.А. Элемент GUL «роза, цветок» в составе каракалпакских имен / Н.А.Баскаков // Ономастика и норма. – М.: Наука, 1976. – С.138-143; Благова Г.Ф. Антропонимическая система как проекция космологических и социальных представлений пратюрков / Г.Ф.Благова // Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка. – М.: Наука, 2006. – С.660-754; Гафуров А.Г. Имя и история /А.Г.Гафуров. – М.: Наука, 1987. – 220 с.; Жанузаков Т.Ж. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук / Т.Ж.Жанузаков. – Алма-Ата, 1969. – 28 с.; Махпиров В.У. Имена далеких предков / В.У.Махпиров. – Алматы: Ин-т востоковедения МН-АН РК, 1997. – 299 с.; Никонов В.А. Женские имена в России XVIII века / В.А.Никонов // Этнография имен. – М.: Наука, 1971. – С.120-141;

Rus xalq lirik qo'shiqlaridagi antroponimlar R.V.Golovina tadqiqtida maxsus o'rganilgan¹⁵⁶.

Nomlari zikr etilgan olimlar rus antroponimikasi ilmini shakllantirdilar va rivojlantirdilar.

O'zbek tilshunosligida antroponimika masalalarini o'rganish, ularni ilmiy tadqiq qilish ham o'z tarixiga ega. Bu sohada S.Ibrohimov, E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, A.Muxtorov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, G'.Sattorov va boshqalar qator maqola va monografiyalar e'lon qildilar. Bu o'rinda biz ularda olg'a surilgan ayrim fikrlar haqida to'xtalib o'tamiz.

O'zbek antroponimlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga qiziqish, asosan, 1960-yillarda yuzaga keldi. Dastlab, D.Abdurahmonovning "Nom qo'yish" maqolasi nashr qilindi¹⁵⁷. So'ngra prof. F.Abdullayev Xorazm shevalarida ismlarning qisqarish xususiyatlariga doir qimmatli materiallarini e'lon qildi va uni ilmiy asosladi¹⁵⁸. M.Shamsiyeva ismlarni o'zbek tilidagi ot kategoriyasining leksik-semantik gruppalaridan biri sifatida o'rgandi¹⁵⁹. Mana shu davrda A. Ishayev "Mang'it shevasidagi laqablarga doir", S.Ibrohimov va N.Mamatovlarning "Ism va familiyalarning imlosiga oid", H.Bektemirovning "Nomlarning o'rganish tarixidan" kabi qator maqolalari yuzaga keldi.

Никонов В.А. Имя и общество / В.А. Никонов. – М.: Наука, 1974. – 278 с.; Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы / Г.Ф.Саттаров. – Казан: Татар кит. нэшр., 1990. – 276 б.; Саттаров Г.Ф. Татарстан АССРның антропотопонимнары / Г.Ф.Саттаров. – Казан: КДУ нэшр. 1973. – 297 б.; Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения: Учеб. пособие / А.Г.Шайхулов. – Уфа: Изд-во Баш. ГУ, 1983. – 72 с.; Кульдеева Г.И. Антропонимическая система современного казахского языка / Г.И.Кульдеева.– Казань: Изд-во «ДАС», 2001. – 239 с. 4 Галиуллина Г.Р. Татарская антропонимия в лингвокультурологическом аспекте: Автореф. док-р филол. наук. – Казань – 2009. – 44 с.; Наумова О.В. Антропонимическая система тамбовской области (на материале деловой письменности XVIII-XIX вв.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004. – 24 с.

¹⁵⁶ Головина Р. В. Антропонимы в русской народной лирической песне: Авто-реф. дис. канд. филол. наук. Орел, 2001. – 17 с.

¹⁵⁷ Абдурахмонов Д.А. Ном қўйиш//Фан ва турмуш. I960. 6-сон. –Б.36-37.

¹⁵⁸ Абдуллаев Ф. Киши отларининг қисқариш усуллари //Ўзбек тили ва адабиёти. -1980. 3-сон. –Б.3-7.

¹⁵⁹ Шамсиева М. Кишиларга атаб қўйилган номлар// Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. -Т., 1962. 4-китоб. –Б. 456-463.

O'zbek antroponimlari 1962–1965-yillarda maxsus ilmiy tekshirish ishining obyekti qilib olindi va E.Begmatov 1965-yilda "O'zbek tili antroponimikasi"¹⁶⁰ mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qildi.

Bu ishda o'zbek antroponimlari (ismlar, familiyalar, ota ismlar, laqablar, taxalluslar)ning lingvistik va ekstralinigvistik xususiyatlari birinchi marta atroficha tahlil qilingan. E.Begmatov o'zbek ismlarining leksik–semantik xususiyatlari, onomastik yasalmalar problemalari, ismlar etnografiyasi, o'zbekcha familiya va ota ismlar tarixi kabi ko'pgina o'zbek antroponimlarining o'zbekcha va ruscha yozilishi masalalari bilan shug'ullandi¹⁶¹.

Ayniqsa, E.Begmatov boshchiligidagi yozilgan "O'zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari"¹⁶² nomli maqolada hozirgi kunda o'zbek tili antroponimiyasi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar oldiga aniq vazifalar belgilandi. Jumladan, unda o'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog'liq quyidagi masalalar qo'yiladi:

1. O'zbek tarixiy antroponimiyasining barcha kategoriysi va komponentlarini – kishi ismlari, laqablar, taxalluslar o'tmishda o'zbeklar uchun ham rasm bo'lgan nomlarning arabcha, ba'zi forscha-tojikcha shakllarini har tomonlama o'rghanish muhimdir.

2. Bevosita antroponimiya majmuyiga kirmasa ham, ammo odam, inson shaxsini anglatuvchi, u bilan bog'liq tasavvurni ifoda etuvchi ba'zi xayoliy, afsonaviyo, majoziy, to'qima ism va laqablarni tadqiq etish.

3. O'zbek badiiy adabiyoti tilida uchraydigan inson obrazining nomlarini tadqiq etish. Ushbu maqolada qo'yilgan har

¹⁶⁰ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол. фанлари номзоди...дисс. –Т., 1965. –480 б.

¹⁶¹ Бегматов Э. Кипи номларининг маъноларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, -1992. 2-сон. –Б.5; Ономастик сўз ясаш масалаларига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 3-сон; Номлар ва одамлар. –Т.: Фан, 1966. – 65 б.; Ўзбек исмлари имлоси. –Т.: Фан, 1972. – 308 б.

¹⁶² Бегматов Э, Ҳусанов Н, Ёқубов Ш, Бокиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари //Ўзбек тили ва адабиёти. -1992, 5-сон. –Б.21-28.

bir punktdagi vazifa alohida bir todqiqot uchun yo'riq bo'la oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

E.Begmatov tomonidan nashr qilingan "Ism chiroyi" kitobida o'zbek ismlari fondining tarkibiy qismlaridan biri – diniy ma'noli, asli arabcha bo'lgan nomlarning etimologiyasi va ma'nosi tahlil qilingan, ular bir joyga jamlanib lug'at tarzida berilgan. Muallif yozadi: "Xullas, farzandlarimizning ismlari to'g'ri tanlanishi, shuningdek, to'g'ri yozilishi ham kerak. Ism chiroyi faqatgina nomning mazmunida emas, balki uning to'g'ri shaklida hamdir. Mazmuni teran va go'zal, shaklan esa to'g'ri va ko'rkmam ism chiroyli ismdir. To'g'ri yozilgan, talaffuzi oson va qulay ism-chiroyli ism"¹⁶³. Darhaqiqat, kelajagimiz – bolalarimiz o'zlarining chiroyli ismlari bilan doimo g'ururlanib yursinlar.

O'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyot davrida o'zbek antroponimlar sistemasini monografik tarzdi o'rgangan olim G'.Sattorovdir. U o'zining "O'zbek ismlarining turkiy qatlami" nomli nomzodlik dissertatsiyasida turkiy, jumladan, o'zbek antroponimlarining tarixi masalalarini tahlil qiladi. Muallif o'zbek antroponimlarining qadimiy namunalari ikki manbada saqlanib qolganligini qayd etadi:

- 1) tarixiy yozma obidalar tilida;
- 2) hozirgi davr antroponimik fondda¹⁶⁴.

Muallifning ismlardagi nominativ, ya'ni ismning atoqli ot funksiyasiga o'tish jarayonida orttirgan ma'nosi, ya'ni nomning ko'chma majoziy, ramziy ma'nosi haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Umuman olganda, o'zbek antroponimlarini monografik planda tahlil qilgan E.Begmatov va G'.Sattorovlarning ilmiy tadqiqotlari nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlangan. Biz ishimizda ulardan o'z o'rnida ijodiy foydalandik.

¹⁶³ Бегматов Э. Ислам чирои. –Т.: Фан, 1994. –Б.88.

¹⁶⁴ Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанл. номз... диссер.автореф. –Т., 1990. –23 б.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili onomastikasining dolzarb muammolari 1969-yilda Samarqandda, 1974-yilda esa Buxoro shahrida o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda maxsus muhokama qilindi. Keyingi paytlarda o'zbek antroponimiyasini o'rganishga qiziqish ancha ortdi. Natijada, antroponimiya tadqiqotlarining mavzu doirasi ancha kengaydi. Jumladan, hozirgi o'zbek antroponimlarining uslubiy xususiyatlari, ya'ni onomastik uslubiyat o'zbek folklori onomastikasi masalalari ham alohida o'rganila boshlandi.

O'zbek antroponimik sistemasining tarkibiy qismlaridan biri laqab va taxalluslardir. O'zbek tarixiy yozma manbalarida, shuningdek, o'zbek klassik adabiyotida taxalluslar, laqablar, adabiy taxalluslarning boy materiallari mavjud. Bu material shu kunga qadar maxsus to'plangan va tadqiq qilingan emas. E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimyasi" dissertatsion ishida taxalluslarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus bo'lim mavjud. Unda taxalluslarni atash va uslubiy vazifasi, o'zbekcha taxalluslarning tarixiy tasnifi va tematik uslubiy guruhlari haqida fikr yuritiladi.

O'zbek yozuvchilarining adabiy taxalluslarini to'plash va izohlash ishiga B.Qorayev (Oltoy) sezilarli hissa qo'shdi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi taxalluslarning atash va uslubiy xususiyatlari yuzasidan Yo.Isoqov¹⁶⁵, ayniqsa, T.Qorayev va R.Vohidovlar olib borgan kuzatishlar¹⁶⁶ qimmatlidir. Keyingi mualliflar adabiy taxalluslarning mohiyati, asoslari, taxalluslar bilan laqab, unvon, hodisalari o'rtasidagi munosabat va farqlarni o'rganishdi, ular o'zbek klassik adabiyotidagi bir qator mashhur adiblar taxalluslarining mohiyatini ochib berishdi.

Laqablarda nominativlik bilan bir qatorda ekspressivlik mavjudligi, ba'zi laqablar salbiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lsa,

¹⁶⁵ Исҳоқов Ё. Алишер Навоий ва Навоий таҳаллусли шоирлар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 1-сон. –Б.42-45.

¹⁶⁶ Кораев Т, Вохидов Р. Адабий таҳаллуслар. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –88 б.

ayrimlari ijobjiy bahoga ega bo'lishi va boshqa xususiyatlari E.Qilichevning maqolasida yaxshi tahlil qilib berilgan¹⁶⁷.

Keyingi davr o'zbek tilshunosligida atoqli otlarni, jumladan, antroponimlarni zamonaviy, ya'ni tilni tizim (sistema)iy usulda o'rghanish bo'yicha tadqiqotlar ham paydo bo'ldi¹⁶⁸. Binobarin, til va nutq hodisalarini farqlash, tilga tizim sifatida yondashish va antroponimlarni uning qonuniyatlari asosida o'rghanish, ularga xos xususiyatlarni ochib berishga yordam beradi. Jumladan, onomastikaning haligacha to'la hal qilinmagan muammolaridan biri atoqli otlarning ma'nosi masalasidir. Bu muammoga doir ba'zi mulohazalar tilshunoslik nazariyasiga bag'ishlangan ishlarda uchraydi. Ammo bu masala bo'yicha rus va o'zbek tilshunosligida ko'pgina fikrlar mavjud bo'lsa ham, hali aniq bir xulosaga kelingan emas.

S.Rahimov "Xorazm mintaqaviy antroponimiysi" mavzuyidagi nomzodlik ishida¹⁶⁹ ba'zi tarixiy va mifologik ismlarning ma'nosi va ism qo'yish urf-odatlariga oid fikrlari mavjud. Masalan, *Hubbi*, *Hubbiqu* (32), *O'g'uz*, *Kayumars*, *Jamshid*, *Zol*, *Kaykubod*, *Kaykovus*, *Rustam* va b. Shuningdek, islam dini ta'sirida udum bo'lgan arabcha, qadimiy yahudiycha ismlar, turli marosim va urf-odatlar bilan bog'liq nomlar (*Navro'z*, *Navro'zoy*, *Hayitboy*, *Hayitgul*, *Ro'ziboy*, *Ro'zixon*, *Ro'zigul* va b.) yil, oy, hafta, kun nomlariga nisbat berilgan ismlarning, asosini hayvon va qushlar nomi tashkil etuvchi nomlarning qo'yilish sabablari izohlangan.

E.Qilichev "O'zbek tili onomastikasi" nomli o'quv qo'llanmasida¹⁷⁰ atoqli otlarning turdosh otlardan farqi, ismlar

¹⁶⁷ Қиличев Э. Лақаблардаги номинативлик//Хива, 1991, 1-сон. -Б.25.

¹⁶⁸ Худойназаров И.И. Антропонимларнинг тил лугат тизимидағи ўрни уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: филол.фнал.номз.диссер. 1998. – 125 б.

¹⁶⁹ Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 133 б.

¹⁷⁰ Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. –Т., 2004. –69 б.

tarixi, antroponim, toponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni, ularning uslubiy xususiyatlari haqida atroflicha fikrlar yuritgan.

E.Jabborov "Shajarayi turk" asaridagi tarixiy va afsonaviy, xususan, O'g'uzxonning nabiralari ismlarini, asar muallifi Abdulg'oziy antroponimining lug'aviy, nominatsion-motivatsion asoslari, tuzilishi va leksik-semantik ma'nolarini salmoqli dalillar bilan tahlil qilgan¹⁷¹.

O'zbek tilshunosligida folklor asarlari, xususan, xalq dostonlari tili va badiiyati yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda dostonlarning lug'aviy, leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlari, qiyosiy-tarixiy tahlili, poetik ko'chim va barqaror uslubiy formulalari maxsus o'rganilar ekan¹⁷², yo'l-yo'lakay ayrim antroponimlar genezisi va leksik-semantik jihatlariga ham e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Jumladan, M.Saidov, Sh.Turdimov, T.Haydarov, S.Mirzayeva maqolalarida Go'ro'g'li nomi haqida ba'zi mulohazalar bildirib o'tilgan¹⁷³.

O'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish ishlarini boshlab bergan va unga munosib hissa qo'shgan tadqiqotchi N.Husanovdir. U "XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik ishini¹⁷⁴ himoya qildi. Ushbu tadqiqoti natijalari asosida "O'zbek antroponimlari tarixi" nomi bilan monografiya¹⁷⁵ nashr ettirdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Antroponim nima?

¹⁷¹ Жабборов Э. Абдулгозий асарида берилган антропонимлар этимологияси ҳақида // Ономастика (Илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 2014. 2-сон. – Б. 57-63.

¹⁷² Жуманазарова Гулжаҳон Умурзаковна. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил: Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – 76 б.

¹⁷³ Сайдов М. Халқ севган достончи – Тошкент, 1972. – Б.10-11; Турдимов Ш. "Гўрӯғли" номи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2000. – № 3. – Б. 62-65; Ҳайдаров Т. Гўрӯғли ва мифология синкетизми. – Тошкент, 1993. – Б.14-20; Мирзаева С. Гўрӯғли номи ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – № 3.

¹⁷⁴ Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидағи антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Т., 2000. –243 б.

¹⁷⁵ Ҳусанов Н.А. Ўзбек антропонимлари тарихи. –Т., 2014. –Б.105.

-
2. Antroponimika va antroponimiya atamalarining o'ziga xos jihatlarini sharhlang.
 3. Antroponimlarning o'rganilish tarixini bayon eting.
 4. Antroponim qanday turlarga ega?
 5. Ism nima?
 6. Ota ismi haqida ma'lumot bering.
 7. O'zbek nomlarining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
 8. O'zbekona nom qo'yish tushunchasiga sharh bering.

13-mavzu: Antropoleksema tushunchasi va antroponimning turlari

Reja:

1. Antropoleksema tushunchasi.
2. Atoqli otlar tizimi.
3. Antroponim turlari.

Tayanch tushunchalar: *til tizimi, sistema, atama, atoqli ot, umumiste'mol so'z, antroponim, antropoleksema, ism, laqab, familiya, ota ismi, laqabning ma'nosi.*

Antropoleksema tushunchasi. Har bir til o'zining ma'lum miqdordagi so'z boyligi, til birliklariga ega bo'ladi. Tildagi so'zlar yig'indisi o'sha tilning lug'at tarkibini, ya'ni so'z fondini tashkil etadi. Lug'at tarkibi o'z ichiga muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlarni qamraydi. Bular ma'lum bir tizimni tashkil etadi.


Til sistemalarning sistemasi hisoblanadi. Til birliklarining har biri alohida o'rganish obyekti sifatida olinsa, ular o'zlarining elementlik xususiyatlarini yo'qotib, yaxlit bir sistemaligini namoyon etadi. Sistemanı tashkil qiluvchi elementlarining har biri alohida bir sistema (mikrosistema) deb baholanishi mumkin.

Yuqoridagi savollarga javob berishdan avval sistemaning o'zi qanday hodisa ekanligi haqida tushuncha hosil qilish lozim.

Sistema – elementlarning shunday mustahkam birlashgan guruhiki, bu elementlar o'zi tashkil topgan sistemaning tarkibida «yo'qolib», bir butun holida namoyon bo'ladi. Har bir sistema


ko'plab bo'laklardan (albatta o'zaro uzviy aloqadorlikda) tashkil topgan butunlikdir. Hech bir sistema uni yuzaga keltirgan elementlar to'dasidan tashqarida yashay olmaydi. Shu o'rinda sistema va element munosabatlari bilan butun-bo'lak aloqadorligining bog'liqligini ham qayd qilish kerak.

Tildagi so'zlar hosil qiladigan tizimni diagrammada quyidagicha ifodalash mumkin:




Ko'rinib turibdiki, til lug'at fondi umumiste'mol so'zlar, atoqli otlar, atamalar kabi qator guruhga birlashgan kichik tizimlarning umumlashmasidan tashkil topgan.

Atoqli otlar tizimi. Til lug'at fondining bir qismi sanalgan atoqli otlar ham o'z navbatida turli kichik mikrotizimlarga ajraladi. Bu quyidagicha ifodalanishi mumkin:



Atoqli otlar guruhini maydonga keltirgan nomlarning har biri yana ichki tarkibiy guruhlarga ajraladi. Jumladan, atoqli otlarning antroponimlar guruhi quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'linadi:



Antroponim turlari. Yuqorida ko'rsatilgan antroponimlarni tashkil etuvchi guruhlarning har biri yana bir necha kichik ichki guruhlarga bo'linadi. Bular biror kishiga nom qo'yganda uning belgi-xususiyatida yoki tashqi olam taassurotiga bog'liq holda yuzaga keladi. Jumladan, antroponimlarning ism guruhiga kiruvchi birliklar quyidagi mavzu yo'nalishlariga ajraladi:

-
1. Tanadagi biror belgiga qarab nomlangan ismlar: *Xoljon, Norjon, Norboy, Ortiq, Qorajon* kabi.
 2. Ismda tug'ilish payti, davri, o'rni, holati kabi belgilaridan birining aks etishi: *Ramazon, Hayit, Juma, Navro'z, Yo'lchi, Yodgor* kabi.
 3. Hayvon nomlari bilan bog'liq ismlar: *Bo'ri, Arslon, Sher, Qo'chqor, Qo'zi* kabi.
 4. Qush nomlari bilan bog'liq ismlar: *Lochin, Burgut, Qaldirg'och* kabi.
 5. Etnonimlar bilan bog'liq ismlar: *Mingboy, Chig'atoy, O'zbek(xon)* kabi.
 6. Qarindoshlikni ifodalovchi ismlar: *Jiyangul, Tog'aboy, Bibigul, Bobo(qul)* kabi.
 7. Samoviy jismlar bilan bog'liq ismlar: *Yulduz, Sayyora, Zuhra, Mushtariy, Xurshid(a), Oftob* kabi.
 8. Joy bilan bog'liq ismlar: *Toshkanboy, Buxorboy, Osiyo* kabi.
 9. Diniy qarashlar bilan bog'liq ismlar: *Abdulla, Abdurahmon, Muhammad, Ali, Qutbiddin, Salohiddin* kabi.
 10. Turli orzu-istik, xohish, niyat bilan bog'liq ismlar: *Fozil, Rustam, Hakim, Bahodir* kabi.
 11. Daryo nomidan olingan ismlar: *Zarafshon, Sirdaryo* kabi.
 12. O'simlik nomi bilan bog'liq ismlar: *Lola, Nilufar, Nastarin, Binafsha* kabi.
 13. Mashhur tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq ismlar: *Islom, Alisher, Bobur* kabi.
 14. Turli qimmatbaho ma'dan va narsa nomi bilan bog'liq ismlar: *Gavhar, Durdon, Marjona, Marvarid, Kumushbibi, Oltinoy, Yoqutoy* kabi.
 15. Fasl, vaqt bilan bog'liq ismlar: *Bahora, Navbahor, Gulbahor* kabi.
 16. Tozalik, soflik tushunchalari bilan bog'liq ismlar: *Munavvara, Ravshan, Nuriya* kabi.
- Yuqorida sanalgan guruhlarning har biri o'z tarkibiga yanada kichik guruhlarni qamrab olishi mumkin. Masalan, sanalganlarning o'ninchи bandida qayd etilgan "Turli orzu-istik, xohish, niyat bilan bog'liq ismlar" quyidagilarga ajratiladi:

-
1. Bola yaxshi va munosib inson bo'lib ulg'ayishi orzu qilinadi: *Yaxshiboy, Yaxshimurod, A'loxon, Ma'qula*.
 2. Bola ulg'ayib yaxshi xulqli, axloqli inson bo'lishini istashadi: *Mo'min(toy), Qobil(jon)*.
 3. G'amxo'r, mehribon, olidianob odam bo'lishini xohlashadi: *Mehri(niso), Mehribon*.
 4. Farzand bosiq, vazmin, kamtarin inson bo'lishi orzu qilinadi: *Sokin(a), Kamtar*.
 5. Go'dak kuchli, baquvvat, qudratli, irodali bo'lib o'sishini orzu qilishadi: *Bardosh, Irodaxon, Azamat, Pahlavon, Polvon*.
 6. Hushyor, ziyrak, tadbirkor, epchil bo'lib ulg'ayishini xohlashadi: *Chaqqonboy, Jo'shqin, Ziyrakxon, Mohir(a), Chevar*.
 7. Jasur, mard, dovyurak yigit bo'lib ulg'ayishini orzu qilishadi: *Botir, Bahodir, Jasur(a), Toymas*.
 8. Adolatli, halol, odil inson bo'lib ulg'ayishi orzu qilinadi: *Odil(a), Adolat, Chinql, Chinyigit, Chinqora*.
 9. Keng ko'ngil, saxiy, saxovatli bo'lishligi ifodalaniladi: *Tanti(boy), Hotam(toy), Jumard, Javod*.
 10. Insonsevar bo'lishini istashadi: *Anis(a), Ulfat(xon), Munis(a), Do'st(murod)*.
 11. Komil, mukammal inson bo'lishi orzu qilinadi: *Mukammal, Muntazam, Komil(a)*.
 12. Odamlar hurmat, e'zoz qiladigan, qadrlaydigan inson bo'lishini xohlashadi: *Izzat, Izzatoy, Ikrom(a), Hurmatoy, E'zoz(a), E'tibor*.
 13. Taniqli, mashhur, shuhratli odam bo'lsin: *Buyuk(xon), Shavkat, Shuhrat, Mashhura, G'olib(a), Doston*.
 14. Aqlli, dono, donishmand inson bo'lib ulg'ayishi istaladi: *Aqlbek, Aqloy, Dono(xon)*.
 15. Bilimli, o'qimishli, ma'rifikatli inson bo'lib ulg'ayishi orzu qilinadi: *Olima, Adiba, Shoira, Fozil(a), Orif(a), Ma'rifikat*.
 16. O'z vatani, xalqi va zamonasiga munosib inson bo'lib etishsin deb niyat qilinadi: *Elsevar, Elyor, Elbek, Iftixor va boshqalar¹⁷⁶*.

¹⁷⁶ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси (изоҳли лугат) – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2007. – Б. 593-594.

Antroponimlar tizimida laqablar ham o'ziga xos o'rinni tutadi. Laqab so'zi arabcha bo'lib, "ikkinchi nom" ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilida laqab so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Biror xususiyatiga ko'ra, kishilarga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom. *Men amir odamlari qo'lidan qochib, yigirma besh yildan beri o'z joyimni o'zgartirib, "Xatirchilik" laqabi bilan yurmoqda edim. S.Ayniy, Qullar.*

2. esk. *aynan. taxallus*. – *Muhammad Aminxo'jani endi xalq Muqimi deb taniy boshladi. Seni ham xalqqa bir laqab bilan tanishtirishni istayman. Sening laqabing Mavlaviy bo'lsin!* – dedi ustoz. *S.Abdulla, Mavlono Muqimi*.

3. esk. *aynan.familiya*.

4. Hayvonlarga qo'yilgan nom¹⁷⁷.

Laqablarning antroponimlar tizimidagi o'rni quyidagicha tasvirlanishi mumkin:



¹⁷⁷ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. Иккичи жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2006, –Б. 492.

Laqablar turli mavzu yo'nalishiga ega bo'lishi mumkin:

1. Kishining belgisiga ko'ra: bo'yi – *uzun, naynov, pakana*; sochi bor-yo'qligi – *kal, tepakal*; oyog'i – *cho'loq, lang*; gapirishi – *manqa, soqov* kabilar.
2. Turli harakatlariga ko'ra – *laqama, telba, shovvoz* kabi.
3. Ko'rinishiga qarab – *Qori Ishkamba, Cho'tirxola, Qora amma, Hamdam forma* kabi.
4. Kasbiga ko'ra – *Botir tanbur, Nodir taksi, Ortiq million* kabi.
5. Xarakteriga ko'ra – *Juman sovuq, Botir qashqa, Akmal ig'vo* kabi.

Ko'rindiki, antroponimlar tizimi ulkan bir umumlashmani, butunlikni tashkil etadi. Bu holat til birliklarining tizimiy xarakterda ekanligidan, ularning faqatgina tizimda yashashi hamda mavjud bo'lishidan darak beradi. Bu holat til tizimining barcha yaruslarida kuzatiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Atoqli otlar tizimida ismlar qanday o'rinn tutadi?
2. Antropoleksema nima?
3. Kishi ismlari tushunchasiga sharh bering.
4. Atoqli otlar tizimiga nimalar kiradi?
5. Antroponimning qanday turlari mavjud?
6. Ismning paydo bo'lishi qanday jarayon hisoblanadi?
7. Laqablar nima asosda paydo bo'ladi?

14-mavzu: Antroponimlarda so'zlararo tizimiy munosabatlarning ifodalanishi

Reja:

1. So'zlararo tizimiy munosabatlar va antroponimlar.
2. Antroponimlardagi paradigmatik munosabatlar.
3. Antroponimlardagi sinonimiya (polionimiya).
4. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni.
5. Atoqli (antroponimik) va turdosh otlar orasidagi ma'noviy munosabatlar.

Tayanch tushunchalar: *paradigma, o'xshashlik, namuna, til birliklari, sistema, sintagmatik, qo'shnichilik munosabati, iyerarxik munosabat, pog'onali munosabati, polionimiya, ko'pnomlilik, apellyativ leksika, turdosh ot.*

So'zlararo tizimiylar munosabatlari va antroponimlar. Antroponimlar so'zmi? Bu savolni qo'yilishi bir jihatdan noo'rindek tuyuladi. Chunki antroponimlar barcha so'zlar singari egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi, gap bo'lagi vazifasida keladi. Boshqa so'zlar bilan nutqda ma'nodoshlik hosil qiladi. Chog'ishtiring: Alijon va bu yigit kabi. Demak, nutq jarayonida antroponimlar va apellyativ leksika teng qiymatli nutqiy so'zlardir.

Ammo antroponimlar ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan lisoniy leksemalarmi, – savoliga javob berish lozim. Bu savolga javob berishda tilshunoslar ikki guruhga bo'linadilar.

1. Atoqli otlarda ma'no yo'q (Mill, Brandel, Morozov)
2. Atoqli otlarda ma'no bor (Espersen, Nikonov, Superanskaya)

Biz bu savolga to'g'ri javob berish uchun so'nggi tadqiqotlarda lisoniy leksemaga berilgan ta'rifni keltiramiz: "Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiyl, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarini o'ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir"¹⁷⁸.

Leksemaga berilgan bu tamal toshlar bilan antroponimlarni o'lchab ko'ramiz.

1. Leksemaning tayyorligi – tayyor
2. Umumiyl belgisi – bu xususiyat mavjud emas. Chunki atoqli otlar yakka narsalarni umumiylidandan ajratib nomlaydi. Shu bois, "Alijon" o'nta shaxs uchun turli xil kishilarni atashga xizmat qiladi.

¹⁷⁸ Нематов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т., 1995. –Б. 37.

3. Majburiylik omili-bor ham, yo'q ham. Borligi antroponimlar ma'lum bir shaxsni ajratib nomlagach (Masalan, birovga Sanobar deb ism qo'yildimi), shu ism shu shaxs uchun (Sanobar uchun), u aloqador jamiyat uchun majburiydir. Shu shaxs (Sanobar) bilan aloqador bo'limgan kishilar uchun bu majburiy emas.

4. Shakl va mazmunning barqaror bog'lanish omili – yo'q. Faqat "Shaxs+erkak", "Shaxs+ayol" informativ qobiliyatga ega, xolos. Shakl va mazmun mutanosibligi yo'q (Botir ismli bola tabiatan qo'rkoq bo'lishi mumkin)

5. Voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantirish omili. Ya'ni tushuncha aks ettiradimi? – Yo'q. Ammo modal so'zlar singari nimanidir ifodalaydi. Ya'ni kishilarga qo'yilib, ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi.

6. Nutqda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira olish – Ha, biriktira oladi. Hatto o'ziga xos indikatorlarga ham ega.

Shunday qilib, antroponimlar leksemaning olti belgisidan ikktitasiga to'la, bir xususiyatiga yarim, uch talabiga esa javob bermaydi.

Demak, antroponimlarda leksemalik atigi qirq foizini tashkil qiladi.

Antroponimlar sistem-struktur, ya'ni semik tahlil qilinganda, umumlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semalarga ega. Umumlashtiruvchi sema – shaxslarni atash bo'lsa, farqlovchi semasiga – er va ayollarni atashi, milliy va xususiy semalar kiradi.

Umumlashtiruvchi va farqlovchi semalarga ega bo'lishi antroponimlarning til lug'at tarkibidan o'rin olishiga imkon beradi. Yuqorida qayd qilingan xususiyatlarni atoqli otlar o'zbek tili leksemalari tizimining qaysi bo'g'inidan o'rin oladi?

Tilga tizim (sistema) sifatida yondashish onomastik birlklarga xos xususiyatlarni aniq belgilashga ko'maklashadi.

Antroponimlardagi paradigmatic munosabatlar. So'zlararo tizimiylar munosabatlarga paradigmatic (o'xshashlik), sintagmatik

(qo'shnichilik), ierarxik (pog'onali) va boshqalar kiradi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda antroponimlarda pog'onaviylik va qo'shnichilik munosabatlari ko'rinnmaydi. Antroponimlardagi paradigmatic munosabat ularning erkak ismlari, ayol ismlari va neytral ismlar kabi uch guruhga ajralishida o'z aksini topadi. Boshqa lug'aviy paradigmaldan farqli o'laroq, antroponimlardagi paradigmalar shakl va mazmun birliklarining o'zgaligi bilan farqlanadi. Ya'ni umumijtimoiy mazmuniy farqqa ega emas. Barcha erkak nomlari, ayol nomlarida umumijtimoiy informatik qiymat bir xil: "shaxs+erkak", "shaxs+ayol". Bu ikki guruh ikkita ichki paradigmani hosil qiladi. Har bir guruh so'zlari uchinchi guruhga, ya'ni jins jihatidan farqlanmaydigan va odam leksemasining eng chekka qurshovini tashkil etadigan neytral nomlarga zid turadi.

Antroponimlar paradigmasining har uchala a'zosi ham ochiq bo'lib, ularning har biri yangi-yangi so'zlar, laqablar, taxalluslar bilan to'ldirilishi mumkin.

Har uchala nomlar o'z ichida alohida paradigmalarni tashkil etmaydi. Balki ular o'zaro variantlilik munosabatida turadi. Masalan, biz ko'rib turgan, ammo tanimagan ayolning ismi ayol nomlaridan istagani bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda antroponimlarga xos sinonimik (polionimik) munosabatlar haqida ham fikr yuritish foydali.

Antroponimlardagi sinonimiya (polionimiya). Nomlardagi sinonimiya boshqa lug'aviy birliklar sinonimiyasidan farq qiladi. Antroponimlardagi sinonimiya biror denotat tushunchasini ifodalashi bilan birlashmaydi, balki bir shaxsni ikki va undan ortiq so'z vositasi orqali ifodalashi bilan birlashadi. Shuning uchun bunday sinonimlik shartli hisoblanadi.

A.V.Superanskaya antroponimlardagi sinonimlikni polionimiya (ko'pnomlilik) atamasi bilan yuritishni maqbul ko'radi¹⁷⁹. Bu atama o'zini oqlaydi. Darhaqiqat, rus tilidagi Ivan, Vanya, Vanyusha, Mariya, Masha, Marusya, Mulya ismlari biror

¹⁷⁹ Суперанская А.В Структура имени собственного М.: 1966. -С. 44.

shaxsni atash bilan farqlanmay, faqat uslubiy bo'yog'i bilan o'zaro farqlanadi. Chog'ishtiring: *Muhiba, Muyba, Muhib, Baxtiyor, Baxti, Sanobar, Sanosh* kabi.

Tilimizda polionimiyaning quyidagi ko'rinishlari uchraydi.

1. Ma'lum bir davr, sharoit, milliy til xususiyatlari bilan paydo bo'lgan polionimlar: Tamaraxonim-Petrosyan

2. Bir shaxsning turli millat vakillari tomonidan har xil nomlanishi: Abu Ali Ibn Sino – Avitsenna, Aristotel – Arastu

3. Asar qahramonlariga nisbatan to'qima ismlar: Saida – Sinchalak, Alpomish – Hakimbek kabi

Shunday qilib, bir shaxsni turli nomlar bilan atash polionimiya bo'lib, ular o'zaro funksional-uslubiy bo'yog'i bilan farqlanib qo'llanadi.

Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni. Nom tilning lug'at boyligidan o'rin oladimi, yo'qmi? Nomlar o'zbek tili leksikasining umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan keng iste'mol so'zlari sirasida o'z o'rniga ega. Ular alohida shaxsning xususiy leksikasida katta ahamiyatga egadir. Chunki antroponimlar o'zbek lisoniy tizimida "odam" leksemasining alohida bir qurshovini tashkil etadi.

Erkak nomlari qurshovi ham, ayol nomlari ham, neytral nomlar qurshovi ham bo'sh, muayyan so'zlar bilan to'ldirilmagan. Shu bois har bir shaxs bu qurshovni o'z ijtimoiy amaliyoti asosida to'ldiradi va o'zining faol so'zlariga aylantiradi. Shuning uchun ham "odam", "erkak", "ayol" leksemalarining eng chekka qurshovini tashkil etadigan antroponimlar lisoniy-lug'aviy tizimga kira olmaydi, chunki qurshovda nomlar uchun faqat imkoniyat bor, nomlarning o'zi bu qurshovdan o'rin olgan emas. Ammo har bir shaxsning antroponimlar tizimi va antroponimik boyligi mavjud. Bu xoslik shunchalik xususiyki, bir kishi leksikasidagi Sanobar bilan ikkinchi kishi leksikasidagi Sanobar tamoman boshqa-boshqa ma'no va mohiyatga ega bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, antroponimlarning til lug’at tizimida umuman o’rni bor.

Atoqli (antroponimik) va turdosh otlar orasidagi ma’noviy munosabatlar. O’zbek tilshunosligida atoqli otlarning ma’nosiga oid muammolar, ayniqsa, atoqli ot bilan unga asos bo’lgan turdosh so’z (apellyativ)ning ma’nosini farqlash, chegaralash masalasi yetarli tadqiq qilingan emas. Shunga qaramay, turdosh va atoqli ot ma’nolari haqida mulohazalar aytish mumkin.

1. Atoqli ot turdosh otlardan hosil bo’ladi, ammo ular ma’nosi bilan assotsiativ aloqani yo’qotib, narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi.

2. Turdosh ot bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinadi, onimlar tarjima qilinmaydi.

3. Turdosh otlar ongda doimiy turadi, onimlar mexanik ravishda esda saqlanadi, tezda esdan chiqadi.

4. Turdosh ot grammatik jihatdan birlik va ko’plikda qo’llanadi. Onimlarda bu xususiyat yo’q.

5. Turdosh otlar umumiylikni anglatsa, atoqli otlar xususiy bo’ladi: o’quvchi – sinfdagi har bir yosh; Tolibjon shulardan biri.

Atoqli va turdosh otlar orasidagi ma’noviy munosabatlar uch usulda tadqiq qilinadi:

1. *Tarixiy etimologik tadqiq.* Bu yo’nalish antroponim qaysi so’zdan kelib chiqqanligi, uning lug’aviy etimologik ma’nosini sharhlash bilan shug’ullanadi. Masalan: Temur antroponimi metall turini anglatuvchi “temir” turdosh otining eskirgan fonetik variantidan kelib chiqqan. Muhabbat – arabcha hubba – ishq, sevgi ma’nosiga ega. Lingvistik jihatdan antroponimik ma’no hamda etimologik ma’no farqlanadi.

2. *Tarixiy etnografik yoki etimologik tadqiq.* Bu yo’nalishda antroponimning etnografik – xalq urf-odatlari bilan bog’liq masalalari o’rganiladi. Chunonchi, Temur, Tosh, Bolta kabi ismlarning qo’yilishi bolaning joni qattiq bo’lsin kabi niyatlar bilan yuzaga kelgan.

3. *Tizimiy o'rganish*. Bu yo'nalishda antroponim va apellyativ leksikaning ma'noviy tuzilishi, informatsiya qobiliyati, uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Jumladan, apellyativ leksika sifatida "temir" ma'dan, qattiq ma'noviy qurilishga ega. Xo'sh, antroponim sifatida Temur so'zida o'ziga xos ma'no bormi? Bor, chunonchi, Temir antroponimini eshitgach, bizning ongimizda "shaxs + erkak", "ana bu" kabi ma'nolar gavdalanadi. Shu bilan bir qatorda antroponimlarning informativ ma'noviy qobiliyatini hech qachon apellyativ leksika – turdosh otlar ma'noviy xususiyati bilan qiyoslash, bog'lash mumkin emas. Chog'ishtiring: Botir, qo'rmas, qahramon nomlari bilan yuritiluvchi shaxslar bunday xususiyatga ega bo'lishi shart emas. Kishilarga bunday ism qo'yishda apellyativ leksika ifodalagan ma'no strukturasida biror bir semaga asoslanish mumkin: Po'latdagi qattiqlik semasi asosida Po'lat ismi hosil qilingan. Apellyativdagi muhim bir belgi-sema insonga ko'chirilgan. Chog'ishtiring, *Qilich, Qaldirg'och, Arslon*.

Demak, ism ma'nolari bilan so'z ma'nolari bir xil sharhlanmaydi. Ism ma'nosini u hosil bo'lgan apellyativ ma'nosidan tamoman farq qiladi.

Bu o'rinda atoqli otlarning ikki ko'rinishi – antroponimlar va toponimlarni qiyoslab o'rganish ham foydadan xoli emas. Chunki toponimlar ham, antroponimlar ham apellyativ leksikaga aloqadorligi jihatidan mushtarak xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, narsa va hodisalarini chuqur o'rganish uni tasnif etishdan, ya'ni uning boshqa narsa va hodisalar sistemasida tutgan o'rnini, ular bilan o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdan boshlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, atoqli otlarning ikki ko'rinishi antroponim va toponimlar ifodalagan ma'noni o'zaro bir-biriga qiyoslash antroponimlarning til lug'at tarkibidagi o'rnini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Biz bu o'rinda faqat toponimlarga xos ma'no munosabatlarini keltiramiz.

Toponimlar ma'lum obyektni ifodalovchi adres, uni ko'rsatuvchi element va ayni vaqtda shu obyekt haqida ma'lumot beruvchi birlik sanaladi. Antroponimlar o'zi atagan shaxslar haqida (jins tushunchasidan tashqari) ma'lumot bermaydi. Toponim obyektni ma'lum bir sistemaga olib kiradi va uni bir xil hodisalar ichida farqlaydi. Antroponimlar ham xuddi shu vazifani bajaradi. So'z toponomiga aylangach, obyektning yagona xarakterlovchi tipik belgisiga aylanadi. Antroponimlarda bunday xususiyat yo'q. Toponimlar o'zi ifodalayotgan obyektning eng muhim belgisiga, xarakterli xususiyatiga tayanadi. Bunday xususiyat barcha antroponimlarga xos emas. Balki uning bir ko'rinishi – laqablarga xos bo'lishi mumkin.

Toponimlar obyektning shakli, xarakteri, katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, rang-tusi, qattiq-yumshoqligi kabilarni ko'rsatadi. Antroponimlar bunday xususiyatga ega emas.

Xulosa qilganda, toponimlarda pozitivlik, geografik reallik aks etadi. Bulardag'i informatsion potensiallik kuchli bo'ladi.

Toponimlar til tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, uni alohida o'rganish lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. So'zlararo tizimiylar munosabatlari va antroponimlarning qanday aloqasi bor?
2. Antroponimlardagi paradigmatic munosabatlarni sharhlang.
3. Antroponimlardagi sinonimiya (polionimiya) qanday hodisa?
4. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rmini izohlang.
5. Atoqli (antroponimik) va turdosh otlar orasidagi ma'noviy munosabatlarni sharhlang.
6. Toponimlarning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini sharhlab bering.

15-mavzu: O'zbek tili onomastik leksikasida "bek" apellyativli birliklar

Reja:

1. Apellyativ birlik tushunchasi.
2. "Bek" apellyativi haqida.

Tayanch tushunchalar: *nom, toponim, apellyativ, turdosh ot, atoqli ot, leksika, leksema, affiks, affiksoid, qavm, urug', fitonim.*

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlarini tasniflash borasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, so'z turkumlaridagi qo'shma so'zlar to'g'risida qator ilmiy ishlar nashr etilgan¹⁸⁰.

Lekin onomastik leksikada qator qo'shma so'zlarning xususiyatlari, ularning o'zbek tili leksikasida tutgan o'rni kabi masalalarni yetarli darajada tasniflangan deb bo'lmaydi.

O'zbek tili onomastik leksikasida «bek», «bonu», «begim», «jon», «xon», «xona», «obod» va shu kabi qator komponentlar keng qo'llaniladi. Sanalganlardan «bek» birligi onomastik leksikada uzoq davrlardan beri ishlatib kelinadi. Aslida «bek» so'zi «turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxs» ma'nosida qo'llangan.

«Bek» komponenti turli so'zlarda turlicha mavqega egaligini ta'kidlash lozim. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qo'shma so'zning bir elementi: *Nodirbek – Nodir, Alibek – Ali, Hamzabek – Hamza* kabilar;

- so'z tarkibidagi affiksoid (bunda so'zlar «bek» qismisiz ishlatilmaydi): *Oybek – Oy emas, Cho'lbek – Cho'l emas, Bekjon – Jon emas* kabilar;

- so'zdagi o'ringa ko'ra: a) birinchi komponent: *Bekmurod, Bekmirzo, Bekqo'zi, Bekbotir*; b) ikkinchi komponent: *To'g'onbek, O'rmonbek, Teshabek, Jo'rabek* va h.k.

O'zbek tilida «bek» komponentli onomastik ko'shma so'zlar boshqa qo'shma so'zlar kabi kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi deyilganda, umuman qo'shma so'zlar, jumladan, "bek" komponentli onomastik qo'shma so'zlar ham tushuniladi. Lekin qo'shma so'zlarning hammasi

¹⁸⁰ Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. –Т., 1963; Мадалиев Б. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. –Т., 1966; Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўз. –Т., 1984.

kompozitsiya usuli bilan hosil qilingan emas. Jumladan, leksik-sintaktik usul bilan ham qo'shma so'zlar yasaladi¹⁸¹.

«Bek» so'zi ko'pincha ot (Bektosh, Bekbola, Bekmirzo, Bekmurod), fe'l (Bekbos, Bekkel, Bekberdi, Bektursun, Bekbo'lsin) va sifat so'z turkumi so'zlariga (Bekqora, Bekbotir, Ulug'bek) qo'shilib kelishini ta'kidlash lozim.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi beka, xon, jon, niso, noz, oy, poshsho, sulton kabi so'zlar bilan bir qatorda «bek» so'zini qo'shish bilan ham ayollar ismini bildiruvchi qo'shma so'zlar yasaladi: *Beknisa, Bekxon, Bekbibi, Beknor, Bekposhsho, Beksulton, Beknoz, Bekoy* va boshqalar. Aslida xotin-qizlarga nisbatan «beka» (bek avlodiga mansub ayol) so'zi qo'llaniladi. Bunda har xil tushunchani bildiradigan so'zlarga «beka» qo'shilib ayollar nomini bildiradigan qo'shma so'zlar yasaladi. Lekin bunday qo'shma so'zlar onomastik leksikada ko'pchilikni tashkil etmaydi: *Boltabeka, Gulibeka, Gulbeka, Xolbeka* kabilar.

Umuman olganda, «bek» komponenti o'zbek tili onomastik leksikasida quyidagi ma'no guruhlari tarkibida uchraydi:

1. Modda-ma'dan tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Bektemir, Bektosh, Bekpo'lat, Bektillo, Kumushbek, Oltinbek, Toshbek, Tillabek* kabilar.
2. Qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Bekbola, Bektog'a, Bekbobo, Bobobek, Bobobek, O'g'ilbek*.
3. Amal-mansab tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Amirbek, Bekboy, Bekamin, Bekmir, Bekmirzo, Beksulton, Bo'lisbek, Shohbek* kabilar.
4. Tana a'zolari tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Bekbosh, Bektan, Bekqo'l* kabilar.
5. Jonivor tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Arslonbek, Bekbo'ri, Bekbo'ta, Bektoy, Bekqo'zi, Burgutbek, To'rg'aybek, Sherbek, Qoplombek, G'ozibek* kabilar.
6. Xususiyat bildiradigan so'zlar: *Ahilbek, Beknoz, Bekbotir,*

¹⁸¹ Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўз. –Т., 1984. –Б.16.

Bekturg'un, Bekqora, Kenjabek, Kattabek, Malhambek, So'fibek, Ulug'bek, Qorabek kabilar.

7. Harakat tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Bekbergan, Bekberdi, Bekbersin, Bekbo'l, Bekdurdi, Bekbo'lди, Bekbo'lсин, Bekkel, Bekkeldi, Bektursun, Bektug'dи* kabilar.
 8. Qurol-aslaqa tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Boltabek, Teshabek, Qurolbek* kabilar.
 9. Samo bilan bog'liq tushunchalarni bildiradigan so'zlar: *Oybek, Bulutbek, Oftobbek* kabilar.
 10. Joy-makon tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Buxorbek, Orolbek, Cho'lbek, Qo'qonbek, O'rmonbek* kabilar.
 11. Yaqinlik, do'stlik tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Adashbek, Yorbek, Jo'rabek, Do'stbek, Eshbek* kabilar.
 12. Tanadagi biror belgi tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Norbek, Melibek, Xolbek* kabilar.
 13. Kasb-kor tushunchalarini bildiradigan so'zlar: *To'g'onbek, Elchibek* kabilar.
 14. Qavm, qabila, elat, ulus kabi so'zlar: *Arabbek, Olotbek, Elbek, Ulusbek, Qirg'izbek, Qipchoqbek* kabilar.
 15. Narsa-predmet tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Savatbek* kabi.
 16. Fasl tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Bahorbek, Savurbek* kabilar.
 17. Fitonim tushunchasini bildiradigan so'z: *Gulbek* kabi.
 18. Marosim tushunchasini bildiradigan so'z: *To'ybek* kabi.
 19. O'lchov va miqdor tushunchasini bildiradigan so'zlar: *Oltibek, Oltmishbek* kabilar.
- Xullas, o'zbek tilida «bek» komponentli onomastik qo'shma so'z ko'plab uchraydi. Ular hozirgi kunda keng iste'molda qo'llanishi bilan xarakterlidir. Bizningcha onomastik leksikada qo'shma so'zlarni hosil qiluvchi boshqa bir qator komponentlar ham borki, ularni alohida tadqiqot etish hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb masalalardan biridir.

Savol va topshiriqlar:

1. Ism nima?
2. Ismning qanday turlari qo'llanadi?
3. Ism uchun qanday lug'aviy birliklar asos bo'la oladi?
4. Ism tarkibi, komponent tushunchasiga izoh bering.
5. "Bek" komponentli ismlar qanday ma'noviy xususiyatlarni namoyon etadi?

16-mavzu: Antroponimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari

Reja:

1. Antroponimlarda qo'shimcha ma'no bo'yog'ining ifodalanishi.
2. S.Ayniy asarlari antroponimiyasi.
3. A.Qahhor asarlari antroponimiyasi.
4. E.Jumanbulbul dostonlari antroponimiyasi.

Tayanch tushunchalar: *nom, ism, antroponim, antroponimika, konnotativ ma'no, qo'shimcha ma'no, laqab, qo'shimcha nom, so'zlovchi ismlar, qo'shimcha ma'no ifodalovchi nomlar, taxallus, yashirin ma'noli ismlar.*

Antroponimlarda qo'shimcha ma'no bo'yog'ining ifodalanishi. To'laqonli badiiy obrazning yuzaga kelishida qahramonning portreti (tashqi qiyofasi), nutqi bilan bir qatorda uning ismi ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, jahon adabiyotining mashhur so'z san'atkorlari o'z asarlari qahramonlari ismiga jiddiy e'tibor berishgan, jumladan, A.P.Chexov shunday degan edi: "Faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va faoliyatlarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo'lishi kerak". Darhaqiqat, qahramonlarning nomi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Biz quyida antroponimlarni o’z asarlarida muhim tasviri vosita deb bilgan va ulardan maqsadga muvofiq foydalana olgan buyuk so’z san’atkorlari S.Ayniy, A.Qahhor, E.Jumanbulbul kabi shoir va yozuvchilar mahorati haqida fikr yuritamiz.

S.Ayniy asarlari antroponimiysi. S.Ayniy asarlarining deyarli barchasida antroponimlar muhim tasviri vosita bo’lib xizmat qilgan. “Qullar” romanida Rahimdod – Nekqadam – Qulbobo, Safarg’ulom, Ergash, Hasan, Abdurahmon sardor, “Doxunda” romanida Doxunda – Yodgor, Bozor, Fayzicha; “Sudxo’rning o’limi”da qori Ismatulla – Qori Ishkamba, Rahimqand, Aminmush, Nasrullodeg va boshqalar.

S.Ayniy asarlaridagi antroponimlar o’z xarakteriga ko’ra quyidagilarga bo’linadi: 1) ismlar; 2) laqablar; 3) taxalluslar; 4) familiya va ota ismlari.

Ismlar o’z navbatida personaj nomlari, tarixiy shaxs nomlari, to’qima nomlar va mifologik ismlarga bo’linadi.

Kishi nomlari o’z tabiatiga ko’ra individuallashgan. Shunga qaramay, muallif o’z personajlarining sotsial holatlaridan kelib chiqib, ularni yanada individuallashtiradi. Ijobiy qahramonlar nomlari sodda, tovush jihatdan jarangdor, hamohang so’zlardan tashkil topgan: Bozor – Yodgor – Gulnor (“Doxunda”) Ergash – Yo’ldosh (“Qullar”) kabi.

S.Ayniy asarlaridagi personajlar ismida sinfiy tengsizlik, davr koloriti aks etib turadi. Chog’ishtiring: Mullanavro’z, Shohzamon, Bahrombek, Ochilbek, Mulloazimshoh; Qulbobo, Yodgor, Bozor, To’tigul, Yong’oqgul, Shokirg’ulom, Safarqul, Qulmurod va hokazo.

S.Ayniy asarlarida ko’pgina tarixiy shaxslarning nomlari uchraydi. Bular eng avvalo, Buxoro amirlari Muzaffarxon, Amir Abdulahad, Amir Olimxon, shoirlar Sahbo, Hayrat, Mirzoshoh, Ahmad Donish va boshqalar. Bu kabi nomlar nominativ vazifa bajarib tasvirlanayotgan davr voqealarini real tasvirlash uchun xizmat qilgan. Oldingi davrlarda bir qishloq yoki mahallada yashovchi bir xil nomli kishilarni ularning turli xatti-harakati va

belgilariga ko'ra laqablar bilan ajratganlar. Familiyalar paydo bo'lgach, laqablarga ehtiyoj qolmadi. Natijada avvallari nominativ vazifa bajargan laqablar asta-sekin uslubiy bo'yoqqa ega bo'ldi.

Birgina "Sudxo'rning o'limi" povestida qori Ishkamba, Rahimqand, Nasrullodeg, Fayziavliyo kabi laqabli ismlar uchraydi. "Sudxo'rning o'limi" povestining bosh qahramoni Ismatulla nomiga qo'shilgan "ishkamba" va "qori" laqablari xarakterlidir. Bu personaj bir tomondan "qori", ya'ni, "Qur'on"ni yod biluvchi diniy shaxs, ikkinchi tomondan, dinni musulmonchilikni bir qorin to'yg'azishga sotuvchi "ishkamba"dir. Yozuvchi ushbu laqabni tanlaganda o'z satirik qalamini yanada o'tkirlashtiradi: qori Ishkamba?! Haqiqatan, qiziq bir nom, hayvonlarning oshqozonini "ishkamba" deydilar. qanday munosabat bilan odamga "Ishkamba" nomini bergenlar?¹⁸² deb o'z qahramoni tashqi ko'rinishidan ishkambaga o'xshashligi va boshqa xususiyatlarini tasvir davomida ochib boradi.

S.Ayniy ayrim laqablar ma'nosi va xususiyatini badiiy tasvir davomida ochib beradi:

– Doxunda! – dedi u, – seni "Doxunda" deganimga xafa bo'lma. Buxoroda bu umumiylar bir odad, buxoroliklar Ko'histondan kelgan har bir kambag'alni "Doxunda" deydilar...¹⁸³. Doxunda – oyoqyalang, kambag'al demakdir.

S.Ayniy asarlaridagi antroponimlar maqsadga muvofiq qo'llangan bo'lib, o'zbek, tojik xalqlari ismlari tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bu o'rinda badiiy asar qahramonlari va chaqaloqqa nom qo'yish motivlari orasidagi munosabat haqida ham to'xtalib o'tish lozim.

Badiiy asar qahramonlariga va chaqaloqqa nom qo'yish motivlari o'rtasida o'xshashlik va farqlar mavjud.

¹⁸² Ayniy Sadriddin 4-tom. -B.178.

¹⁸³ Ayniy Sadriddin 2-tom. -B.230.

1. Chaqaloqqa ism tanlashda ota-on-a-chaqaloq bevosita ishtirok etadi. Yozuvchining personajga ism tanlashida ham mana shunday semantik uch burchak ta'siri sezildi. Faqat muallif-personaj-kitobxon shaklida shakllanadi.

2. Chaqaloqqa ism tanlashda ham, personajlarga nom berishda ham xalqning rasm-rusumi, orzulari inobatga olinishi, tashqi belgisiga ko'ra ism qo'yish, millat, biror hudud vakili ekanligi, ismlardagi ohangdoshlik kabilar bir xil ahamiyatga ega.

Ammo ayrim noo'xshashliklar ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. Chaqaloqqa qo'yilgan ism birgina uni atash vazifasini bajaradi. Personaj ismi bir necha motivga asoslanadi.

2. Chaqaloq ismi uni har tomonlama xarakterlamaydi. Personaj ismi uni ko'pincha xarakterlab turadi.

3. Chaqaloq ismi umrbod qoladi. Personaj ismi o'zgarishi mumkin M: P.Tursunning "O'qituvchi" romani bosh qahramoni Ergash, Xolmurod, Dilmurod keyinchalik Elmurod deb o'zgartirilgan.

A.Qahhor asarlari antroponimiyasi. A.Qahhor asarlarining mavzuyi, maqsad va mazmuni, janri kabi qahramonlarining ismlari ham xarakter xususiyati va vazifasiga ko'ra xilma-xildir. Ularning deyarli barchasi asarning umumiy ruhi va mazmuniga muvofiq tarzda yaratilgan yoki qo'llanilgandir.

A.Qahhorning o'tmish mavzuiga bag'ishlangan "O'g'ri", "Anor" va "Bemor" hikoyalarining asosiy qahramonlari – Qobil bobo, Turobjon va Sotiboldi deb nomlangan. "O'g'ri" hikoyasidagi Qobil bobo – g'oyat sodda, qobil va omi odam. Uning boshiga og'ir fojea tushib amin va ellikboshilardan umidvor bo'ladi. Qobil bobo ularning mug'ombirligini tushunib yetolmaydi. Yozuvchi faqir bu cholni Qobil bobo deb atash bilan uning soddaligini ta'kidlaydi va o'quvchining mazkur obrazning hayotiyligiga, asar voqealarining haqqoniyligiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga muvaffaq bo'ladi.

Yoki Sotiboldi ismini oling. U ham asarda ma'lum g'oyaviy maqsadga bo'ysundirilgan. U o'zbek xalqining farzandga ism qo'yishidagi odati, diniy e'tiqodiga bog'liq. U xotinini "diniy muolajalar" dan sog'ayib ketishiga umid qiladi. Doktorxona to'g'risida esa "Sotiboldining bilib olgani shu: salqin, tinch parkda daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmachasi bor...." Bularning barchasi Sotiboldi obrazining xarakteriga zid emas, balki uning ismi jismiga to'la mos keladi. Chunki o'tmishda Sotiboldi deb nom olgan kishilarning ong, fikrlash darajasi bundan ortiq bo'lishi mumkin emas edi.

Qobilbobo, Sotiboldi ismlari o'rniga Anvar yoki Zokir deb qo'ysak hikoyalarning mazmun ruhiga, voqealarning tabiiyligiga darhol putur yetadi. Natijada asarning ta'sir kuchi pasayadi.

A.Qahhor asarlaridagi qahramonlarning nomlari tasvirlanayotgan davr va zamonning asosiy xususiyatlari to'g'risida muayyan tasavvur hosil qiladi: Mullajon qozi ("Anor"), Saidrahmon eshon, Asqar ponsod, Abduvaqqos hoji ("Qo'shchinor chiroqlari"), Tavhidiy ("Millatchilar") va aksincha, Ehson ("Sarob"), Latofatxon ("Ko'k konvert"), Anvar, Muattar, Muhayyo ("Muhabbat"), Venera ("Nurli cho'qqilar") kabi zamonaviy ismlar keyingi davr ruhini o'zida aks ettiradi.

A.Qahhor o'z asarlaridagi ijobiy, yaxshi xislatli qahramonlarni iliq, samimiyl ismlar bilan ataydi. Ularga ko'pincha xalq tilidagi erkalash-kichraytish hamda sevish ma'nosidagi "jon", "xon", "oy" kabi qo'shimchalar qo'shilgan ismlar tanlaydi.

Salbiy xarakterli qahramonlariga ataylab kesatiq, kinoyaviy ma'nolarni ifodalovchi, o'quvchida ochiq kulgi, nafrat uyg'otuvchi sovuq va fosh etuvchi ismlar beradi. Bunday ismlarni shartli ravishda "gapirovvchi ismlar" deb atash mumkin. Bunday ismlar asarda qahramonning nodonligi va bema'niligini jirkanch qiyofasi va illatli xarakterini ravshan aks ettirib turuvchi o'ziga xos bir ko'zgu vazifasini bajaradi. Jumladan, birpasda

jazavasi tutib qoladigan nodon, jizzaki odamlarni "Jonfig'on"ga qiyos qilish, faqat jonining huzurini, aysh-ishratini o'ylovchi ayyor va firibgar odamlarni "Huzurjonov" deb, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq xotin qizlarga boy-feodallarcha munosabatda bo'ladigan odamlarni "Zargarov" deb atash xalqimiz orasida odat tusiga kirgan. Bunday misollarda muayyan qahramon xarakteri to'la aks etgan.

A.Qahhor o'z qahramonlariga ism berishda shakl va mazmun birligidan kelib chiqadi. Chog'ishtiring: Tavhidiy, Saidakbar, Mingboshi, Zunnunxo'ja, Said Oxunjon – Turdiali, Asrorbobo, Normamat, Orziqul, Xadicha xola va h.k.

A.Qahhor asarlarida bir guruh personajlar borki, ularga maxsus nom berilmagan. Buning sabablari quyidagilar:

1. "Bemor"da Sotboldining, "Anor"da Turobjonning xotini. Bu personajlar davr, tuzum qurboni ekani, ular hatto biror nomga munosib ko'rilmaganligini ta'kidlash.

2. Asar g'oyasiga nisbatan ikkinchi darajali bo'lgan obrazlar nomlanmagan. Maxsus individuallashtirilmagan.

3. Ayrim personajlar ismi o'rniga "qorovul chol", "xizmatkor", "hamshira", "nomi chiqqan ashulachi", "san'atkor" kabi izohlovchi nomlar qo'llangan.

Xullas, A.Qahhor antroponimlari yozuvchining maqsadi, estetik yuzaga chiqaruvchi uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Ergash Jumanbulbul dostonlari antroponimiysi. Antroponimlar xalq dostonlari lug'at tarkibining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Xalq dostonlarida ishlatilgan antroponimlarga xos xususiyatlar haqida baxshi E.Jumanbulbul asarlari misolida I.Xudoynazarov 1998-yilda nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi. Ushbu ishda antroponimlar bir tizim holatida olib qaralgan va ularning dostonlar tilida muhim uslubiy ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan¹⁸⁴. Qo'llanmada ushbu dissertatsiya materiallaridan foydalandik.

¹⁸⁴ Худойназаров И.И. Антропонимларнинг тил лугат тизимидағи ўрни: филол.фана.номз. диссер... –Т., 1998. – 125 б.

E.Jumanbulbul dostonlaridagi antroponimlar o‘z qo‘llanishiga ko‘ra, eng avvalo, ikki vazifani bajaradi: 1) nominativ; 2) ekspressiv-uslubiy.

Dostonlarda antroponimlarning ko‘pchiligi hozirgi kishi nomlaridan semantik-uslubiy jihatdan ancha farq qiladi. Ularda simvolik xarakterdagi to‘qima ismlar, mifologik nomlar ko‘p uchraydi. Boshqacha aytganda, ularning deyarli ko‘pchiligi “so‘zlovchi nomlar” hisoblanib, ma’lum bir uslubiy vazifa bajaradi.

E.Jumanbulbul 150 bosma taboq hajmida doston aytgan bo‘lib, ular sakkizta kitob shaklida nashr qilingan. Bulardan jami 304 turli xil antroponim uchraydi. Shulardan 243 tasi erkak, 42 tasi ayol, 30 ta dev va mifologik nomlar, 80 tasi to‘qima ismlardir.

Antroponimlarda ekspressiv bo‘yoq turli usullar bilan ifodalanishi mumkin. Jumladan, E.Jumanbulbul dostonlarida fonetik (tovush qobig‘i), morfologik (erkalash affiksoidlari) va leksik-semantik (ma’nosи) bilan ta’sirchanlik ifodalovchi antroponimlar uchraydi.

Fonetik vositalarda ifodalangan qo‘srimcha bo‘yoq talaffuzi va eshitilishi bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlarning bir so‘zda, ya’ni tovushdosh so‘zlar yoki so‘zlar tizmasi bir joyga yig‘ilganda yaqqol ko‘rinadi.

“Dalli” dostonidan olingan quyidagi parchada o‘zbek urug‘lari nomi, etnonim ifodalovchi so‘zlar talaffuziga xos, mos ismlar ohangdosh tarzda qo‘llanib, o‘ziga xos bir nutqiy musiqiylik hosil qilingan:

Odamman deganlari to‘p-to‘p, el-el kelayotir, Turkmandan Tolg‘irboy, Takadan Arg‘imboy, Caridan Silingir, Mingdan Mingboy, Bahrindan Dingboy, Saroydan Sanoql, Yobidan Yomg‘irboy, Maridan Markabiy... ko‘p odam yig‘ildi (“Dalli” 225-bet) “Ravshan” dostonida to‘rt aka-uka kal polvonlar: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak nomlari ham ohangdoshlik asosida to‘qilgan nomlardir.

Leksik-semantik usulda ismlarda qo‘srimcha ma’no ifodalanishi deganda, personaj ismining asar mazmuniga mos

kelishi tushuniladi. Go'ro'g'li antroponimi etimologiyasi bir necha xil talqin qilinadi:

- 1) Ravshanbekning xotini Bibi Hilol go'rda tug'adi;
 - 2) otasi Ravshanbek ko'r shaxs bo'lganligi uchun Ko'ro'g'li;
 - 3) go'rda tug'ilgan bolani gurg (bo'ri) boqqanligi uchun Gурго'г'ли;
 - 4) qadimgi turkiy "kyur" – mard, botir ma'nosidan.
Bizningcha, oxirgisi to'g'ri.
- Bu nom faqat xalq og'zaki ijodiga xos bo'lib, hozirgi antroponimlar sirasida uchramaydi:
- Bek Go'ro'g'li otim mening,
Chambil viloyatim mening
Dunyoda yo'q zotim mening!
O'ldim armonim qolmadi.*

Emotsional-ta'sirchanlikni shoir tomonidan asar mazmuniga mos holda to'qilgan. 70 dan ortiq to'qima ismlar misolida ham ko'rish mumkin: Mohiboy, Azbarxo'ja, Ayrisoqol, Jartiboy, Jaysan, Devtosh, Qanorboy, Tolg'ir, Kallaboy va h.k. Bunday ismlar dostonlar tiliga mos bo'lganligi uchun ham hozirgi, ya'ni 1991-yilda nashr qilingan E.Begmatovning "Ismlar lug'ati" kitobida uchramaydi.

E.Jumanbulbul dostonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri qahramonlarning parallel-nomlar bilan atalishidir: Devona – Avaz ("Qunduz bilan Yulduz"), Xushkeldi – Go'ro'g'li ("Xushkeldi"). Bunday qo'llanish sharoit taqozosi bilan asl nomlarini yashirib mislsiz qahramonlik ko'rsatishlarini bo'rttirib tasvirlash hamda kitobxon diqqatini voqeа-hodisalar tasviriga ko'proq jalb qilish bilan bog'liqdir.

Dostonlar tilidagi ba'zi mifologik, tarixiy shaxslarning nomlari, ayrim to'qima ismlar o'xshatish, sifatlash va boshqa sintaktik-stilistik figuralarni hosil qilish hamda tasvirning jozibali, badiiy chiqishida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Dostonlardagi laqablarga xos semantik-uslubiy xususiyatlar ham xarakterlidir. Biror xususiyatga ko'ra kishiga hazil yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom laqabdir.

Qadimda bir qishloq yoki mahallada yashovchi bir xil ismli shaxslarni ularning turli belgi xususiyatlariga, kasb-koriga qarab turlicha laqablar bilan ajratish zaruriyati laqablarni vujudga keltirgan. Familiya va ota ismlari paydo bo'lgach, laqablarga hojat qolmadi. Hozirgi tilimizda uchraydigan ayrim laqablar atash emas, balki uslubiy vazifa bajarish uchun ishlatiladi.

Xalq dostonlari qadimiy, og'izdan-og'izga o'tib kelayotganligi sababli ularda laqablar ko'p uchraydi. Ikkinchidan, laqablar o'z xususiyatiga ko'ra emotsional-ta'sirchandir. Chog'ishtiring: Jumanbulbul, Soqibulbul, Hasan Kulbar kabilar ijobiy-emotsional bo'yog'iga ega. Janjalkal, Jaynoqlar esa salbiy emotsional bo'yoqlidir. Laqablardagi bunday xususiyat kitobxonga hissiy ta'sir qiladi, unda personajlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi.

E.Jumanbulbul o'z tasvirida ism qaytariqlaridan qochish maqsadida ismlarga funksional-sinonim qilib faqat laqablarni ishlatadi:

*Endi Kallar toshadi,
Tinmay hay-haylashadi,
Shoshmay qaytsin botirlar
Keling, Kallar keching jondan.
Umiding bo'lsa maydondan.*

Shunday qilib, E.Jumanbulbul qo'llagan qator laqablar asar qahramonlarini u yoki bu tomondan tavsiflash, ularga xos xususiyatlarni ifodalash uchun muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Laqablardagi qo'shimcha ma'no bo'yog'i kitobxonda turli munosabat va zavq uyg'otishga xizmat qilgan.

"Taxallus" va "Laqab" so'zlari (atamasi) bir-biridan farq qiladi. "Laqablar" insonga yuqorida qayd qilingandek, turli belgi-xususiyatlariga ko'ra boshqa kishilar tomonidan beriladigan qo'shimcha ism bo'lsa, "taxallus"lar ayrim ijtimoiy, siyosiy va

iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib yakka shaxslarning o'zlarini tomonidan tanlanadi. Ayrim hollarda "taxallus" boshqa shaxslar yoki jamoatchilik tomonidan berilishi mumkin. Jumladan: Sadriddin Ayniy "Ayniy" taxallusining 48 ma'nosi borligini o'zi qayd qilib o'tadi. Alisher Navoiy – "navo" kuy ma'nosida. Ismoil Buxoriy, Juman shoirga "Bulbul" taxallusining berilishi (jamoatchilik lozim topgan), "Hiloliy" taxallusi yangi chiqqan oy ma'nosida va h.k.

Savol va topshiriqlar:

1. Antroponimlarda qanday ma'nolar mavjud bo'ladi?
2. Antroponimlardagi qo'shimcha ma'no bo'yog'ining ifodalanishi hodisasini izohlang.
2. Sadriddin Ayniy asarlari antroponimiyaning o'ziga xosliklari nimada?
3. Abdulla Qahhor asarlaridagi antroponimiyadan asosiy jihatlarini sharhlang.
4. Ergash Jumanbulbul dostonlari antroponimiyasi tadqiqi masalasini izohlang.
5. "Nomlar osmondan tushadi"ning ma'nosini izohlang.

17-mavzu: Antroponimlar tarkibidagi ayrim otlar xususida

Reja:

1. Antroponimlarning tarkibi tushunchasi.
2. Antroponimlardagi qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar.

Tayanch tushunchalar: *nom, ism, antroponim, antroponimiya, antroponimika, lug'aviy birlik, antroponim tarkibi, qarindoshlikni atovchi birlik, dada, ota, ona, tog'a, xola, bobo, buvi.*

Antroponimlarning tarkibi tushunchasi. Ma'lumki, onomastik leksikaning har bir birligi ma'lum bir ma'noni beradi, boshqacha qilib aytganda, biror predmet haqidagi xabarni ifodalaydi. Bular jumlasidagi kishilarni turli jihatdan nomlovchi atoqli otlar – antroponimlarni alohida qayd qilish lozim.

Qavm-qarindoshlik otlari kishi nomlari tarkibida juda keng qo'llaniladi. Qavm-qarindoshlik otlarining antroponimlar sifatida ishlatilishining asosiy sababi shundaki, ular ifodalaydigan voqeliklar, borliqlar, ya'ni katta va kichik qarindoshlik har bir shaxs uchun hurmatli, mo'tabar va yaqin sanalgan.

Qarindoshlik nomlari kishi nomlari sifatida ishlatilganda xalqimizning o'z qarindosh-urug'lariga, yaqinlariga izzat-ikromi, hurmati, e'tibori, tavozesi va e'zozlashi o'z aksini topadi. Katta yoshli kishilarga nisbatan qon-qarindoshlik nomlarini ishlatish o'ta yaqinlik va samimiylilikni, nikoh qarindoshlik nomlari qo'llanilganda esa yaqinlik va hurmat ma'nolarini ifodalab, yoshlarni tarbiyalashda xalqimiz o'tgan ming xil tarbiya-tavoze usullaridan biri bo'lsa – qarindoshlik otlarining kishi nomlari sifatida ishlatilishi, vokativ /murojaat so'z/ sifatida qo'llanilishida nutqiy, soniyaviy, vaqtincha bo'lgan hurmat, e'zoz, sadoqat va samimiyatning o'z farzandlari nomida abadiylashtirishdir.

Chunki yosh otlarining murojaat so'z yoki ko'chma ma'noda ishlatilishi nutqiy, soniyaviy, vaqtincha va ma'lum bir qurshovdagina, alohida sharoitdagina yuzaga chiqadigan hodisa bo'lsa, yosh otlarini farzandlariga nom qilib berish, bu so'zlarga yangi umr berish demakdir. Qavm-qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi turdosh ot bilan atoqli ot vazifasida keluvchi qavm-qarindoshlik nomlari o'zaro shakldosh so'zlar /omonimlar/ sifatida qaralishi lozim.

Darhaqiqat, atoqli otlar sifatida yosh otlari butunlay yangi mohiyat kashf etadi. Ularda turdosh ot vazifasida yuzaga chiqadigan deyarli barcha semalari to'liq yo'qolishi mumkin. Chunonchi, bobo so'zi qarindoshlik oti sifatida bir qancha nomlovchi va ifadolovchi semalarga ega. Kishi nomi /antroponim/ sifatidagi bobo so'zida bu semalarning hammasi yo'qoladi va faqatgina «jins» semasi saqlanadi, chunki Bobo nomi yahshi niyat bilan bobo bo'lsin, qarisin deb o'g'il bolaga qo'yiladi. Yosh otlari antroponimlar sifatida ishlatilganda, qator yangi

xususiyatlarni – antroponimlarga xos xislatlarni qabul qiladi, bulardan asosiysi, antropo-indikatorlar /kishi nomlari ko'rsatgichlari/: -jon, -xon, -oy, -boy, -qul, -bek, -xo'ja, -to'ra, shoh kabilar bilan bemalol birikadi. *Chunonchi Otabek, Otaboy, Otaqul, Shohota* va boshqalar.

Yosh otlari antroponimlar sifatida ishlatilganda nafaqat antropoindikatorlar bilan birikish qobiliyatiga ega, balki bir qator boshqa so'zlar, jumladan kishi nomlari /antroponimlar/ bilan birikib qo'shma antroponimlarni hosil qilish qobiliyatini kashf etadi. Otamurod, Bobomashrab, Boborahim va boshqalar. «Yosh oti+ot» hosilasi tarixan «ot + ot +shaxs egalik qo'shimchasi» qolipli so'z birikmalari bo'lib, bunday birikmalarda so'z birikmasining birinchi qismi vazifasida qarindoshlik otlari kelganda, butun hosila antroponim vazifasida qo'llanganda va so'z birikmasi orasidagi sintaktik aloqa va sintaktik aloqani ta'min etuvchi egalik qo'shimchasi ham tushib qoladi va natijada qo'shma antroponim vujudga keladi: otaning murodi – Otamurod, boboning murodi – Bobomurod.

Antroponimlardagi qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar. Anroponimlar vazifasida antropoindikatorlar bilan qo'shib kelgan holda quyidagi qarindoshlik otlari qo'llaniladi. *Chunonchi, Akajon, Bibigul, Bibijon, Bibinoz, Bibioy, Bibixon, Boboqul, Buvaxon, Buvjon, Dadaqul, Onajon, Onaxon, Otabek, Otaboy, Otaxon, Og'abek, Enaxon, Erbek, Erboy, Ertoy, Erqul, O'g'il, O'g'iloy, Qizlaroy, Qizlarxon, Qizlargul.*

Qo'shma antroponimlarning birinchi qismi vazifasida qarindoshlik otlaridan quyidagilar ishlatiladi: aka-, bibi-, bobo-, buva-, dada-, jiyan-, yigit-, nabira-, ona-, ota-, og'a-, pochcha-, singil-, tog'a-, er-, o'g'il-, qiz-: *Bibijamol, Bibikamol, Bibiniso, Boboali, Boboahmad, Bobonazar, Buvamuhammad, Buvaxon, Buvaoysha, Dadimir, Dadamirza, Dadamuhammad, Jiganmurod, Yigitali, Nabira, Onagul, Onaxon, Otabek, Otayor, Otajon, Otamatamat, Otamurod, Og'abek, Og'aberdi, Tog'ay,*

Tog'agul, Tog'anazar, Erali, Erahmad, Erbek, Ernazar, Erbo'ta, O'g'iloy, Qizlarbek, Qizlaroy kabilar.

Yuqoridagi ro'yxatdan ko'rinish turibdiki, antroponomilar vazifasida asosan birinchi yoki ikkinchi avlodga mansub bo'lgan «men»dan katta avlod shaxslarini /asosan yaqin qarindoshlarni/ ifodalovchi qon-qarindoshlik nomlari ishlatiladi va buning sababi jamiyatimizda asrlar davomida etib kelayotgan katta qarindoshlarga hurmatda o'z aksini topadi. Shu asosda biz quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Qavm-qarindoshlik nomlarining antroponomilar vazifasida ishlatilishi tarbiyaning muhim omili bo'lib, yoshlarni o'z avlodlariga sadoqat, hurmat ruhida tarbiyalash vazifasini o'tagan. Bugungi davrda, an'analarimizga munosabat yangilanayotganda biz bu hodisaga keng jamoatchilik diqqatini jalg qilishimiz, yaxshi an'analarimizni rivojlantirishga alohida e'tibor berishimiz zarur.

Endi kishi otlarining birinchi tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladigan qavm-qarindoshlik otlarining ayrimlari ustida to'xtalamiz.

Bibi. Bu so'z antroponomilar tarkibida bitta «jins» semasini saqlab qoladi va quyidagilar bilan qo'llaniladi:

-oy, -noz, -gul, -jon, -zoda, -xol, -xon, -nis o kabi antropo-indikatorlar bilan birikkan holda Bibioy, Bibinoz, Bibigul, Bibijon, Bibixol, Bibixon, Bibiniso kabi kishi nomlari yasaladi.

-nur, -zilol kabi poklik, yorug'lik, kamolot, tilak, istak tushunchalarini ifodalovchi so'zlar bilan birikib, Bibinur, Bibizilol, Bibikamol, Bibiravshan, Bibisuluv singari kishi nomlari ifodalanadi.

Ayol nomlari bilan birikib Bibizaynab, Bibisoro, Bibioysha, Bibifotima, Bibihajar kabi qo'shma antroponomislarni hosil etadi. Bunday antroponimlarning o'zbek tilida keng qo'llanilishining asosiy sabablaridan biri shundaki, o'zbek didaktik adabiyotiga o'tmishdagi muqaddas, pok, mo'tabar ayollar nomi oldidan

hamisha bibi ko'rsatgichi ishlatilgan va bu alohida hurmatni ifodalovchi antropoindiqatorlar vazifasini o'tagan.

Ota. Antroponimlar tarkibida qo'llanilgan bu so'zda ham bibi so'ziga o'xshash «jins» semasi saqlanib qolgan:

– antropoindikatorlar bilan yasalgan hosilalarda: Otabek, Otaboy, Otaxon, Otaqul, Otajon.

– o'zbek xalqining udumiga ko'ra otasiz oilalarda o'g'ilni ota qarindoshlik nomi vositasida yasalgan antroponim Otajon deb ataganlar va otasining o'rnnini olsin niyatida, yoki oilada otasining erkasi, arzandasasi ekanligini bildirish maqsadida Otaboy, Otabek ismlari berilgan;

– ota murodiga etdi deb Otamurod deb ataganlar.

Ota – antroponim tarkibida qo'llanishida tarixda o'tgan muqaddas shaxslar /chunonchi Nurota, Zangiota/ ni ulug'lab, farzandlariga yaxshi xislatlar o'tishini niyat qilib Otayor, Otaqul deb nom bergenlar.

Er. Er oti antroponimlar tarkibida, asosan, mardlik, dovyuraklik, jasurlik, botirlik kabi ma'no ottenkalarida qo'llanib, ota-onalar insonlardagi shu xislatlarni farzandlarida ko'rish niyatida o'g'illariga Erbek, Erboy, Erjon, Ertoy, Erqul kabi ismlarni bergenlar. Qarindoshlik otlarining qolganlarida ham bu yerda ko'rib o'tilgan –bibi, ota, er so'zlarida ko'rildigani umumiyligi xususiyatlarni va qonuniyatlarni ko'rish mumkin. Shuning uchun biz qarindoshlik otlarining barchasini antroponimlar tarkibida ishlatishini ko'rish imkoniyatiga ega emasmiz. Shuning uchun ko'rib o'tilgan hodisalar yuzasidan umumiyligi xulosa bilan cheklanamiz.

1. Antroponimlar vazifasida va ularning tarkibida asosan qavm-qarindoshlik nomlaridan «Men»dan katta yoshdagisi erkak va ayol jinsidagi qarindoshlarni ifodalovchi so'zlar qo'llaniladi.

2. Qavm-qarindoshlik otlari antroponimlar tarkibida o'zining ma'no tuzilishidagi atovchi va ifodalovchi semalardan asosan «jins» semasinigina saqlaydi, qolgan barcha semalar

yo'qoladi. Shuning uchun qavm-qarindoshlik otlari va antroponimlar tarkibidagi so'zlar orasida faqat tarixiy aloqadorlik semasi saqlanadi. Qavm-qarindoshlik atamasi /masalan, bobo/ va antroponim /Bobo/ o'zaro shakldosh /omonim/ so'zlar sifatida qaralishi lozim. Fikrimizni antroponimlar vazifasida ishlatilgan qavm-qarindoshlik nomi antropoindikatorlar bilan erkin birikishi yana bir marotaba tasdiqlaydi.

3. Qavm-qarindoshlik nomlarining antroponimlar vazifasida va antroponimlar tarkibida ishlatilishi o'zbek xalqining o'z avlodlariga, o'z an'analariga, o'z o'tmishiga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim omili bo'lgan va bu an'anani tiklash bugungi kun vazifalaridan biri deb sanalishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Antroponimlarning tarkibi tushunchasini sharhlang.
2. Antroponimlarda qanday lug'aviy birliklar qo'llanadi?
3. Qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar tushunchasini izohlang.
4. Antroponimlardagi qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar semantikasi haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.
5. Antroponimlardagi qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar har doim ham o'z ma'nosida qo'llanadimi?
6. Qarindoshlik bildiruvchi lug'aviy birliklar qanday holatlarda qarindoshlik ifodalamaydi?

18-mavzu: Udumlar va ismlar

Reja:

1. Ismlar tasnifi.
2. Tabarruk ismlar.

Tayanch tushunchalar: til, nom, atoqli ot, onomastika, ism, laqab, taxallus, udum, tabarruk ism, ism bag'ishlov, memorativ, ism izoh, ism tilak, dezirativ.

Ismlar tasnifi. Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta'sir ko'rsatadi, deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o'ziga o'xshaydi, degan noto'g'ri tushuncha bilan bog'liq. Shu sababli ham kishilar ongida "xosiyatli" va "xosiyatsiz" ismlar mavjudligi haqida turlicha ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma-xil ko'rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko'rindi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan bolaga qo'yishmaydi. Chunki marhumning arvohi achchiqlanib qolishi, ism bilan birga ajal bolaga ham o'tishi, yuqishi mumkin deb o'ylashadi.

Shuningdek, goldlarning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni yuzaga keltiradi, yomon nom bu kishi uchun baxtsizlik, ofat, kasallik va o'lim keltiradi, deb xayol qilishadi. Axir, shunday bo'lmasa, o'zi bilan nomdosh bo'lgan kishi hayotida biror baxtsiz hodisa yuz bersa yoki u vafot etsa, o'xhash ism egasi bo'lgan gold o'z ismini darrov boshqa biror nom bilan almashtirishga oshiqarmidi deysiz?! Armanlar bo'lsa, bolamizga hayot bo'lgan qarindoshning ismiga o'xhash nom bersak, qarindoshning umri qisqarib qoladi deb o'ylasharmidi?! Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, E.L.Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni to'plashgan.

Ismning inson va uning taqdiri bilan bog'liqligi haqidagi tasavvurlar turli-tuman va ko'p qirralidir. Beloruslarning hamqishloq bo'lgan jinni yoki aroqxo'r larning nomiga o'xhash ismlarni o'z bolasiga qo'yishdan qochishi ham keltirilgan odat bilan bog'liqdir. Mana shunday noto'g'ri tasavvurlar ta'sirida bo'lgan o'tmish kishilari o'zlarini turli tasodif va odatlardan saqlamoq uchun, har xil tilsimotlarning qurboni bo'lib qolmaslik uchun o'z shaxsiy otlarini sir saqlaganlar. Nomni yashirmoq uchun bolaga bitta emas, ikkita ism berilgan. Bolaning asosiy nomi sir tutilgan va u ikkinchi ism bilan yuritilgan. O'zbek oilalarida bitta bolaning bir davrning o'zida ham Muhammadamin, ham To'xtasin deb ikki nom bilan atashga ham duch kelishimiz mumkin.

Tabarruk nomlar. Bolaga ism tanlashda o'tmish ajdodlar ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlardandir. Bu odatning o'tmishda Saxalin, Bering bo'g'ozi hamda Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd etilgan. Bu odatga O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Bunda, asosan, ikki xil maqsad ko'zda tutiladi: birinchidan, bolaga ismni ota-bobolar nomidan tanlash bilan o'tmish avlod, ajdodlarni eslash va hurmatlash; ikkinchidan, chaqaloqqa, o'tganlar ruhi, arvohi "yor bo'ladi" uni "qo'llab qo'ltiqlaydi" deb ishonish. Bundan tashqari, kishilar o'z bolasining ismi chaqaloqqa qo'yilgan marhum qarindoshga o'xshasin, o'shandek badavlat yoki botir bo'lsin, xushfe'l, xushmuomalali, mehnatsevar, tirishqoq bo'lsin deb orzu qilishadi. Mana shunday maqsad va intilishlar zaminida o'tmish ota-bobolarning nomi kishilar tasavvurida aziz va xosiyatli bo'lib qolgan.

Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. Ammo

o'zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ism bag'ishlovlar – memorativlar.

Bu guruhga kiruvchi nomlarning yuzaga kelishi va berilishi sabablari kishilarning tabiat va tabiat hodisalari haqidagi qadimiy tasavvurlari bilan, ya'ni ba'zi hayvonlarni, o'simliklarni, jonivorlarni, ilohiy deb bilish, ularga sig'inish, ularni totem sifatida e'zozlanishi bilan bog'liqdir. Bunday ismlarning yuzaga kelishining asosiy negizi qadimiy davr kishilarining so'z (nom) ning sehrli kuchiga ishonishi va undan yordam kutishidir.

O'zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi:

1) osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: *Yulduz*, *Oyxon*, *Kuntug'mish*....

2) turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: *Bo'ron*, *Yomg'ir*...

3) turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: *Dengiz*, *O'rmon* ...

4) hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar: *Lochin*, *To'ti*, *Qaldirg'och*, *Qo'chqor*...

5) turkiy qabila va urug'larning nomidan yasalgan antroponimlar. Bu nomlarga o'zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi: *Do'rmon*, *Barlos*, *O'zbek* ...

2. O'zbek tilida ism-izohlar:

1. Nomda bola organizmidagi muayyan nuqsonlar yoki bola kasalligi bilan aloqador ma'lumotlar ifodalanadi: *Ochil*, *Ochila*.

Bu ismlar ko'r bo'lib tug'ilgan yoli turli ruhiy nuqsoni bor bolalarga qo'yiladi.

2. Ismlar tanlaganda bola badanida mavjud bo'lgan ba'zi notabiiy belgilar, tashqi alomatlar, qandaydir jismoniy nuqsonlar

hisobga olinadi. Shunday qilinsa bola umriga zavol kelmaydi, deb hisoblanadi: *Ortiq, Olti, Qo'shoq*.

3. Ism bolaning tashqi ko'rinishidagi alomatlariga ishora qilinadi. *Oqboy, Qoraboy*.

3. Ism tilaklar – dezirativlar. Bu tip nomlarga quyidagilar kiradi:

1. Ota-onalar chaqaloqning sog'-omon o'sishini, sonining ko'payishini xohlamоq uchun *Ko'pay, O'lmas, Yo'lchi, To'xta* qo'yishgan.

2. Yangi tug'ilgan bola omon-eson ulg'ayishi va oila a'zolari safiga qo'shilib ketishini xohlashadi: *Ilash, Qo'ldosh, Yo'ldosh*.

3. Chaqaloq ulg'ayib ota-onasining qarindoshlari o'rnini bosishini xohlashadi: *O'rin, O'tagan*.

4. Keyingi farzandlarini qiz emas o'g'il bo'lishini istashadi: *O'g'iloy, Ulbo'lsin*.

5. Chaqaloq sog'lom, mustahkam, irodali bo'lib ulg'ayishini turli kasalliklar oldida chidamli bo'lishini xohlashadi. Shu sababli bolaga qattiq, mustahkam narsalar nomidan ism tanlashadi. Bunday nomlarga quyidagilar kiradi:

a) tabiiy narsalar nomidan yasalgan ismlar: *Tosh, Temir, Yoqut, Cho'yon*;

b) mehnat qurollari, turmush anjomlari nomidan yasalgan ismlar: *Bolta, Tesha*;

6. Ba'zi holatlarda bolaga ongli ravishda xunuk ma'noli ismlar qo'yiladi. Bu bilan ota-onalar chaqaloqni yovuz kuchlardan, ko'z tegishidan asramoqchi bo'ladi: *Itolmas, Felamos, Yamoq*.

7. Chaqaloqning yovuz kuchlardan, bevaqt o'limdan asrash uchun qo'yilgan ismlar qatoriga "bolani sotish", "sotib olish", "almashtirib olish" singari odatlar bilan bog'langan nomlar ham kiradi: *Sotqin, Topildi*.

8. Ota-onalar ism yordamida chaqaloqning yovuz dushmanlarini chalg'itishga, aldashga, bolani bunday kuchlardan

yashirishga intiladi va o'shangang mos keluvchi nom tanlaydi: *Aldan, Adash, Berkin*.

Ismlar yuzaga kelishi va qo'yilishiga sabab bo'lgan yuqorida biz keltirgan motivlar turkiy xalqlarda azaldan uchraydi. Hozir ham davom etmoqda. Biroq hozirgi o'zbek yoshlaringin ismlariga nazar solar ekansiz, ularning ota-onalari o'z farzandining "ismi-jismiga monand" bo'lishiga qanchalik e'tibor berishlarini payqab olasiz. "Ismi – jismiga monand" deganlaridek, ismlarini havas bilan tilga olamiz. Kattasi Oysanam bo'lsa, kichigi Mahliyo, undan keyingisi Oysulton, yana biri Gulsara, Salomat, Halima, Sevara, – deb yozadi "O'zbekiston xotin-qizlari" jurnali o'z sonlaridan birida.

Darhaqiqat, o'zbek tilida shunday ismlar ham borki, ularda kishilarning o'z farzandiga bo'lgan eng yaxshi tilaklari, odamlarning orzu va intilishlari, zamonaviy ideallari o'z yorqin ifodasini topgan.

Kishilar o'z farzandlarining dovyurak va qo'rmas bo'lib yetishishini orzu qilishi tilimizda *Arslon, Botir, Mard, Sherbek, Qahramon, Eryigit, Azamat, Kuchlik, Shijoat, Qaytmas* kabi ismlarning tug'ilishiga olib kelgan. Odamlarning haqgo'ylik va adolatga, bilim va ma'rifikatga intilishi, o'z bolasining ana shunday fazilatlar egasi bo'lishini orzu qilishi ham qadimiy va tabiiy hodisadir.

Mana shunday orzular *Adolat, Odil, Oqiljon, Donoboy, Orifa, Oqila, Fozil, Fozila, Erdona* kabi nomlarning bizning davrimizga kelib keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

O'zbeklarda qiz bolani nomlashga ancha mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladilar. Qizlar ismi mazmundor, ayttilishi qulay, eshitilishi yoqimli hamda ko'rkar bo'lishi lozim. Shu sababli ham qizlarga beriluvchi ismlar go'zallik timsoli bo'lmish yorug'lik va nur, nafislik va poklik tushunchalarini anglatuvchi so'zlardan: *Barno, Maftuna, Madina, Mubina, Beg'ubor, Xurshida, Lobar, Matlab, Nozik, Orasta, Tozagul, Nodira, Pokiza; qimmatbaho*

va nodir predmetlar nomidan: *Gavhar*, *Yoqutoy*, *Kumush*, *Zumrad*, *Durjon*, *Tillaxon*; yoshlik va baxtiyorlik, noziklik va iboning ramzi gullar nomidan: *Nilufar*, *Nargiz*, *Gulnoz*, *Lolaxon*, *Charos*, *Gulnor*, *Rayhon* tanlanadi.

Bolaga munosib, yaxshi nom tanlashga intilish – eng qadimiy odat. O'tmishda ko'pgina kishilarning bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar bayon qilganini ko'ramiz. Masalan, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy bolaga nom qo'yganda tanlanadigan ism kishiga munosib bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi va farzandingiz ulg'ayganda o'z otining noqulayligidan uyalmasin deydi:

*Birisi qo'ymoq erur yaxshi ot
Kim desalar topmagay andin uyot.*

Bu jihatdan Alisher Navoiyning tomonidan o'z asarlari qahramonlariga bergen nomlari juda xarakterlidir. Masalan, uning

"Xamsa" sida shunday parchalarni uchratamiz:

*Dilorom-u, Diloro-yu, Diloso,
Gulandom-u, Sumanbo'-yu, Sumanso,
Parichehr-u, Parizod-u, Parivash,
Paripaykar zahi o'n ismi dilkash.*

Bu o'rinda A.Navoiy asarlarida uchrovchi Farhod, Xisrav va Humoyun kabi nomlarni izohlab o'tish foydali deb o'ylaymiz. Farhod nomiga A.Navoiy uning otasi tomonidan far – himmat, hod – baxt, davlat deb izoh beradi. Shoirning o'zi esa Farhod – firoq, rashk, hajr, dard kabi so'zlarning bosh harflari yig'indisidan tashkil topgan deb muammo beradi.

Humoyun atoqli oti ikki qismdan iborat: Humo – qush nomi – asos; -un qo'shimchasi noziklikni bildiruvchi unsurdir.

Yevropada bu qush feniks deb ataladi, Turkiy xalqlarda Semurg', Humo, Anqo, davlat qushi, baxt qushi nomlari bilan yuritiladi. A.Navoiy talqinicha, Semurg' o'ttiz qush demakdir.

Humoyun kalimasi o'zbek tili tarixida faqat kishi ismi sifatida emas, oddiy so'z tarzida ham qo'llangan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uning "buyuk podsholarga xos, oliy darajadagi, eng muqaddas"¹⁸⁵ ma'nolari ham qayd etilgan.

Fozil Yo'ldosh o'g'li "Zulfizar" dostonida baxt qushini Humoyun deb atagan:

*Humoyunday soya solib boshima,
Uzoq turma yaqin kelgin qoshima!*

"Farhod va Shirin" dostonidagi bosh qahramonlardan biri Xisrav (Xusrav) ismi haqida ham ayrim mulohazalarni aytish mumkin.

O'zbek ismlari orasida kam uchraydigan ismlardan biri Xisravdir. Bu so'z turdosh ot tarzida ham, atoqli ot tarzida ham XIV asr yozma yodgorliklari tilida uchraydi. Sayfi Saroyining "Guliston", Xorazmiyning "Muhabbatnama", Qutbning "Xusrav va Shirin" asarlarida Xisrav so'zi shoh, podsho ma'nosida ilk bor qo'llangan.

A.Navoiy asarlarida ham bu so'z podsho, shoh, hukmdor, bosh hukmdor ma'nolarida qo'llangan. "Xazoyin ul-maoniy" da Xisrav va Darvesh tushunchalari taqqoslanib nisbatlangan:

*Muhtoj sening dargohingga Xisrav-u Darvesh,
Parvarda sening ne'matingga johil-u dono.*

A.Navoiy shu so'z ishtirokida bir necha so'z va birikmalar tuzgan. Masalan:

Xisravlig' – podsholik;
Xisravona – shohona, podshoga xos;
Xisravi arjumand – ulug' shoh.

A.Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Xisravni Farhod obraziga zid tarzda, boshqacha aytganda, salbiy obraz sifatida qo'llagan:

Dedi: qaydin, sen ey Majnuni gumroh,

¹⁸⁵ Худойназаров И.И. Антропонимларнинг тил лугат тизимидағи ўрни: филол.фана.номз. диссер... –Т., 1998. – 125 б.

Dedi: Majnun vatandin qayda ogoh.

A.Navoiy asarlarida Eron shohi Xusrav tarzida emas, Xisrav tovushi qiyofasida o'zbek og'zaki nutqi talaffuziga asoslangan holda qo'llangan. Xisrav o'zbek tiliga turdosh so'z va kishi ismi, unvon nomi sifatida fors-tojik tilidan o'zlashgan. Tojikcha talaffuzi ikki xil – Xisrav va Xusrav. Tojik tilidagi ma'nosi ham shoh, podsho, sulton, amirdir. Ana shu fazilati va ma'nosiga ko'ra xisrav so'zi Sharq xalqlarida kishi ismiga aylangan.

Bu o'rinda Xisrav, Xusrav ismlari bilan bog'liq Kayxusrav ismi haqida ham gapirish lozim. Kayxusrav nomi ham A.Navoiy asarlarida zikr etilgan. Eron hukmdori nomi. Bu nom tuzilishiga ko'ra ikki qismdan iborat: kay – ulug', buyuk ma'nosi va Xisrav – ism shahanshoh, shohlarning shohi ma'nosini ifodalaydi. Xullas, Xusrav ismi qadimiylar bo'lib, garchi o'zbek adabiyotida salbiy obraz sifatida talqin etilgan bo'lsa ham, u o'zbek ismlari sirasidan siqib chiqarilmagan.

Bolani erkalaganda, ota-onalarda o'z farzandiga bo'lgan mehrmuhabbatini chaqaloqning ismi orqali uning nomini takror-takror aytish orqali ifodalash odati bor. Farzandni sevmoq azaliy yaxshi odat, albatta. Lekin biz ko'p holda o'z bolamizga qo'ygan tuppaturuzuk, chiroyli ismni turli, hatto, noqulay shakllarda buzib aytamiz. Masalan, Sarviniso ismi Sarbish, Bobojon ismi Bojon, Marhamat ismi Maxash, Alisher-Alish, Bobosharif – Bobosh shakllariga kirib qoladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi Ablas, Abray, Mavash, Mazam, Maydin, Mamash, Saloy, Suray singari ismlar ham ana shu shaklda buzilgan atoqli otlardir.

Ba'zan shunday ismlarga ham duch kelamizki, bunday nomlar anglatuvchi ma'no ko'pchilik uchun tushunarsiz: Loshak, Markaboy, Takaboy, Toshkasar, Iskonboy kabilar.

Demak, ismni yaxshi tanlashgina emas, balki uni asray bilmoq ham kerak.

Bolaga berilgan ism, birinchidan, mazmundor, ikkinchidan esa yoqimli, ohangdor hamda talaffuzda qulay bo'lishi kerak.

Shunga ko'ra, hozirgi davr o'zbek yoshlariga mazmunan teran, shaklan sodda so'zlardan yasalgan atoqli otlar ko'proq berilmoqda.

Qiz bolaga ism berganda, nomning mazmuni qo'pol va noqulay so'zdan iboratligidan qochish kerak. Axir, qiz bolaning Xo'rozzol, Nusxa, Zovra, Kasofat kabi nomlanishi qanchalik noqulayligi o'z-o'zidan ma'lum.

O'g'il bolaga beriluvchi ismnинг mazmundor hamda chiroyli bo'lishi bilan birga nomning undan familiya va otchestvo (ota ismi) yasash uchun qulay bo'lishiga alohida e'tibor berish zarur. Shunga ko'ra, ayrim chet el nomlaridan ism tanlaganda ehtiyyotkorlik qilish lozimga o'xshaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ism nima?
2. Ismning asosiy vazifa haqida ma'lumot bering.
3. Tarixiy ismlar nima?
4. Ism-tilak nima?
5. Memorativ atamasiga sharh bering.
6. Taxallus nima?
7. Bag'ishlov ism tushunchasini sharhlang.
8. Dezirativ ismi qanday yuzaga kelgan?

19-mavzu: Ism tarixi

Reja:

1. Ism – tarix.

2. Ism qo'yish san'ati.

Tayanch tushunchalar: *til, nom, atoqli ot, onomastika, ism, laqab, taxallus, udum, tabarruk ism, ism bag'ishlov, memorativ, ism izoh, ism tilak, dezirativ, ism-tarix, islom.*

Darhaqiqat, ismlar tarixi xalq tarixidir. Har bir tarixiy davrning o'ziga xos ism berish odatlari bo'lgan. Chunonchi, ibtidoiy va urug'chilik davrda berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, turli ilohiyashtirilgan tasavvurlar o'z ifodasini topgan: Oyarig', Kuchbars, Alp, Er, Tangriberdi kabi.

O'rta Osiyoda arablar istilosidan keyin Islom dini bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi ismlar paydo bo'lgan. Bunda ko'proq "Qur'on" ko'rsatmalariga amal qilingan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom 300 ta ish va harakatdan musulmonlarni qaytargan, ya'ni bu ishlarni makruh deb hisoblagan. Bulardan biri: "Farzandga ma'nosiz va nafratli nomlar qo'yish", ikkinchisi "Farzandga ortiqcha maqtovni eslatadigan ism qo'yish (masalan, Valiyulloh kabi)"

Ko'rindiki, islomning bolani nomlash aqidasi asoslarini ismning ma'noli, mazmunli, kibr-u havodan xoli hamda chiroyli bo'lishini tashkil qiladi.

"Qur'on" va "Hadislar"da kishilarning bir-biriga laqablar, haqoratli nomlar qo'yishini va odamni o'sha laqab bilan atashni nihoyatda qoralaydi. "Hadis"da shunday deyilgan: "Kimki birovni o'z nomi o'rniga boshqa laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la'natlaydilar. Odamlarga laqab to'qimangiz va laqablar bilan chaqirmangiz."¹⁸⁶

¹⁸⁶ Ахлоқ-одобга оид ҳадис мажмуалари. –Т.: Фан, 1990. –Б.148

Islomda yaxshi ism baxt, yomon ism badbaxtlik keltiradi deb hukm qilingan. Buni “Hadis”da keltirilgan quyidagi ibratli voqeadan bilib olish mumkin: “Ibn al Musayib otalaridan naql qiladilarki, otalari janob Rasulullohning huzurlariga borganlarida, ul zot: “Isming nedur?” -deb so’raydilar.

Otalari: “Ismim Huzn (g’am)”, – debdilar. Janob Rasululloh: “Sening isming Sahl (ya’ni Shodmon bo’lsin!)”, – deb aytibdilar. Otalari: “Otam qo’ygan ismni o’zgartira olmasman!” – debdilar.

Ibn al Musayib: “Shu-shu bo’ldi-yu, boshimizdan g’am arimay qoldi, – deydilar”¹⁸⁷.

Ism qo’yish san’ati. Islomda Ollohning o’zi go’zal ismlar sohibi ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi. “Qur’on”da “Ollohning go’zal ismlari bordir. Bas, uni o’sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar)” (“A’rof” surasi, 180-oyat) deyilgan. Shuning uchun ham Ollohning nomlarini yod olish va doimo dilda saqlab qolish, ularni aytib tasbeh o’girish mo’min-musulmonlarning asosiy fazilatlaridan biri sanaladi. Islom diniga oid kitoblarda Ollohning 99 ismi haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan. Farzandga ism tanlaganda, Ollohning ushbu nomlari negizida hosil qilingan nomlardan foydalanishga da’vat qilinadi. Ammo islomning talabiga ko’ra qo’yiladigan nomlar Olloh nomiga teppa-teng kelib qolmasligi kerak. Shu sababli, odatda Ollohning nomidan yasalgan ismlar tarkibida arabcha “abd” (qul), forscha “g’ulom” so’zlari keltiriladi.

Professor E.Begmatovning “Ism chiroyi”¹⁸⁸kitobida Olloh va islom dini tushunchalari bilan bog’liq uch yuzdan ortiq kishi ismlari izohli lug’ati berilgan. Ko’rinadiki, Ollohning go’zal ismlari bilan bog’liq qator nomlar hozir faol qo’llanmoqda.

Diniy ruhdagi ikkinchi tur ismlar payg’ambarimiz va uning sahabalari nomlari bilan bog’lig’ holda paydo bo’lgan. Tarixda anchagina payg’ambar o’tganligi ma’lum. Ba’zi adabiyotlarda

¹⁸⁷ Ҳадис. 4-том. –Т., 1992. –Б.132.

¹⁸⁸ Бегматов Э. Ислам чиройи. –Т., 1994.

ularning soni 24 mingta deb ko'rsatiladi. Ammo "Qur'on"da 25 payg'ambar nomi aniq ko'rsatilgan. Bulardan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zulnafl, Yunus, Muso, Xorun, Shuayb, Ilyos, Al-Yasa', Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammad.

Yuqorida qayd qilingan payg'ambarlarning nomlarining aksariyati o'zbek kishilarining atoqli oti sifatida ham keladi. Shuningdek, bu nomlarga boshqa ismlar yoki so'zlar qo'shilib yangi nomlar paydo qilingan: Odambek, Odamboy, Idrisxon, Solihboy, Isoyor kabi.

Ko'pgina ismlar Muhammad payg'ambarning safdoshlari, Choriyorlar nomlaridan olingan yoki ular negizida yasalgan: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali.

Farzandni Ollo beradi tushunchasi asosida esa Ollobergan, Xudoyberdi, Tangriqul kabi qator nomlar yaratilgan.

Turli diniy tushunchalar bilan bog'liq holda go'dakni baloqazodan asrashini nazarda tutib, ular ismi tarkibiga "islom", "din", (iddin), "mo'min", "banda" so'zlari qo'shilgan: Islom, Mo'min, Dinmuhammad kabi.

O'zbek ismlari orasida -iddin, -uddin qo'shimchasi (so'zi) bilan tugaydigan anchagina ismlar mavjud: Asliddin – dinning asosi, tayanchi; Asomiddin – dinning tayanchi; Bahouddin – dinning ko'rki; Vasliddin – dinning jamoli; Zahriddin – dinning posboni;

Chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatli oylar, kunlar haqidagi g'oyalarini ifoda qiluvchi so'zlardan yasalgan: Sayid, Xo'ja, Hoji, Namoz, Juma, Ramazon, Muharram kabi. Mana shu nomlar chaqaloqqa yaxshilik va baxt keltiradi deb ishonilgan. Islomning bolaga ism qo'yish bo'yicha talablari quyidagilar:

1. Musulmon o'z farzandini go'zal, chiroyli ismlar bilan nomlashi lozim.
2. Ism uning egasini mag'rurlantiruvchi bo'lmasligi kerak.

3. Bolaga ismni Olloh Taoloning go'zal ismlaridan yasalgan nomlardan tanlash lozim.

4. Musulmon kishining ismi ma'no va shaklan Ollohnning ismiga aynan teng kelishi yoki undan ortiq turishi mumkin emas.

5. Bolaga tanlangan ismlarda islomga bo'lgan hurmat ifodalanib turishi kerak.

6. Musulmonlar bir-birining ismini to'liq aytib chaqirishi lozim.

7. Musulmonlar bir-biriga laqab qo'yishi man qilinadi.

Bolani nomlashda asrlar bo'yi islom qoidalariga tayanilib kelindi.

Ammo bu qoidalar ba'zan qo'pol ravishda buzildi ham. Jumladan, Abduqodir nomi Qodir, Abdujabbor nomi Jabbor deb ishlatilmoxda. Vafo – sodiq, sadoqatli (aslida Abduvafo), Aziz qadrli (aslida Abduaziz) kabi qisqargan holda ishlatish natijasida Ollohga tegishli bo'lgan sifat va xususiyatlar uning bandasi bo'lgan shaxslarga mansub belgilarga aylanib qolmoqda. Bu holat islomning bolani nomlash talablariga tamoman ziddir.

O'zbek ismlari orasida ba'zan ma'nosiga ko'ra g'oyaviy qo'pol va noqulay holatga kelib qolgan Xudo-yev, Ollo-yev, Nabi-yev, Rasul-ov, Payg'om-ov, kabilarni uchratish mumkin. Bu familiyalar aslida Xudoyberdiyev, Olloqulov va h.k. bo'lishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Ism atamasini sharhlang.
2. Ismning paydo bo'lish shartlarini tushuntiring.
3. Diniy ismlar nima?
4. Zamonaviy ismlar tushunchasiga ta'rif bering.
5. Bolaga ism berishda nimalarga rioya qilish kerak?
6. Qanday ismlarni bolaga berish mumkin emas?

20-mavzu: Oronim va oronimika

Reja:

1. Oronim va oronimika tushunchasi.
2. Oronimika tadqiqi masalasi.

Tayanch tushunchalar: *til, onomastika, atoqli ot, oronim, oronimiya, oronimika, obyekt, oroobyekt, tog' nomi, relyef, tepa, balandlik, dovon, qir, bo'yin, tumshuq, burun.*

Onomastikaning yana bir sohasi oronimika hisoblanadi. Oronimika sohasining asosiy birligi oronimdir. Oronim nima? Ushbu savolga o'zbek tilshunosligida bir-biriga yaqin, ayrim jihatlari bilan farqlanadigan ta'riflar berilgan. Xususan, prof. S.Karimov va tadqiqotchi S.Bo'riyevlar oronimlarni "tog'larning nomlari" deya sharhlab, cho'qqi, tepa, qir, dovon, dara, jarning nomlarini ham kiritish mumkin degan¹⁸⁹.

Oronimlarga ta'rif bergan T.Enazarov: "*Oronim – baland, pastliklar, tog', tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog' va tepalarning nomlari yig'indisi. Oronimika – baland, pastliklar, tog', tepalar nomlarini o'rganuvchi bo'lim*"¹⁹⁰, degan hamda oronimlar guruhiga tog', tepa, adir, qoya kabilarning nomlari kirishini qayd etgan¹⁹¹.

Atoqli toponimist olim S.Qorayev: "*Oronim (oros – tog', onoma – nom, ism) – tog'lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari*"¹⁹², – degan hamda "*Oronimlarga tog'u toshlargina emas, balki relyefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiq-o'ypoqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi*", – deb ko'rsatgan¹⁹³.

Xorazm toponimiyasining atoqli tadqiqotchisi Z.Do'simov va M.Tillayevalar "Toponimika asoslari" nomli tadqiqotida oronim bilan bog'liq to'rtta atamani sharhlaganlar: 1) *orografiya* –

¹⁸⁹ Qarang: Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. –Б.44.

¹⁹⁰ Эназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б.78.

¹⁹¹ Enazarov T. Ko'rsatilgan asar. –B.80.

¹⁹² Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

¹⁹³ Qarang. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2006. – B. 66.

(*obyekt, termin*) *relyef tiplari va shakllariga doir; 2) oronim – relyef tiplari va shakllari* (*yer yuzasidan balandlik va chuqurlik*) *nomi; 3) oronimiya – oronimlar yig'indisi* (*sistemasi*); 4) *oronimika – toponimining ma'lum bir til yo region oronimlari majmuyini o'rGANADIGAN bo'limi*¹⁹⁴.

Onomastika sohasi terminlarini izohlashga bag'ishlangan lug'atda E.Begmatov va N.Uluqovlar: "Oronim (*yun.orog – tog'* + *onoma – atoqli ot*) – er yuzasi *relyefidan bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar* (*tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va boshqalar*) *atoqli oti*"¹⁹⁵.

E.M.Murzayev oronimlarga faqat *tog'* va *cho'qqi* nomlari kiritilishini qayd etgan¹⁹⁶.

1960-1970-yillarda oronimika toponimikaning alohida sohasi sifatida shakllangan. Bu borada B.A.Alborov¹⁹⁷, A.Z.Rozenfeld¹⁹⁸, O.T.Molchanova¹⁹⁹, E.Murzayev²⁰⁰, L.L.Trube²⁰¹, P.S.Rototayev²⁰², E.A.Kerambayev²⁰³, V.I.Isrofilova²⁰⁴, R.D.Sunchugashev²⁰⁵, V.A.Nikonov²⁰⁶, N.A.Lasinova²⁰⁷, N.A.Kichikova²⁰⁸,

¹⁹⁴ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 82.

¹⁹⁵ Begmatov E., Uluqov N. Ko'rsatilgan lug'at. – В. 63.

¹⁹⁶ Qarang. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Наука, 1974. – С.24.

¹⁹⁷ Алборов Б.А. Одно из древних мест поселения предков осетины Средней Азии по данным топонимики, гидронимики и оронимики// 5-ая межвузовская конференция по иранской филологии (тезисы докладов). – Душанбе, 1966. – С.133-139.

¹⁹⁸ Розенфельд А.З. Оронимы Юго-восточного Таджикистана // Душанбе, 1966. – С.133-139.

¹⁹⁹ Молчанова О.Т. Гидронимы и оронимы Горно-Алтайской автономной области (лингвистический анализ): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Томск, 1968. – 22 с. Молчанова О.Т. Географические термины горной части Алтая // Языки и топонимия Сибири. – Томск, 1970. – С. 15.

²⁰⁰ Мурзаев Э. Оронимия в внутренней Азии // Оронимика. – Москва: ЦИИГАИК, 1969.

²⁰¹ Трубе Л.Л. О повторяющихся оронимах (перенесенные оронимы, дублетные оронимы и омооронимы) // Оронимика. – М., 1969. – С. 15–19.

²⁰² Рототаев П.С. Краткий словарь горных названий Кабардинно-Балкарии. – Нальчик: Элбурус, 1969.

²⁰³ Керамбаев Е.А. Лексико-семантическая типология оронимов Казахстана: Дис. ... канд. филол. наук. – Алматы, 1988. – 195 с.

²⁰⁴ ИсроФилова В.Й. Азербайджаноязычные оронимы и гидронимы Грузинской ССР: Дис. ... канд. филол. наук. – Баку, 1989. – 146 с.

²⁰⁵ Сунчугашев Р.Д. Оронимия Хакасии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 23 с.

²⁰⁶ Никонов В.А. Заметки по оронимии Киргизии // Ономастика Средней Азии. 1. – М.: Наука, 1978. – С. 86-107.

²⁰⁷ Ласынова Н. А.Оронимия Юго-Восточного Башкортостана (Лингвистический анализ): Дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 174 с.

²⁰⁸ Кичикова Н.А. Заметки к изучению оронимии Республики Калмыкия // Известия ВГПУ. – Волгоград, 2010. – С.110-114.

A.S.Krivoshchekova-Gatman, M.N.Melxeyev, E.V.Sunduyeva²⁰⁹
va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Oronimlar bo'yicha bir qator izlanishlarni amalga oshirgan E.M.Pospelov: "*Oronimiya deganda, hajmi va gipsometrik sathidan qat'i nazar relyefning musbat va manfiy shakli nomlarini tushunish qabul qilingan. Oronimiya teng asosda tog'lar, cho'qqilar va baland tog'li vodiylar ham, tekisliklar, dashtlar, tekisliklardagi katta bo'lмаган тегишили бўлган барча асосија қонуниятлар ва ҳолатлар дакидор ва айни вақтда, фақат унинг о'зига хос бўлган, лекин ҳали то'лиқ аниqlanмаган xususiyatlar ham mavjud*"²¹⁰, deb qayd etgan.

A.V.Superanskaya toponomiyada alohida o'rinni tutadigan geografik obyektlarning o'zaro farqlanuvchi xususiyatlarini quyidagicha tavsiflagan: "Ma'lumki, butun yer yuzi quruqlik (hudud) va suvlik (akovatoriya)ga bo'linadi. O'z navbatida, ular landshaft va relyeflarga bo'linadi. Ular yer ustida va suv ostida ham bo'lishi mumkin. Landshaft va relyeflarning turli birikuvlari o'ziga xos fizik-geografik obyektlarni tashkil qiluvchi alohida sohalarni xarakterlaydi. Bu yerda bir tomondan musbat xarakterdagi relyef, ya'ni tog'lar, cho'qqilar, qirlar, tepalar, turli shakl va hajmdagi balandliklar, ikkinchi tomondan, manfiy xarakterdagi relyef, ya'ni tekisliklar, bo'shliqlar, chuqurliklar, jarliklar, vodiylar, daralar ajralishi mumkin. Bunday obyektlar nafaqat quruqlikda, balki suv osti dunyosida ham mavjud bo'ladi. Hudud, ya'ni quruqlikda mavjud bo'lgan barcha tabiiy-fizik obyektlarning nomlari oronimlarga tegishli bo'ladi. Shuni ta'kidlash o'rinniki, yer osti obyektlari ham o'ziga xos tipni tashkil etadi. Fanda g'orlarni o'rganuvchi soha speologiya deyilgani kabi g'orlar, yoriqlar va butun yer osti tizimi nomlarini speleonimlar deyish mumkin. Faqat yer usti emas, balki yer osti

